



“YANGI O‘ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL SALOHIYATNI YUKSALTIRISHDA XOTIN- QIZLARNING O‘RNI”

**MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY
KONFERENSIYASI**

24-may 2025-yil, Toshkent

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON
TILLARI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLAR
“OLIMA” UYUSHMASI**



**“YANGI O‘ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL SALOHIYATNI
YUKSALTIRISHDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI”**

respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari

24-may 2025-yil

Toshkent-2025

Mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida respublikamiz xotin-qizlari ham faol ijtimoiy kuch sifatida ishtirok etib kelmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar “Olima” uyushmasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Yangi O‘zbekistonda intellektual salohiyatni yuksaltirishda xotin-qizlarning o‘rni” mavzuidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan iborat ushbu to‘plamda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi va yetuk salohiyati mamlakat intellektual taraqqiyotini ta‘minlashda muhim omil ekanligi, inson kapitalini yaratishda olim ayollarning beqiyos o‘rni, ilm-fanni rivojlantirishda xotin-qizlar faolligini oshirish omillari, ularning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasi hamda istiqbolli ilmiy-innovation loyihalarni tayyorlashdagi roli, barkamol avlod tarbiyasida ayol ma‘naviyatining ahamiyati kabi dolzarb masalalar, ulardan kelib chiqadigan muhim vazifalar xususida tahliliy mulohazalar bildirilgan.

Mazkur to‘plamda yangi O‘zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish omillari, taraqqiyot maqsadlaridagi fan-texnika va innovatsiyalar samaradorligini ta‘minlashda olim ayollarning ishtiroki, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlashda amalga oshirilayotgan islohotlar, Yangi O‘zbekistonda ilm-fan va milliy-ma‘naviy qadriyatlarining yuksalishida ayollarning tutgan o‘rni, Barqaror kelajak uchun ilmiy tadqiqotlarda ayollar etakchiligi, Intellektual salohiyat Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim omillaridan biri ekanligi borasida amalga oshirilayotgan ishlar o‘z ifodasini topgan bo‘lib, o‘zining mazmun-mohiyati bilan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Taqdim etilayotgan ushbu xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami turli soha mutaxassislari hamda keng ilmiy jamoatchilik uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrirlar:	Bobojonova D.B. – tarix fanlari doktori, professor Djurayeva N.D. – tarix fanlari nomzodi, professor
Tahrir hay’ati va a’zolari:	Masaliyeva O.M. – t.f.n., dots. Babadjanova N.A. – t.f.n., dots. Toliboyeva N.O. – t.f.b.f.d. (PhD), dots. Isakov B.N. – t.f.n., dots.
Tuzuvchi:	Bazarova M.M.

“Yangi O‘zbekistonda intellektual salohiyatni yuksaltirishda xotin-qizlarning o‘rni” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (24-may 2025-yil).

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning og‘irini yengil qilish, ular uchun barcha sohalarida zarur sharoitlarni yaratib berish doimo davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.
Shavkat Mirziyoyev

SO‘Z BOSHI

Yangi O‘zbekistonda ayollarga hurmat-ehtirom ko‘rsatish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, intellektual salohiyatiniyuzaga chiqarish masalalariga, ularning huquq va erkinliklarini ta‘minlashga davlatsiyosati darajasida alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishda xotin-qizlar siyosiy faolligini oshirish, jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar samarasida havas qilsa arzigulik natijalarga erishilmoqda. Zero, ular tinch va osoyishtalikni ta‘minlash, mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, sog‘lom avlodni barkamol etib tarbiyalash barobarida, jamiyat hayotida ham, taraqqiyotning yangilanish pallasida ham faol qatnashib kelmoqdalar.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ilmiy-tashkiliy chora-tadbirlarda, jumladan, ayollarning ijtimoiy-siyosiy mavqei mustahkamlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni chuqur tahlil etish, jamiyatdagi ijtimoiy to‘siqlarning oldini olishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Xotin-qizlarning huquqlari va erkinliklarining davlat tomonidan kafolatlari va amalga oshirilayotgan islohotlar, ayollarga yaratilgan shart-sharoitlar, qulaylik va imtiyozlar manbalar asosida o‘rganilmoqda. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanligi, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlari ham asoslantirilgan. Ayniqsa, ta‘lim va innovatsiya, tadbirkorlik va o‘z-o‘zini band qilish masalasida xotin-qizlarning huquq va erkinliklariga ham e‘tibor berilgan.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan O‘zbekiston Xotin-qizlar “Olima” uyushmasi, tadqiqot.uz Xalqaro ilmiy jurnallar portali hamkorligida 2025-yilning 24-may kuni “Yangi O‘zbekistonda intellektual salohiyatni yuksaltirishda xotin-qizlarning o‘rni” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining o‘tkazilishi Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish, ilm-fan taraqqiyoti, fan-texnika va innovatsiyalar samaradorligini ta‘minlashga olim ayollarning qo‘shayotgan hissasi, xotin-qizlar huquq va manfaatlarining himoya qilinishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekanligi, ayol ma‘rifatining yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati borasida tarix, huquq, ijtimoiy-siyosiy fanlar bo‘yicha to‘plangan materiallar ilmiy tafakkur rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shiladi. Shu bilan birga, ushbu anjuman oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari ilmiy hamkorligining yanada rivojlanishiga, baxs va munozaralarda xotin-qizlar masalasiga oid ma‘lumotlarning kengayishiga imkon yaratadi.

I SHO‘BA. YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA MILLIY- MA‘NAVIY QADRIYATLARNING YUKSALISHIDA AYOLLARNING TUTGAN O‘RNI

Р.Х.Муртазаева
Ўзбекистон Миллий университети
тарих фанлари доктори, профессор
rambler.ru@rambler.ru

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХОРИЖДАГИ ВАТАНДОШЛАР БИЛАН АЛОҚАЛАРИНИ МУСТАҲКАМЛАНИШИ – УМУММИЛЛИЙ ТОТУВЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИ

АННОТАЦИЯ

Мақолада 2025 йил 19 мартдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Умуммиллий тотувлик ва хориждаги ватандошлар билан алоқаларни мустаҳкамлашни янги босқичга олиб чиқишга доир чоратadbирлар тўғрисида”ги Фармони асосида бир гуруҳ амалиётчи ва олимларнинг Америка Қўшма Штатларига ташрифи чоғида АҚШдаги ватандошлар билан учрашувлар, ўтказилган тадбирлар ҳақида маълумотлар тақдим этилган.

Мақолада мамлакатдаги миллатлараро сиёсат бағрикенглик тамойилларига таянилиши кўрсатилган. Диаспорология фан сифатида Ўзбекистонда ривожланиши зарурати мавжудлиги ҳамда давлатимиз миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик намунаси сифатида жаҳонга тобора тан олинishi асосланган.

Калит сўзлар. бағрикенглик, ватандошлар, миллатлараро тотувлик, диаспорология, хориждаги ўзбек диаспороси давлат смёсатида бағрикенглик тамойиллари.

STRENGTHENING NEW UZBEKISTAN’S CONNECTION WITH COMPATRIOTS ABROAD – A NEW STAGE IN ENSURING NATIONAL HARMONY

ABSTRACT

The article presents information about meetings and events held with compatriots in the USA during the visit of a group of practitioners and scientists to the United States based on the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on March 19, 2025, “On measures to raise national harmony and strengthening relations with compatriots abroad to a new level”.

The article demonstrates that the interethnic policy in the country is based on the principles of tolerance. It is substantiated that there is a need for the development of diasporology as a scientific discipline in Uzbekistan and highlights that our state is increasingly recognized worldwide as an example of interethnic harmony and tolerance.

Keywords: tolerance, compatriots, interethnic harmony, diasporology, Uzbek diaspora abroad, principles of tolerance in state policy.

Қадимги юнон файласуфи Гераклит Марказий Осиёни “фалсафий тафаккур белгиси” деб, таърифлаган. Бизнинг цивилизациямиз ўзига хос бағрикенглик тафаккур услубига таянади. Жамиятимизнинг миллий мафкураси тизимининг марказий қисми – миллатлараро тотувлик ғояси бўлиб, у - умумбашарий кадрият, турли халқлар биргаликда истиқомат қиладиган минтақа ва давлатлар тараққиётини белгилайди, шу жойдаги тинчлик ҳамда барқарорликнинг кафолати бўлиб хизмат қилади.

Бағрикенглик – ўзбек халқи менталитетининг ўзагини ташкил этади.

Бағрикенглик – фуқаролик жамиятининг энг муҳим маънавий-ахлоқий тамойили даражаси ва кадрияти ҳисобланади.

Ўзбекистоннинг таъриф қоғози – миллатлараро, динлараро, маданиятлараро бағрикенглик эканлиги жаҳонга маълум.

Бағрикенглик – бизнинг дунёмиздаги турли бой маданиятларни, ўзини ифодалашнинг ва инсоннинг алоҳидалигини намоён қилишнинг хилма-хил усуллари ҳурмат қилиш, қабул қилиш ва тўғри тушунишни англатади. Уни билим, самимият, очиқ мулоқот ҳамда хур фикр, виждон ва эътиқод вужудга келтиради. Бағрикенглик – турли-туманликдаги бирликдир. Бу фақат маънавий бурчгина эмас, балки, сиёсий ва ҳуқуқий эҳтиёж ҳамдир. Бағрикенглик – тинчликка эришишни мушарраф қилувчи ва уруш маданиятсизлигидан тинчлик маданиятига элтувчидир [1].

Бағрикенглик сўзининг этимологиясига назар солинса, чин инсоний, маъноси – ҳамфикрлик, ҳамжиҳатлилиқ, шахслараро амалий мулоқотга тўғри келади.

Бағрикенглик – ижтимоий муносабатларнинг янги тоифаси, дея талқин этилмоқда.

Бағрикенгликни замонавий жамият ҳаётининг универсал кадриятларидан бирига айлантириш, миллий ўзига хосликни сақлаб қолиш ҳаётий концепциямизнинг бош мақсадига айланиб бормоқда.

Осиё, Европа, Африка, Американинг ўтмишидаги кўпгина атоқли мутафаккирлари ёзиб қолдирган илмий асарларда ҳам, ўзларининг амалий фаолиятларида ҳам бағрикенглик руҳида иш тутганлар.

Шарқ мутафаккирларидан Абу Наср Фаробий ижодида бағрикенглик ғоялари юксак роль ўйнаганлигини яққол кўришимиз мумкин. Шарқнинг буюк қомусий мутафаккир олими Абу Райҳон Беруний ҳам бағрикенгликка муҳим аҳамият қаратиб, бу ҳол унинг бой меросига сингдирилган. Шарқ ва ғарб мутафаккирлари меросини қайси тилда бўлишидан қатъий назар, қайси ирқ ва динга эътиқод қилишига қарамасдан ўқиб ўрганганлар. Бу Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Хоразмий, Абу Наср Фаробий, Ибн Сино, Абу Райҳон Беруний ва кўплаб ўтмишдаги олим ва мутафаккирларни ижодида яққол намоён бўлади. Таъкидлаш лозимки бугунги кунда америкалик ва европалик олимлар бағрикенгликнинг тарихий илдизлари шарқда пайдо бўлганини тан олмоқдалар.

Глобаллашув давридаги ўзига хос вазият давлатлараро вазиятларни кескин ўзгартирди. Ҳозирги замонда Ўзбекистон жаҳон ҳамжамиятининг ажралмас қисми сифатида миграцион жараёнларда фаол иштирок этмоқда. 2025 йил ҳолатига кўра хорижда яшаётган ўзбекистонликлар сони турли манбаларга кўра фарқ қилади. Бу фарқ асосан вақтинчалик меҳнат миграцияси, доимий яшаш учун кўчиб кетганлар ва хорижий фуқароларни камраб олган статистик маълумотлар. Меҳнат мигрантлари ҳақидаги маълумотлар қуйидагича: 2024 йил охирида 6.2 миллион ўзбекистонлик чет элда ишлаш учун чиққан. Бироқ 2025 йил бошига келиб хорижда ишлаётганлар 1.35 миллионга камайган. Бу эса 2024 йилга нисбатан 34% камроқдир[2].

Доимий яшаш учун кўчиб кетганлар 2024 йилда 10842 ўзбекистонликларни ташкил этган. Уларнинг асосий қисми Қозоғистон (8792 киши) Россияга (1601 киши) кўчган[3].

Хорижда яшаётган ўзбекистонликлар сони ҳақида аниқ маълумотлар мавжуд эмас. Бироқ, 2023 йилги маълумотларга кўра, Россияда 1,2 миллион ўзбекистонликлар яшайди, бу хориждаги ўзбекистонликларнинг тахминан 60 фоизини ташкил этади. Шунингдек, Жанубий Кореяда 87.600 нафар ўзбекистонлик яшайди, Шимолий Америкада эса тахминан 68.000 ўзбекистонликлар бор[4]. Ўзбекистон Республикасида давлат миллий сиёсати бағрикенглик тамойиллари асосида тузилганлиги мамлакатимиз ичида ва ташқи сиёсатида умуммиллий тотувликни мустаҳкамлашга қаратилган.

Маълумки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 25 октябрдаги “Хорижда истиқомат қилаётган ватандошлар билан ҳамкорлик соҳасида Ўзбекистон Республикаси давлат сиёсатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарор амалга оширилмоқда.

Сўнгги йилларда 20 дан ортиқ хорижий давлатларда фаолият юритаётган 160 га яқин ватандошлар ташкилотлари билан ҳамкорлик алоқалари олиб борилмоқда. Тарихчилар зиммасидаги вазифалардан бири – хориждаги ўзбекистонликлар диаспораларини тадқиқ этишдан иборат.

Диаспораларни адаптация, аккультурация, трансформация, ассимиляция жараёнлари каби масалалар ўз ечимини кутмоқда. Диаспораларнинг имкониятларини рўёбга чиқариш, юзага келадиган муаммоларни ҳал қилиш учун назарий ва амалий тавсиялар ишлаб чиқиш эҳтиёжини туғдирмоқда.

Диаспорологиянинг фан сифатида шаклланиши XX аср охириларига бориб тақалади ва асосан ғарблик олимлар шуғулланишган. Ўзбекистонда “Миграция ва диаспора тадқиқоти” мутахассислиги бўйича магистрлар тайёрлаш эҳтиёжи мавжуд.

2025 йил 19 мартда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Умуммиллий тотувлик ва хориждаги ватандошлар билан алоқаларни мустаҳкамлашни янги босқичга олиб чиқишга оид чора-тадбирлар тўғрисидаги” Фармони эълон қилиниши, унда белгиланган вазифалар яна бир бор давлат сиёсатидаги бағрикенглик қадриятини амалий ифодаси ҳисобланади ҳамда мамлакамиздаги умуммиллий тотувликни янги, юқори

босқичга олиб чиқишга хизмат қилади. Президент Фармонида белгиланган устувор вазифалар куйидагилардан иборат:

- миллатлараро муносабатларни уйғунлаштириш, жамиятда дўстлик, ўзаро ҳамжихатлик, бағрикенглик ва бирдамликни мустаҳкамлаш орқали ягона фуқаровий ўзликни шакллантириш;

- Ўзбекистонда яшовчи барча миллат ва элатларнинг ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатларини таъминлаш орқали уларнинг умуммиллий тараққиётига дахлдорлигини кучайтириш;

- хориждаги ватандошлар жамоалари ва ўзбек диаспораларининг миллий ўзлигини сақлашга кўмаклашиш ҳамда уларнинг ижтимоий ва иқтисодий салоҳиятини Ватанимиз ривожига сафарбар этишни қўллаб-қувватлаш;

- халқ дипломатияси механизмлари орқали хорижий мамлакатлар билан ижтимоий-маданий ва дўстлик алоқалари ҳамда Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги ижобий имижини мустаҳкамлаш.

Юқорида кўрсатилган вазифалардан келиб чиқиб, халқ дипломатияси механизмлари орқали 2025 йил 3-11 апрель кунлари бир гуруҳ амалиётчи ва олимлар Америка Қўшма Штатларига ташриф буюрди. Қисқа вақт давомида Туркистон-Америка ассоциацияси (Нью-Джерси), Махалла-USA ташкилоти (Нью-Йорк), Охайо ва Филадельфия штатларидаги ватандошлар жамиятлари билан яқиндан танишишга сазовор бўлдилар. Нью-Джерсида ўтказилган Наврўз байрамига бағишланган бир қатор тадбирларда иштирок этилди. Ўзбек миллий урф-одатлари, анъаналарига риоя этган ҳолда, ўзбек тилини унутмаслик учун ватандошларни саъйи-ҳаракатлари таҳсинга сазовор. Жумладан, Охайо штати, Цинциннати шаҳрида истиқомат қилаётган ўзбеклар диаспораси томонидан боғча-мактаб ташкил этилгани катта аҳамиятга эга. Мазкур боғча-мактабда асосан мактаб ёшидаги болаларга ўзбек тили, араб тили ўргатилади ҳамда Ўзбекистон ҳақида маълумотлар бериб борилади. Нью-Йорк шаҳрида Махалла-USA томонидан эса ўзбек болалари учун мактаб ташкил этилган бўлиб, унда ўқувчилар эрталаб Америка мактабида, тушдан кейин эса ўзбек мактабида таҳсил олишга мўлжалланган. Албатта, мактабларни сони кам, аммо миллийликни сақлашга интилишнинг мавжудлиги ижобий ҳолат. Ташриф давомида Гарвард, Сиракуза, Цинциннати университетларида таълим бераётган ҳамда илмий-тадқиқотлар олиб бораётган ўзбек олимлари билан танишдик. Масалан, Нилуфар Қаххорова Гарвард университетида ўзбек тили фанидан дарс олиб боради ва шу билан бирга ўзи тиббиёт соҳаси вакили сифатида онкологик касалликка қарши дори воситаларини яратиш бўйича илмий изланишлар олиб бормоқда.

Шимолий Америкада 68.000 дан зиёд ўзбеклар истиқомат қилади. Ўзбек диаспорасининг ярмидан ортиқроғи Нью-Йоркда, қолганлари эса Лос-Анжелес, Филадельфия, Чикаго, Вашингтон шаҳарлари ҳамда Колумбия округида яшайди. 20 мингдан зиёд ўзбеклар Америка фуқароси ёки АҚШнинг тўлақонли резиденти ҳисобланади[5].

АҚШ ва бошқа давлатлардаги ватандошлар билан халқ дипломатиясини янада мустаҳкамлашда асосий омил сифатида бағрикенглик тамойиллари хизмат қилмоқда. Ўзбекистонда “Бағрикенглик-тинчлик омили” мавзусида форум ўтказилиши халқлар ва давлатлар ўртасида бағрикенгликни мустаҳкамлаш ва тасдиқлаш учун муҳим қадам сифатида хизмат қилади. Хориждаги ватандошлар жамиятлари учун Ўзбекистон тарихидан ўқув қўлланмалар, рисоалар яратиш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бағрикенглик тамойиллари Декларацияси, 1995 йил.
2. Gazeta.uz
3. Замин
4. Global visacorp.com.upy.nortn America
5. <https://ru.wikipedia.org>.

Diloram Babajanova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tarix fanlari doktori, professor
d.babajanova@uzswlu.uz

YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN RIVOJIDA AYOLLARNING O‘RNI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Yangi O‘zbekistonda ilm-fan rivojiga jiddiy e‘tibor qaratilayotgani, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘rganish va targ‘ib qilish masalasiga katta ahamiyat berilayotgani, bu borada davlat tomonidan yuritilayotgan siyosat doirasida amalga oshirilib kelinayotgan yangilanish jarayonlaridagi tub islohotlarda ayollarning o‘rni masalasiga bag‘ishlangan. Yangi O‘zbekistonda ham oila, xotin-qizlar, yoshlar tarbiyasiga oid muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ular amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. O‘zbekiston mintaqasi asrlar davomida ilm-fan markazi va buyuk allomalar yurti sifatida jaxonda o‘ziga xos o‘ringa ega mamlakat sifatida tanilgan. Albatta, bu o‘rinda allomalarni dunyoga keltirgan va ularni aql-zakovatli olim va alloma bo‘lib shakllantirgan ayollarning xizmati beqiyosdir. Ushbu jarayonda ayollar tomonidan olib borilgan ilmiy-ijodiy faoliyat bilan yoshlarni tanishtirish hamda ularni faol olim xotin-qizlar hayotidan ibrat olish va saboq chiqarishga undash hamda ijtimoiy foydali ishlar bilan shug‘ullanishga yo‘naltirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, yangilanish jarayoni, tub islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy faollik, ilmiy salohiyat, ilm-fan taraqqiyoti, targ‘ibotchilik, ma‘naviy kamolot, fidoyilik, iste‘dodli olim, ilmiy-ijodiy faoliyat.

РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ НАУКИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

Настоящая статья посвящена вопросам развития науки в Новом Узбекистане, в частности — важности изучения и продвижения социально-гуманитарных наук, а также роли женщин в глубоких реформах, осуществляемых в рамках государственной политики и процессов обновления. В Новом Узбекистане разрабатываются и внедряются меры, направленные на решение проблем семьи, женщин и молодежи. Регион Узбекистана на протяжении веков признавался в мире как центр науки и родина великих ученых. Несомненно, значительная заслуга в этом принадлежит женщинам, которые дали миру этих ученых и способствовали их становлению как выдающихся мыслителей. Целью данной работы является ознакомление молодежи с научно-творческой деятельностью женщин, побуждение их черпать вдохновение и уроки из жизни активных женщин-ученых, а также направлять их к социально полезной деятельности.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, процесс обновления, глубокие реформы, социально-экономическое развитие, социальная активность, научный потенциал, развитие науки, просветительство, духовное совершенствование, самоотверженность, талантливые женщины-ученые, научно-творческая деятельность.

THE ROLE OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article is dedicated to the growing attention given to the development of science in New Uzbekistan, with particular emphasis on the importance of studying and promoting social and humanitarian sciences, as well as the role of women in the profound reforms taking place within the framework of state policy and renewal processes. In New Uzbekistan, measures are being developed and implemented to address issues related to family, women, and youth. The region of Uzbekistan has long been recognized globally as a center of science and home to great scholars. Undoubtedly, women who gave birth to and raised these intellectuals and helped shape them into scholars have played an invaluable role. The main purpose of this work is to familiarize the youth with the scientific and creative activities carried out by women, inspire them to draw lessons from the lives of active female scholars, and encourage them to engage in socially beneficial activities.

Keywords: New Uzbekistan, renewal process, deep reforms, socio-economic development, social activity, scientific potential, scientific progress, enlightenment, spiritual maturity, dedication, talented female scholars, scientific and creative activity.

1. Dolzarbligi

Mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida respublika xotin-qizlari ham faol ijtimoiy kuch

sifatida ishtirok etib kelmoqdalar. Bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonda ilm-fan taraqqiyotiga jiddiy e‘tibor qaratilayotgan jarayonda ham ijtimoiy faol, zukko va zahmatkash olimlar tarix va ilmiy-ma‘naviy meros masalalari, milliy qadriyat hamda yoshlar ma‘naviyatini shakllantirish omillari kabi muhim vazifalar xususida tahliliy mulohazalar bildirilgan asarlar yaratib kelmoqdalar. Boshqa fanlar qatori ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasini, jumladan, tarix fanini ham rivojlantirish, xususan, uni chuqur o‘rganish, tadqiqot ishlarini kengaytirish, shuningdek, ilmiy natijalarni omma orasida joriy etish, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada davlat tomonidan yuritilayotgan siyosat doirasida amalga oshirilib kelinayotgan yangilanish jarayonlaridagi tub islohotlarda ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ma‘naviy yuksalish yo‘lida olimlar faolligini oshirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda tarixchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-ijodiy faoliyat bilan yoshlarni tanishtirish hamda ularni faol olim xotin-qizlar hayotidan ibrat olish va saboq chiqarishga undash hamda ijtimoiy foydali ishlar bilan shug‘ullanishga yo‘naltirish asosiy maqsad qilib qo‘yilganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, hozirgi kunga qadar O‘zbekiston tarixida alohida tadqiq qilinmagan ayollarga oid masalalar bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar olib borish, uni har tomonlama ilmiy tadqiq qilish va o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda faolligini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining **69-maqsadi** “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash”[1.], deb belgilangan. Albatta, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarda o‘z aksini topgan ezgu maqsadlarni amalga oshirish, avvalo, uch ming yillik o‘zbek davlatchiligi tarixida ayollarga bo‘lgan munosabat, turli davrlar osha saqlanib qolgan xotin-qizlarni qadrlash va e‘zozlash bilan bog‘liq bo‘lgan milliy tarbiya, urf-odat hamda an‘analarni chukur o‘rganish, xotin-kizlarning o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rni va xizmatlarini dunyo xalqlari o‘rtasida keng targ‘ib etish zarur. Bu esa “Ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmi, ma‘rifatli va salohiyatli qilish” degan aqidani hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi[2.150.]. Zero, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi – ayollarga e‘tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-kizlarning jamiyatdagi o‘rni va maqomini mustahkamlashdan iborat. Shu boisdan ham, o‘zbek xalqining uzoq va yaqin, boy o‘tmish tarixini haqqoniy o‘rganish dolzarb vazifalardandip.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan o‘zbek ayollari mehnatining xalq xo‘jaligi turli sohalari bo‘yicha taqsimlanishi, xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi o‘rni hamda uni taraqqiy ettirishdagi ijtimoiy faolligi masalalari ilmiy-tadqiqotlarda [3.24-25] aks ettirilgan. Shuningdek, tarix fani yo‘nalishidagi tadqiqotlarda ayollar bandligi, ularning islohotlardagi ishtiroki, davlat boshqaruvi va gender tengligi kabi masalalar hujjatli materiallar asosida ochib berilgan [4.17-23]. Zero, Yangi O‘zbekistonda ilm-fan taraqqiyotiga jiddiy e‘tibor qaratilayotgan ekan, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan, tarix fani bo‘yicha ilmiy-tadqiqot

ishlari olib borilishi, ularni yanada kengroq holda yoritib berilishi va targ'ib qilinishi masalasida olim ayollarning faol ishtirok etishi uchun imkoniyatlar yaratib berilishi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi

O'zbekiston boy va insoniy salohiyatga ega bo'lgan mamlakat ekanligini chuqur anglagan Prezident: "Bu salohiyatni yaratish va yanada ko'paytirishda hurmatli ziyolilarimiz—ilm-fan va texnika namoyandalari, birinchi navbatda qadrlil va hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganliklarini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz"[5.144], deb ta'kidladi. Mazkur holatni inobatga olganda, mamlakat tarixida o'zining noyob iqtidori, chuqur bilimi, saviyasi va zukkoligi bilan nom qoldirgan hamda mustaqil dunyoqarashga, falsafiy mushohadaga ega yuzlab fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari orasida o'z bilimi va iste'dodi bilan ilm-fan ravnaqiga astoydil xizmat qilib kelgan xotin-qizlarning borligi bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi.

Ayollar va qizlarning ilm-fan bilan to'laqonli foydalanishlariga teng imkoniyatlar yaratilishi, shuningdek xotin-qizlarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovatsiyalar" to'g'risida rezolyusiyada 11-fevral – Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni deb e'lon qilinganligi ayni muddao bo'ldi. Innovasion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilingan "Olima ayollar" tashabbuskor ilmiy loyihalar tanlovi ham aynan xotin-qizlarning ilm-fandagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan. Mazkur tanlov natijalariga ko'ra, hozirgi kunda jami 8 mlrd. 467.5 million so'mlik 16 ta loyiha moliyalashtirildi. 2020 yilning 1 iyunidan 1 sentyabrigacha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va O'zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligi tomonidan Shvesiya elchixonasi ko'magida O'zbekiston olim ayollari uchun ilmiy-tadqiqot faoliyat sifatini oshirish va xalqaro jurnallarda ilmiy maqolalarni nashr etish mahoratini oshirish bo'yicha treninglar o'tkazildi. Treninglarda qatnashish uchun tanlov doirasida 250 dan ortiq arizalar kelib tushdi, ulardan 51 kishi tanlab olindi. Hozirda startap loyihalar tanlovlarida hamda xorijiy davlatlarga stajirovkaga yuborilayotgan yosh olimlar orasida ham ayol va qizlarning sonini ko'paytirish bo'yicha choralar ko'rilmoqda[6]. Ular orasida tarixchi olimalarning ham borligi ulkan muvaffaqiyatdir.

Respublikada magistraturada o'qiyotgan barcha qizlarning kontrakt pullarini to'liq byudjetdan qoplab berish uchun 2022 yildan boshlab, har yili 200 milliard so'm mablag' yo'naltirilmoqda. Doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun, har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi huzurida "Olima ayollar jamiyati" tuzilishi va unga har yili 50 milliard so'm mablag' ajratilishi va kelgusi yillarda shu kabi maqsadlarga 1,8 trillion so'm yo'naltirilishi olim ayollar uchun katta imkoniyatlar ochib berdi. "Iloji boricha, ayollarimizning dardini, tashvishlarini sevinch yoshiga, g'alaba yoshiga, muvaffaqiyat yoshiga, natija yoshiga aylantirishga hammamiz birgalikda harakat qilamiz. Bitta qiz farzandni o'qitsangiz—butun oilani o'qitgan bo'lasiz deb otabobolarimiz bejiz aytmagan", – dedi Shavkat Mirziyoyev. Shuningdek, "Ilm-fan

bilan shug‘ullanish, ilmiy yangilik yaratish – bu igna bilan quduq qazishga barobar. Men o‘zim shu sohadan chiqqanim uchun bu ishning naqadar qiyin va murakkab ekanini yaxshi bilaman. Shuning uchun ham oila tashvishlari va farzand tarbiyasini ilmiy-tadqiqot bilan birga olib borayotgan, bu borada amaliy yutuq va natijalarga erishayotgan olim ayollarni shaxsan men chinakam matonat va jasorat sohibalari deb bilaman va yuksak qadrlayman”, – deb ta’kidladi Prezident. Davlat rahbarining taklifi tashkil etilgan “Oqila ayollar” harakatining asosiy vazifalari ham belgilab berilganligi katta tarixiy voqelik bo‘ldi[7].

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, O‘zR Fanlar akademiyasi YUNESKO tomonidan tasdiqlangan xalqaro anjumanlarni tashkil etish va tayyorlash borasidagi tashkiliy jarayonlarda ham olim ayollar faol qatnashib kelmoqdalar. Xalqaro miqyosda nishonlangan ilmiy anjumanlarda, jumladan, Amir Temurning 660 yilligi, Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yilligi, Imom al Buxoriy va Ahmad al Farg‘oniyning tavallud to‘ylari, Jaloliddin Manguberdining 800 yilligi, Imom al Moturidiy va Burhoniddin Marg‘inoniy yubileylarida tarixchi olimalar o‘zlarining sermazmun ma‘ruzalari bilan ishtirok etdilar. Shuningdek, tarixchi olimalar Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Mahmud Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Mirzo Ulug‘bek singari mutafakkirlarimizga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy seminarlarni tashkil etishdagi samarali ishlari bilan o‘zining noyob iste’dodi, bilim va mehnatsevarlik fazilatlarini namoyon etdilar.

Haqiqatda, bu kabi jarayonlarda ilm-fan va texnika namoyandalari, birinchi navbatda olim xotin-qizlarning o‘rni beqiyosdir. Shular orasida yaqin o‘tmishda yashab o‘tgan yetuk, tarix fanining zukko bilimdonlari, fidoyi, jonkuyar va zahmatkash insonlari – akademik va fan doktorlari Hujuma Shukurova, Melixon Oxunova, Sabohat Azimjonova, Rahima Aminova, Vasila Sodiqova, Ra‘no Rajapova, Roziya Muqminova kabi tarixchi olimalar qoldirgan boy merosdan bugungi kunda ilm ahli bahramand bo‘lmoqda. Olimalarning yaqin va uzoq o‘tmish tarixini yaratishda fidoiylik bilan olib borgan ezgu ishlari har bir yosh olimalar, umuman tadqiqotchilar uchun ulkan ibrat namunasidir. Ularning o‘chmas nomlari qoldirgan boy meroslari va amalga oshirgan ezgu ishlarida abadiy saqlanib qoladi.

Xususan, tarix fanining zukko bilimdoni, fidoyi va zahmatkash insonlardan biri – O‘zbekiston Respublikasi FA akademigi, tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, respublikada xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Rahima Hodiyevena Aminova olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarining g‘oyatda muhim va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini misol qilib keltirish mumkin. Tabiatan kamtar, halol, pokiza va ajoyib insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan Rahima Aminova tarix fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo‘lgan birinchi o‘zbek ayoli, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi bo‘lgan ilk ayollardan bo‘lib, yirik olim sifatida jahon ilmiy jamoatchiligiga yaxshi tanildi. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixiga oid 15 dan ortiq monografiyalar va ko‘plab tarixiy tadqiqotlar muallifi, yetuk jamoat arbobi, iste’dodli olim bag‘ri keng, ilm va ziyo taratib kelgan, hayotining har bir daqiqasini mazmunli va samarali o‘tkazgan noyob iqtidor egasi edi. U hech qachon mansab, obro‘ talashmagan, katta lavozimlarga ham qiziqmagan. Boisi, ilm-fanni

egallashni u o‘zi uchun eng katta lavozim, eng yuqori mansab deb bildi. Ana shu intilish, izlanishlar natijasida olima yirik ilmiy asarlar yarata oldi.

Taniqli tarixchi olima, mohir ilm-fan tashkilotchisi, talabchan ustoz hamda prinsipial rahbar R.Rajapova asosan sovet davrida yashab, g‘oyaviy jihatdan kommunistik mafkura butun jamiyatga hukmronlik qilgan davrda faoliyat ko‘rsatgan bo‘lishiga qaramasdan, O‘zbekistonda tarix fanini rivojlantirib, murakkab va ziddiyatli davrda respublikada ilm-fan taraqqiyoti va rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘sha oldi. Bu davrda mamlakat hayotida murakkab va jiddiy o‘zgarishlar yuz bergan, ayni paytda, tarix fani tanazzulga yuz tutgan yillar edi.

R.Rajapovaning butun ilmiy salohiyati va tashkilotchilik qobiliyati tarix fanidagi yangilanish jarayoniga boshchilik qilishi hamda tarixchi kadrlarni yoshartirish yo‘lini tutgandi. Bu qutlug‘ dargohda O‘zbekiston tarixi fanining darg‘alari hisoblangan Rahima Hodiyevena Aminova, Zoya Hamidullayevna Arifxanova, Roziya Galiyevna Muqminova kabi zabardast tarixchi olimlar qatoriga o‘rta avlod va navqiron olimlar o‘zlarining samarali faoliyatlari bilan kelib qo‘shildilar. Olimaning ilmiy rahbarligida O‘zbekistonda ko‘plab tarixchilar nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishdi.

Bugungi yoshlar ustozlar qoldirgan boy merosdan bahramand bo‘lsalar, yaratilgan sharoit va yangi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda ish yuritsalar, jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlarini to‘liq egallaydilar, mamlakat taraqqiyoti uchun yetuk va malakali kadrlar bo‘lib yetishadilar. Zero, ajdodlarimizning bebaho merosi – abadiyatga daxldor ma‘naviy xazina ekanligini chuqur anglansa, tarixiy xotiramiz qanchalik boy, mazmunli bo‘lsa, ilm-fan yanada taraqqiy etadi, xalq shunchalik uyushgan, hamjihat holda ulug‘vor ishlarni bajarishga qodir bo‘ladi.

Prezident 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida uqtirilganidek, “to‘plagan tajribamiz bir haqiqatni yaqqol isbotlab bermoqda **taraqqiyotga – faqat mashaqqatli va jasoratli mehnat orqali erishiladi**”[8]. Shu bilan birga, “mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim”, deb ta’kidlaydi [9.249]. Prezident Shavkat Mirziyoyev: “...har bir suveren davlat o‘zining betakror tarixi va madaniyatiga egadir. Bu tarix, bu madaniyatning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi esa, haqli ravishda shu mamlakat xalqi hisoblanadi. O‘zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og‘ir sinovlar bo‘lganini barchamiz yaxshi bilamiz. O‘zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to‘siq va sinovlarni o‘z kuchi va irodasi bilan yengib o‘tishga qodir... ayollarimiz hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida faol ishtirok etib, Yangi O‘zbekistonni barpo etishga beqiyos hissa qo‘shmoqdalar. Ularning orasida deputat va senatorlar, vazir va hokimlar, akademiklar, professorlar, O‘zbekiston Qahramonlari, Xalq o‘qituvchilari, Xalq shoirlari, Xalq artistlari borligini barchamiz yaxshi bilamiz [10.60], deb ta’kidlagani ayni haqiqat.

3. Tadqiqot natijalari

Bugungi zamon shiddat bilan o‘zgarib borayotgan Yangi O‘zbekistonning vatanparvar, serg‘ayrat, ilm-fanini taraqqiy ettirish, islohotlar jarayonida faol

qatnashish uchun astoydil ter to'kayotgan millatning faxri, g'ururi sifatida asrashga loyiq, arzigulik, ilm-fanda yuzlab fidoyi olim va olimalari bor ekan, bu yurtning kelajagi porlok, xalqi esa boy, badavlat bo'ladi, farovon hayot kechiradi.

Yangi O'zbekistonning vatanparvar, serg'ayrat, ilm-fanini taraqqiy ettirish uchun astoydil xizmat qilgan o'zbek millati faxri, g'ururi sifatida asrashga loyiq, hayotiy tajribasi bilan saboq bo'lishga arzigulik yuzlab fidoyi olimalari bor ekan, bu yurtda el aziz, inson aziz bo'lib hayot kechiradi.

Umuman olganda, Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, ta'lim olish va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun keng imkoniyat yaratishga qaratilgan 30 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, 4 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 ga yaqin Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 14 ta qarori qabul qilindi[11.]. Yangilangan Konstitutsiyamizda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, davlat xotin-qizlar hamda erkaklarga davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va boshqaruv hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi belgilab qo'yildi. Mazkur mavzudagi ish ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi ishtiroki, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy hayotda tutgan o'rni va rolini ko'rsatib beradigan tadqiqotlar qisman bo'lsa-da, mavjud bo'lib, tarixda ayollar masalasining u yoki bu jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

4. Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, bugungi kunda Yangi O'zbekistonda ilm-fan taraqqiyotiga jiddiy e'tibor qaratilayotgani, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar qatori tarix fanini ham o'rganish va targ'ib qilish masalasiga katta ahamiyat berilayotgani, bu borada davlat tomonidan yuritilayotgan siyosat doirasida amalga oshirilib kelinayotgan yangilanish jarayonlaridagi tub islohotlarda ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ma'naviy yuksalish yo'lida olimlar, shu jumladan, olima ayollar faolligini oshirish, ular uchun shart-sharoit yaratib berish, moddiy farovonligini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonda tarixchi olimalar tomonidan olib borilgan ilmiy-ijodiy faoliyat bilan yoshlarni tanishtirish hamda ularni faol olima xotin-qizlar hayotidan ibrat olish va saboq chiqarishga undash hamda ijtimoiy foydali ishlar bilan shug'ullanishga yo'naltirish ishiga ham jiddiy ahamiyat berilmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan, Uchinchi Renessans poydevori yaratilayotgan hozirgi davrda buyuk allomalar boy merosini chuqur o'rganish va uni keng jamoatchilikka yetkazish masalalari ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Ko'p yillar davomida xalqimizning milliy-madaniy tarixiy merosi, zamonaviy sivilizatsiya rivojlanishining xalqaro, milliy, madaniy, tarixiy, sivilizasion, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy gumanitar, ma'naviy, lisoniy, falsafiy muammolari borasidagi tarixchi olimalar ilmiy faoliyatining ko'pgina qirralari bilan o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bu masala kelgusida ham dolzarb bo'lib qolaveradi.

5. Iqtiboslar. References

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni/ <https://lex.uz/pdfs/5841063>.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.–B.150.

3. To‘qayeva. O‘zbekiston xotin-qizlari qishloq xo‘jaligida. – Toshkent, 1991 – 22 b.; Irisova M. Zanyatnost jennin Uzbekistana v usloviyax perexoda k rinochnim otnosheniyam. Avtoref. diss...kand. ekon. nauk.–Tashkent, 1995. –23 s.; Ubaydullayeva R. O‘zbekiston: bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida ayollar//O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent: 1995. –№9. –B.24-25.

4. Bobojonova D. Aholini ish bilan ta‘minlash va milliy ishchi kadrlar tayyorlash. – Toshkent: Abu Rayhon Beruniy nomidagi TDTU, 1995.– 37 b.; O‘sha muallif. Millat g‘ururiga aylangan ayol //Fan va turmush. –Toshkent: 1996.–№ 1.– B.14; Alimova D. O‘zbekiston ijtimoiy fanlarida xotin-qizlar muammolarining o‘rganilishi va vazifalari/O‘zbekistonda oila, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning roli va gender muammolari. –Toshkent:Fan, 1999. – B. 16-20; Rashidova S. O‘zbekistonda xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash muammolari //O‘zbekistonda “Gender va rivojlanish” xabarnomasi, 1999.– № 2. – B. 17-23.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B.144.

6. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-olima-ayollarga-etibor-qaj-darazhada>

7. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/03/07/womens/9> avgust 2022, 18:38

8. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2022 yil 20 dekabr/ www.xabar.uz › jamiyat › shavkat-mirziyoyevn.

9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.–B.249.

10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. –Toshkent: O‘qituvchi MU MCHJ, 2021. –B.60.

11. O‘zbekiston – ayol qadri ulug‘langan yurt // www.uzembassy.https://www.uzembassy.uk › news.

Xalikova Raxbar Ergashevna

Toshkent davlat texnika universiteti

Tarix fanlari doktori, professor

YOSHLARNI MILLIY-MA‘NAVIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA AYOLLARNING O‘RNI

ANNOTATSIYA

Maqolada milliy an‘analarimiz oila bag‘rida, mahalla ostonasida shakllanib kamol topganligi, asrlar davomida ajdodlarimizdan avlodlarga meros sifatida yetib kelganligi, urf odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an‘analarimiz ham milliyligimiz

ramzi ekanligi, hozirgi avlodga nafaqat bilim berish, balki ularni jamiyatni faol harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi ucun aynan milliy qadriyatga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni buzg'unchi g'oyalar, ma'naviy tahdidlardan asrash ham dolzarb vazifaga aylanib borayotganligi bunda ayollarning o'rni beqiyos ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, ma'naviyat, jamiyat, o'zbek xalqi, tarix, madaniyat, meros, qadriyatlar, taraqqiyot strategiyasi, "yosh kitobxon", buzg'unchi g'oyalar, Uchinchi Renessans, milliy-ma'naviy qadriyatlar, ona Vatan, tarixiy shaxslar, buyuk allomalar, "millat tarbiyachisi".

Azal azaldan ota bobolarimiz ilmu-ma'rifatni ulug'lab ta'lim va tarbiyaning avlodlar kamolotida asosiy poydevor ekanligini e'tirof etib kelganlar. Qaysiki davlatda yoki mamlakatda millat taqdiri ertasi va kelajagiga e'tibor qaratilar ekan o'sha mamlakat o'sha davlat shubhasiz gullab yashnaydi qudratli va buyuk yurt sifatida tan olinadi.

Avvalo ma'naviyat o'zi nimadan boshlanadi degan savolga e'tibor bersak. Ma'naviyat eng avvalo xalqning o'tmishi, ya'ni tarixini, hozirgi real hayotini bilishdan, uning kelajagini aniq tasavvur etishdan, ana shu asosda o'zini va o'zligini anglab yetishdan boshlanadi. "Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birgalikda singadi... Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi", – deb bejiz aytilmagan [1].

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, moddiy va ma'naviy boyliklari, jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan allomalarining ulkan merosiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Ularning merosini qayta tiklash, tarixiy shaxslar, buyuk allomalar, shaharlar, madaniy yodgorliklarning yubiley va bayramlarini o'tkazish an'anaga aylandi.

Bu bejiz emas, yosh avlodga qoldirilgan meros, uni asrab avaylash kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar ham yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini yuksaltirish, qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va takomillashtirishning ma'naviy-madaniy asoslarini o'rganish va tahlil etish borasida zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi.

Darhaqiqat, yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash – yangi rivojlanish bosqichida ustivor vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning bir qismi yoshlarga qaratilgan. Davlatimiz tomonidan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan zarur sharoitlarni yaratish,

jamiyat hayotida ularning o'zni va faolligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yoshlarni milliy qadriyatlarga, urf-odat va an'analarimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash asosiy vazifamizdir.

Yoshlarni yuksak axloqli qilib tarbiyalash, vatanparvarlik ruhida voyaga yetishida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ham o'ziga xos o'zni bor, yoshlarni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish maqsadida olib borilayotgan ushbu strategik islohotlar natijasida O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davrini yaratishda yoshlar asosiy kuch bo'lib xizmat qiladi.

Xo'p shunday mas'uliyatli jarayonda aziz ustozlarimiz – ayollarimizning o'zni qanaqa degan savol tug'iladi. Aynan har bir o'quv dargohida xoh u maktab bo'lsin, xoh u oliy ta'lim dargohi bo'lsin ko'plab o'qimishli ziyoli ayollarimiz faoliyat olib boradilar. Ularning barchalari yosh avlodga o'z bilimlarini berishga harakat qiladilar. Hozirgi avlodga nafaqat bilim berish kerak ularni jamiyatning faol harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi, buzg'unchi g'oyalar, ma'naviy tahdidlardan asrash ham dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Avvalambor, turli xil tahdidlardan yoshlarimiz hayotini asrash ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligimiz uchun ularni ezgu insoniy g'oyalar bilan qurollantirishimiz o'lmas asarlarimizga oshno qilishimiz shart.

Bugungi kunda Prezidentimiz yoshlarimizning kitobga bo'lgan munosabatlarini qo'llab-quvvatlab rag'batlantirmoqdalar. Respublikamizda "Yosh kitobxon" tanlovlari o'tmoqda. Juda ko'p yoshlar bu tanlovda ishtirok etish, uchun respublikamizning olis tumanlaridan ham ishtiyok bilan kelmoqda. Mahallalarda yosh avlod uchun kutubxonalar tashkil etilmoqda.

O'z taqdiri va kelajagi uchun qayg'uruvchi har qanday jamiyat, har qanday mamlakat yoshlarga munosabat masalasida ularning hayotini ma'naviy boy, sermazmun qilish, har tomonlama yetuk, barkamol inson bo'lib yetishishidan manfaatdordir. Shuning uchun yoshlarning jismoniy, ma'naviy va intellektual qobiliyatlarini namoyon qila olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yoshlarimizning siyosiy ongli, ma'naviy barkamol, sharqona odob-axloqli, faol, ma'suliyatli, ona Vatanga sadoqatli bo'lib yetishishi jamiyat, davlat taqdiri uchun g'oyat muhimdir.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti xalq dunyoqarashini hisobga olmasa, taraqqiyot asoslari, uning ma'naviy qadriyatlariga, moddiy manfaatlariga mos kelmasa bunday jamiyat tanazzulga uchrashi tabiiy.

Shu damda bir nafasga tariximizga nazar soladigan bo'lsak 80-yillar o'rtalarida o'zbek xalqi azaldan sevib ardoqlab kelgan urf-odatlar va marosimlar va bayramlar cheklab qo'yildi, ba'zilarining o'rniga boshqa bayram va marosimlar to'qib chiqarildi. Natijada avvalari nishonlanadigan "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Gul sayli" va boshqa xalq bayramlari unitilib qo'yildi. "Navro'z" bayrami esa avval ta'qiqlandi, so'ng sun'iy tarzda "Navbahor" bayramiga aylantirildi.

O'ylanmay qilingan bu nojo'ya harakatlar xalq dilini qattiq og'ritdi.

Ana shunday bir paytda kishilarning ma'naviy boyishiga, milliy madaniyatlarning bir-biri bilan yaqinlashuvi va o'zaro rivojlanishiga yordam

beradigan xalq an'analari va bayramlarini tiklashga katta e'tibor berildi. Bu o'rinda xalqimizning azaliy qadriyati va sevimli bayrami hisoblangan "Navro'z" bayramining xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo'ldi.

Albatta, bu tariximizni yoshlarimizga yetkazishimiz kerak. Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlilikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi. Mustaqillikka erishgunimizcha noto'g'ri mafkuraviy siyosat tufayli ko'pgina chin insoniy qadriyatlarimizga diniy tus berishga, ularni hayotdan siqib chiqarishga rosa harakat qilindi. Biroq bu narsa hech kimning qo'lidan kelmadi.

Shuni unutmash kerakki, insoniyat va millatlar takomili hech qachon milliy an'analarni poymol etish, axloq-odob pardalarini g'ijimlash evaziga emas, aksincha, insonni yanada balandroq ma'naviyat, poklik va odob cho'qqisiga olib chiqishda namoyon bo'ladi.

Xalqimiz farzand tarbiyasiga, uning kelajagi, axloq-odobi, kasb-kori va el orasidagi obro'siga nihoyatda ezgu bir fazilat tarzida qaraydi, farzandiga yaxshi nom qo'yish, yaxshi ustoz qo'lga topshirish, uni savodli, ilmi, biror hunar boshini ushlab, uylantirib, uyli-joyli qilish kabi xalqimizning ajoyib an'analari gullab-yashnaydigan zamon keldi. Yoshlarni tarbiyalash faqat oilalar vazifasi bo'libgina qolmay, umumjamiyat ahamiyatiga molik ijtimoiy burchga aylandi.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlariga bilimga chanqoq, iste'dodli bolalarni tanlash va ularga yetarli ma'lumot bermoq zarur; oliy o'quv yurtlarida qanday va necha xil mutaxassislik bo'yicha ta'lim berilishi ham nihoyatda muhim masala; zamon talab qilayotgan yangi mutaxassislarni aniqlab olish zarur; bunday vazifalardan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, o'quv dasturi va programmalarni zamonaviy talablarga moslashtirib tuzish va joriy etish kerak; shuningdek, Yurtimiz o'g'il-qizlari tahsilning oxirgi yillarini taraqqiy topgan davlatlarning o'quv markazlariga borib o'qishlarini tashkil qilish, o'qituvchilarni ham chet elga malaka oshirish hamda tajriba almashish bo'yicha yuborishni uyushtirish maqsadga muvofiqdir [2].

Поэтессы превращают данные образы в цельную эстетическую систему, опираясь на свой индивидуальный взгляд, внутренние переживания и жизненный опыт, и тем самым выступают как новаторы, формирующие новое направление в узбекской поэзии. Их творчество гармонично сочетает в себе традицию и новаторство, национальные основы и современность, эстетическую утонченность и философскую глубину. Следовательно, поэтическая интерпретация национальных ценностей через традиционные образы в современной женской поэзии Узбекистана не только обеспечивает преемственность культурного наследия, но и открывает новые горизонты художественного мышления.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Мирзаева З. *Ишк (Любовь)*. – Ташкент: Академнашр, 2011. – С. 16.
2. Мирзо З. *Нур кукуллари (Пылинки света)*. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2004. – С. 75.
3. Башляр Г. *Поэтика пространства*. – Бостон: Beacon Press, 1994. – С. 19. (*Bachelard G. The Poetics of Space*)
4. Афруз Ф. *Кўзим маним (Мой взор)*. Стихи. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1999. – С. 27.
5. Рустамова Х. *Девор (Стена)*. Стихи. – Ташкент: Творческий дом издательства и типографии имени Гафура Гуляма, 2006. – С. 101.

Sevara Aliqulovna Elmurodova

O‘zDJTU Roman-german filologiyasi fakulteti

YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA MILLIY-MA’NAVIY QADRIYATLARNING YUKSALISHIDA AYOLLARNING TUTGAN O‘RNI

ANNOTATSIYA

Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida ayollarning ilm-fan sohasidagi faolligi, yaratilgan imkoniyatlar va ularning erishgan yutuqlari tahlil qilinadi. Shuningdek, gender tengligini ta’minlash bo‘yicha qabul qilingan strategik hujjatlar va ularning amaliy natijalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit soʻzlar: ilm-fan, ayollar, Yangi Oʻzbekiston, gender tenglik, ilmiy faoliyat.

Ayol – jamiyatning tayanchi, oila bekasi, farzand tarbiyachisi, shuningdek, zamonaviy ilm-fan va taraqqiyotda faol ishtirok etayotgan fidoiy insondir. Ayol – millat tarbiyachisi. U – oila muhitida yosh avlodga ona tili, tarix, anʼanalar, vatanparvarlik, halollik, sabr-toqat kabi maʼnaviy qadriyatlarni singdiradi. Bu esa jamiyatda sogʻlom muhit va barqarorlikni taʼminlashga xizmat qiladi.

Mustaqillikdan soʻng va ayniqsa soʻnggi yillarda mamlakatimizda ayollarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi rolini mustahkamlash borasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Xususan, ilm-fan sohasida ayollarning faolligi haqida gapiradigan boʻlsak, bugungi kunda Oʻzbekistonda yuzlab olimlar, ilmiy tadqiqotchilar faoliyat yuritmoqda. Ular fan, taʼlim, tibbiyot, muhandislik, axborot texnologiyalari kabi sohalarda muhim kashfiyotlar va yangiliklarga hissa qoʻshmoqdalar. Shu bilan birga, yosh ayollar ham ilmiy grantlar, doktorantura va magistratura bosqichlarida faol ishtirok etmoqda.

Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi, oliy oʻquv yurtlari va ilmiy markazlarda ayollar sonining ortib borayotgani bu sohadagi ijobiy tendensiyani koʻrsatadi. Mahallalarda, taʼlim muassasalarida, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan ayol maʼnaviyat targʻibotchilari ham bu borada katta rol oʻynaydi.

Davlat siyosatida ayollarga berilayotgan eʼtibor haqida gapiradigan boʻlsak, Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida ayollarni qoʻllab-quvvatlash ustuvor yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Shu oʻrinda hozirgi kunda, yurtimizda “Ayollar daftari”, “Oila daftari”, “Ayollarni qoʻllab-quvvatlash markazlari” kabi tizimlar orqali ularning ijtimoiy va iqtisodiy faolligi oshirilmoqda.

Oliy taʼlimga qabulda alohida imtiyozlar, biznes loyihalarni moliyalashtirish, tadbirkor ayollarni ragʻbatlantirish ham bu siyosatning amaliy ifodasidir. Butun dunyoda, jumladan Oʻzbekistonda ham xotin-qizlarning fan, texnika va innovatsion yutuqlardan teng va toʻlaqonli foydalanishlariga imkoniyatlar yaratish mazkur sohada gender tenglikni taʼminlash BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2015-yil 22-dekabrda qabul qilingan “Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovatsiyalar” toʻgʻrisidagi rezolyutsiyada oʻz aksini topgan. Mazkur rezolyutsiyaga koʻra, 2016-yildan boshlab har yili 11-fevral “Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni” (International Day of Women and Girls in Science) sifatida nishonlanadi. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad, ayollarning 32 ilm-fandagi ishtirokiga eʼtibor qaratish va qoʻllab-quvvatlashdan iborat. Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining SQ-682-IV-sonli “2030-yilga qadar Oʻzbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” toʻgʻrisidagi qarorida belgilangan vazifalarni keltirish mumkin:

- Taʼlim, ilm-fan, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni taʼminlash.
- Iqtidorli xotin-qizlarni oliy taʼlim muassasalarida qoʻllab-quvvatlash maqsadida iqtidorli talabalar uchun maxsus stipendiyalar joriy etish.
- Stipendiya taqdim etishda shaffoflik prinsipiga amal qilinishini taʼminlash; - Ilm-fan sohasida muvaffaqiyatga erishgan mashhur oʻzbek ayollari

nomi bilan ataluvchi stipendiya joriy etish va uni taqdim etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- Stipendiya g'oliblarining magistratura, doktoranturaga qabul qilinishida imtiyozlar yaratish;

- Stipendiatlarni rahbar kadrlar zaxirasiga kiritish va yo'nalishiga ko'ra ma'lum amaliyotni o'tgach rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish.

- Har bir tarmoq kesimida xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi tafovutlarni tahlil qilish borasida olib borilgan ilmiy, amaliy hamda fundamental tadqiqotlarni tahlil etish.

- Hozirgi zamondagi tendensiyalardan kelib chiqib, tarmoqlarda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar ko'lamini ko'paytirish va muntazam ravishda keng jamoatchilikka yetkazib borish.

Bugun jamiyatimizning ilmiy-texnikaviy faoliyatida xotin-qizlar faol ishtirok etmoqda va ularning o'rni beqiyos. Olima ayollar tomonidan ilm-fan sohasidagi izlanishlar ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy sohalarning rivojiga salmoqli hissa bo'lmoqda. Ayniqsa ta'lim tizimida olima ayollarimiz xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, uchun sidqidildan harakat qilmoqdalar. Bu borada A.Avloniy nomidagi ilmiy tadqiqot instituti olimalari ham jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Ular tomonidan maktab o'qituvchilari uchun o'quvchilarni xalqaro dasturlarga tayyorlash usul va metodikalari taqdim qilinmoqda. Bu dasturlar jahon standartlari talabiga mos keladigan va o'quvchilarga tushunarli sodda qilib tuzilganligi e'tiborga loyiq. Mamlakatimiz ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotida 2018 yildan beri o'tkazib kelinayotgan "O'zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi" tanlovida ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish maqsadida talaba va o'quvchi qizlar, dasturchi va tadbirkor ayollar ishtirok etib kelayotgan tanlov ham muhim o'rin egallagan. "Olima ayollar grantlari" tanlovi xotin-qizlarni ilm-fan sohasida qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga xizmat qiladi. "Olima" ayollar uyushmasi qoshida "Yosh olimalar akademiyasi" tashkil etilgan bo'lib. Uning asosiy maqsadi iqtidorli talaba qizlar. Magistrlar xususan 30 yoshgacha bo'lgan ayollarni qo'llab quvvatlashdan iborat. Raqamlarga ko'ra O'zbekiston ilm fan olamining taxminan 30%ini ayollar tashkil qiladi. "Olima" uyushmasi esa ilm fanga qiziqqan 7000 mingdan ortiq a'zolarga ega. 2022-2023 yillarda o'tkazilgan ilmiy va innovatsiyon tanlovlarda 1,7 trillion so'mlik 111 ta ilmiy tadqiqot bilan ishtirok etgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ayni paytda ayollarning ilmiy faoliyatda nufuzi va o'rnini yanada oshirishga daxldor masalalar – olimalarga ijtimoiy muammolarni o'z vaqtida hal etishga ko'maklashish, tadqiqotlarni amalga oshirishning tashkiliy imkoniyatlarini yaratish, ilmiy faoliyatda gender

muammosiga barham berish, olimlar uchun ilmiy nufuzli mukofotlar ta'asis etish, tadqiqot grantlari, xorijiy stajirovka dasturlarini kengaytirish, olimlarning akademik mobilligini oshirish, innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash loyihalarini yo'lga qo'yish, ilm-fanni ijtimoiy taraqqiyotning drayveri va generatoriga aylantirish sohaning bundan keyingi rivojida samarali yechimdir. Shunday qilib, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar natijasida ayollar nafaqat oilada, balki jamiyatning barcha sohalarida faol ishtirok etmoqda. Ular ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shib, milliy qadriyatlarni asrash va avlodlarga yetkazishda beqiyos rol o'ynamoqdalar. Demak, ayol – bu kelajak bunyodkori, jamiyat tayanchi, ma'naviyat targ'ibotchisi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5696-son Farmoni.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.
4. Ilm-fan va innovatsiyalar rivojida ayollarning o'rni. – Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023.
5. To'xtasinova G. Oila va jamiyatda ayolning o'rni. – Toshkent, 2020.

Gulinur Zafarovna Hayitmurodova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz filologiyasi fakulteti talabasi

gulinurhayitmurodova162@gmail.com

Ilmiy rahbar: **N.O.Toliboyeva**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

dotsent, PhD

AYOL VA TARAQQIYOT: ILM VA QADRIYATLAR UYG'UNLIGIDA YANGI DAVR

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ilm-fan va milliy qadriyatlarni jamiyat hayotida uyg'unlashtira oladigan asosiy vositachi sifatida ayollarning tutgan o'rni, ularning Yangi O'zbekiston taraqqiyotida qo'shgan va qo'shayotgan hissasi, bugungi kunda ayollarning rivojlanishi, hayotda o'z o'rnini topishi uchun davlatimiz tomonidan ularga taqdim etilayotgan imkoniyatlar va mazkur sharoitlarning yorqin natijasi sifatida muvaffaqiyatga erishgan ayollarimiz haqida so'zlaydi. Shuningdek, aynan nima sababdan ayollar salohiyatiga, ularning dunyoqarashi va ruhiyati kuchli bo'lishiga har bir jamiyat e'tibor qaratishi kerakligi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ilm-fan, taraqqiyot, yetakchilik, Yangi O'zbekiston, ayol, milliy qadriyatlar, an'ana, tarix.

Kirish

Har bir millat, har bir davlatning ravnaq topishida, ularning dunyo miqyosida o'z o'rniga ega bo'lishida ayol kishining o'rnini kattadir. Taraqqiyot va ayol tushunchalarining doimo yonma-yon turishi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydigan egizak jumlar ekanligi ham inkor etib bo'lmay haqiqatdir. Ayolga, uning ta'limi, huquq va erkinliklariga e'tibor bergan, orzu qilishiga yo'l qo'yib, istak-xohishlari, dardini eshitgan, ma'nadan va ruhan sog'lom bo'lishi uchun imkoniyatlar yaratgan jamiyatdagina o'sish, rivojlanish, yangilanish va taraqqiyot bo'ladi. Chunki yangi niholni dunyoga keltirib, uni parvarish qiladigan, unga suv quyib, bir kun kelib uni mevalar yoki aksincha tikanlar ulashadigan bir daraxt holida voyaga yetkazadigan bog'bonlar ham aynan ayollarimiz hisoblanadi. Bugungi kunda xotin-qizlarimizni qiynaydigan ko'plab muammolarning ildizi ular bilimlarining yetishmasligi, o'z huquqlarini yetarli darajada talab qila olmasligiga borib taqaladi. Afsuski, oiladagi ajrimlar, kelishmovchiliklar sabab uysiz, joysez qolayotgan, hattoki, bolalarining ta'minoti uchun ham pul talab qila olmayotgan ayollarimiz bor oramizda. Shunday muammolarning oldini olish uchun ayollarning ilm olishiga, huquqiy savodxonligini oshirishga yetarli darajada e'tibor ko'rsatilmoqda.

Asosiy qism

Bugungi kunda inson huquqlari va erkinliklari, haqiqat ustiga qurilgan bizning jamiyatimizda ayollarga ko'rsatilayotgan imkoniyatlarni, e'tiborni e'tirof etmaslikning iloji yo'q. Masalan, bosh qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyamizda ayollarning davlat tizimidagi o'rnini, ularning faoliyati, ilm-fan doirasida ular uchun hech bir to'siqlarning yo'qligi qonun, adolat muhri bilan belgilab qo'yilgan. Huquqiy asoslar bilan ifodalanadigan bo'lsa, 47-modda: "Ayollar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat ayollar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlaydi, bu boradagi imkoniyatlar tengligini kafolatlaydi. Bu modda ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va ijtimoiy hayotda keng ishtirokini qonun bilan kafolatlaydi. 58-modda: "Davlat onalik va bolalikni himoya qiladi. Ayollar uchun mehnat sharoitlari, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimida alohida imtiyozlar yaratiladi". Bu modda orqali ayollarning sog'lig'i, ish joyidagi huquqlari va farzand tarbiyasidagi vazifalari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Asosiy qism. Yildan yilga ilmiy unvonlarga ega bo'layotgan, innovatsion rivojlanishda ishtirok etayotgan, ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan ayollar soni ortib bormoqda. Ayniqsa, o'zining start-up loyihalari, texnologik tashabbuslari bilan Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotgan ayollarni alohida aytib o'tish joiz. Yigirmaga yaqin xotin-qiz "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvoniga sazovor bo'ldi [2]. Yosh olimlarga ajratilgan grantlar doirasida ishtirokchilarning 40% dan ortig'i ayollardir (Innovatsion rivojlanish agentligi, 2023). O'zbekiston Oliy Majlisidagi ayol deputatlar ulushi 2024-yil holatga ko'ra 32% - dunyo miqyosida o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining ma'lumotiga ko'ra, har uchinchi mahallada ayol rais yoki rais o'rinbosari sifatida faoliyat yuritmoqda. Olim ayollar tomonidan ilm-fan sohasidagi izlanishlar ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy sohalarining rivojiga salmoqli hissa qo'shmoqda. 2018 yildan beri o'tkazib kelinayotgan "O'zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi" tanlovida ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish

maqsadida talaba va o'quvchi qizlar, dasturchi va tadbirkor ayollar ishtirok etib keladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish ta'kidlaganidek, insoniyat to'qnash kelayotgan ko'plab muammolarni hal qilishning eng yaxshi yo'li – “sinflar, laboratoriya va muzokara xonalarini olima ayollar bilan to'ldirish” orqali foydalanilmayotgan ulkan iste'dodlarni yuzaga chiqarish [3]. Madina Muhammedova 2021-yilda o'tkazilgan “Yoshlar kelajagimiz” jamg'armasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan “Startup tashabbuslari” milliy tanlovining 40 nafar g'olibidan biri bo'ldi. Madinaning ixtirosi – Airy Insole pataklari bo'lib, qandli diabetga chalinganlarda oyoq kasalliklarining oldini olish uchun mo'ljallangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ilmli ayol – jamiyat ko'zgusi” shiori ostida “XXI asr ayoli” xotin-qizlar festivalini Respublika va hududlar miqyosida tashkil etish va o'tkazish to'g'risida 2023-yil 31-iyulda 34-son majlisi bayoni ijro uchun yo'naltirildi [4].

Milliy qadriyatlar va ilm kabi muhim tushunchalar jamiyatning asosini tashkil etadi va ayollarning ushbu qadriyatlarni saqlashda xizmatlari benihoya katta. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan gender tengligi va xotin-qizlarga e'tibor masalasiga alohida urg'u berilgani mamlakatimizda keyingi to'rt yilda bu borada olib borilayotgan ishlarni dunyo ahliga namoyish etdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yaxshi bilamiz, mamlakatimizda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni va ta'sirini oshirish so'nggi to'rt yilda barcha davlat dasturlarining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilanmoqda. Bu borada O'zbekiston va BMTning maqsadlari ham mushtarak. Ya'ni gender tengligi, ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlarining doimo ajralmas va eng asosiy tamoyillaridan biridir. BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish ham “Qayerdagi siyosiy va ijtimoiy hayotda xotin-qizlar faol ishtirok etayotgan bo'lsa, o'sha joyda iqtisodiyot o'smoqda, barqarorlik mustahkamlanmoqda va fuqarolarning farovonligi yuksalmoqda”, deya bejiz ta'kidlagani yo'q. Bugun gender tengligi - barqaror ertangi kun uchun Xalqaro xotin-qizlar kuni gender tengligining asosiy masalalariga urg'u beradi. So'nggi yillarda mamlakatimizda qarorlar qabul qilish jarayonida xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli darajada ortib, tadbirkorlik sohasida 37 foizga, siyosiy partiyalarda 46 foizga, oliy ta'limda 48 foizga yetdi [5].

Xulosa

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ayollarning tutgan o'rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular nafaqat ilm-fan sohasida yyetuk olima, muhandis, tadqiqotchi sifatida, balki jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlovchi tarbiyachi, ma'rifatparvar va qadriyatlar posboni sifatida faol ishtirok etmoqda. Mamlakatda ayollarning huquqiy maqomi mustahkamlanib, ta'lim, kasb-hunar, ilmiy izlanish va ijtimoiy hayotdagi ishtiroklari izchil kengayib bormoqda. Statistik ma'lumotlar ham shuni ko'rsatadiki, ilmiy unvonga ega ayollar soni oshmoqda, siyosiy va ijtimoiy faoliyatda ayollar yetakchilik qilmoqda. “Ayollar daftari”, “Ishga marhamat” markazlari, davlat grantlari kabi dasturlar orqali ularning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Shu bois, ayol shaxsini taraqqiyotning faol subyekti, ilm va ma'naviyatni uyg'unlashtirgan jamiyat ustunlaridan biri sifatida e'tirof etish o'rinlidir. Ularning faoliyati orqali nafaqat

bugunning, balki ertangi O‘zbekistonning ma’naviy va ilmiy taraqqiyoti shakllanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir, 30.04.2023).
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022 yildagi 83-sonli “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadalashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori.
3. Toliboyeva N.O. O‘zbekistonda xotin-qizlar ta’limi masalalari. O‘tmishga nazar. 5-jild, 11-son (2022). -B.21-28.
4. Uzaqova Z.F. "Ilm-fan sohasida ayollarning o‘rni va yutuqlari". Transforming education through scientific discovery, 2024
6. “Xotin qizlarning ilm fandagi o‘rni yuksalishida O‘zbekistonda olib borilayotgan islohatlar”. – Toshkent, 2024
7. <https://www.undp.org>.

Munisaxon Abdulloyeva

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **M.A.Xolmurodova, PhD**

ZAMONAVIY O‘ZBEK JAMIYATIDA AYOLLARNING ILM-FAN VA MA’NAVIYATDAGI YETAKCHILIK ROLI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ayollarning tutgan o‘rni, xususan, ilm-fan sohasida ularning yutuqlari va milliy-ma’naviy qadriyatlarni asrashdagi hissasi yoritiladi. O‘zbekiston hukumati tomonidan qizlar va ayollar uchun yaratilgan imkoniyatlar, xalqaro ayollarning roli va ularning ilm sohasidagi ishtiroki hamda jamiyatdagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston ayollari, ilm-fan, milliy qadriyatlar, ta’lim, imkoniyatlar, jamiyatdagi faollik, global reyting, ayollarga yordam.

THE LEADERSHIP ROLE OF WOMEN IN SCIENCE AND SPIRITUALITY IN MODERN UZBEKISTAN SOCIETY

ABSTRACT

This article highlights the role of women in the development of New Uzbekistan, particularly focusing on their achievements in the field of science and their contribution to preserving national and spiritual values. It also discusses the opportunities created by the Uzbek government for girls and women, their participation in the field of education and science, the role of women on the international stage, and their importance in society.

Keywords: Women of Uzbekistan, science, national values, education, opportunities, social activity, global ranking, support for women.

РУКОВОДЯЩАЯ РОЛЬ ЖЕНЩИН В НАУКЕ И ДУХОВНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКИСТАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается роль женщин в развитии Нового Узбекистана, в частности, их достижения в сфере науки и вклад в сохранение национальных и духовных ценностей. Также рассматриваются возможности, созданные правительством Узбекистана для девушек и женщин, их участие в образовании и науке, международная роль женщин и их значимость в обществе.

Ключевые слова: Женщины Узбекистана, наука, национальные ценности, образование, возможности, общественная активность, глобальный рейтинг, поддержка женщин.

Ayollar har bir jamiyatning asosiy tayanchi, taraqqiyotning ajralmas kuchi sifatida e'tirof etiladi. Yangi O'zbekistonda bu haqiqat o'z tasdig'ini topmoqda. Ayollar nafaqat oilaning bardavomligi, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, jurnalistika, davlat boshqaruvi, ilm-fan kabi muhim sohalarda faol ishtirok etib, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida ayollar salohiyatiga bo'lgan talab kuchayib bormoqda[1]. Mamlakatda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida muhim imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Ayollar endilikda nafaqat ijrochi, balki tashabbuskor, yangilik yaratishga qodir ijtimoiy kuch sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, ilm-fan sohasida ayollar faoliyati izchil rivojlanmoqda. Ular fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, axborot texnologiyalari, pedagogika, adabiyot va tilshunoslik kabi yo'nalishlarda yuksak ilmiy darajalarga erishib, xalqaro miqyosdagi tanlov va grantlarda ishtirok etmoqda. Fanlar akademiyasi, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlarida faoliyat yuritayotgan olim ayollar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Bu holat, o'z navbatida, yosh qizlarni ilm-fan sari yo'naltiruvchi ijobiy ruhiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ta'kidlab o'tgan: "Ayollar – bu jamiyatning yuragi, kelajagini belgilovchi kuchdir[2]". Ularning bilim va mahorati, ijtimoiy faoliyati mamlakat taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biz ayollarga barcha imkoniyatlarni yaratish, ularning huquqlarini himoya qilish va rivojlanishlariga ko'maklashish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rmoqdamiz.

Bundan tashqari, milliy qadriyatlarning asrashida va ularni yosh avlod qalbiga singdirishda ham ayollarning o'zni beqiyosdir. Aynan ayollar oiladagi tarbiya, ma'naviy muhit, urf-odatlar, til, hunarmandchilik, xalq og'zaki ijodiyoti kabi meroslarni asrab-avaylab, uni davom ettiruvchi avlodlarga yetkazuvchi asosiy kuchdir. Ayollar tomonidan milliy qadriyatlarni targ'ib etish va zamonaviylik bilan

uyg'unlashtirish borasida olib borilayotgan ishlar ham e'tiborga molik. Ular an'anaviy oilaviy qadriyatlarni yo'qotmagan holda, zamonaviy dunyoqarashli farzandlar tarbiyasida, milliy liboslar, taomlar, san'at, adabiyot, til va urf-odatlarini avloddan avlodga yetkazishda asosiy vositachidir. Misol uchun, o'zbek ayollarining milliy liboslar san'ati bo'yicha qilgan ishlari xalqaro podiumlarda namoyish etilmoqda. Mahalliy brendlar orasida ayollar boshchiligidagi tikuvchilik uylarining ko'pligi, ularning eksport darajasiga chiqishi, xalqaro tanlovlarda g'olib chiqayotgan dizaynerlar borligi ham milliy qadriyatlar va zamonaviylik uyg'unligining yorqin isbotidir. Dilnoza Umirzoqova – milliy modaning elchisi. U O'zbekistonning iste'dodli dizaynerlaridan biri bo'lib, "ANOR" modalar uyi asoschisi sifatida tanilgan. Uning faoliyati nafaqat mahalliy moda industriyasida, balki xalqaro maydonda ham katta e'tibor qozongan. Xususan, u tomonidan ishlab chiqilgan milliy ruhdagi, o'zbek an'anaviy matolari – adras va atlasdan tayyorlangan liboslar Italiyada o'tkazilgan nufuzli "Fashion Week Milano" moda haftaligida muvaffaqiyatli namoyish etildi. Bu liboslar o'zbek xalqining boy madaniy merosini o'zida aks ettirgan holda, zamonaviy dizayn elementlari bilan uyg'unlashtirilgan. Dizayner har bir asarida milliy naqshlar, tabiiy ranglar va tarixiy bezaklar orqali o'zbekchilikni dunyoga namoyon qildi. Shu orqali u milliy qadriyatlarimizni saqlagan holda, ularni zamonaviy moda tillarida talqin etishga erishdi. Shuningdek, milliy hunarmandchilik, folklor va madaniy merosni asrashda ham ayollar muhim rol o'ynamoqda. Xususan, Marg'ilondagi atlas to'qish san'ati, Buxorodagi zardo'zlik, Xorazmning qo'g'irchoq teatri kabi boy an'analarni asrab-avaylab, kelajak avlodlarga yetkazishda ayollar mehnatini alohida ta'kidlash lozim. Ayollar - o'zlari bilan birga nafaqat ma'naviyat, balki milliy ruhni ham asrab kelayotgan jasoratli zotlardir.

Qizlar maktab, kollej va oliy o'quv yurtlarida o'zlashtirayotgan bilimlar orqali nafaqat o'z kelajagini, balki millatning ertangi ma'naviy salohiyatini belgilaydi. Shunday ekan, bugun ayollar jamiyatning har bir jabhasida – oliy ta'lim, tibbiyot, huquqshunoslik, arxitektura, muhandislik, jurnalistika, zamonaviy texnologiyalar, xalqaro diplomatiya kabi sohalarda oldingi safda turibdi. Ularga yaratilgan imkoniyatlar: qizlar uchun alohida oliy o'quv yurtlariga testda ustuvor kvotalar, imtiyozli kreditlar, xalqaro grantlar, mahalliy ilmiy stipendiyalar ayolni kuchli, mustaqil, innovatsion fikrli shaxs sifatida shakllantirmoqda. Tarix sahifalarida ham, bugungi kun hayotida ham o'zbek ayollarining ilm, ma'naviyat, mehnat va jasorat yo'lidagi faoliyati yaqqol ko'zga tashlanadi. Sayyora Rashidova, Dilorom Tadjibayeva, Matluba Azimbayeva kabi olimalar ilm-fanning rivojiga katta hissa qo'shgan bo'lsa, zamonaviy yosh olimalar ayollar bu an'anani izchil davom ettirmoqda[3].

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar uchun yaratilgan sharoitlar tahsinga loyiq. Ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari – "Ayollar daftari", "Ilmga chanqoq qizlar", ayollar uchun stipendiyalar, ilmiy loyihalarda ishtirok etish uchun grantlar, tadbirkor ayollarni moliyaviy rag'batlantirish kabi tashabbuslar ularning o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishiga zamin yaratmoqda. Ayollar tomonidan boshqarilayotgan ilmiy markazlar, tadqiqot laboratoriyalari, ayol tadbirkorlar uyushmalari – bularning barchasi ayol kuchining

jamiyatda nechog‘li muhim o‘ringa ega ekanidan dalolat beradi. Bundan tashqari, hukumat tomonidan ayollarga ilm-fan, ta‘lim va iqtisodiy faoliyatda teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ayollarga tadbirkorlik faoliyatida yordam berish, ularning biznes boshlashlariga ko‘maklashish, shuningdek, ilmiy va texnologik sohalarda ularga qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlash uchun tashkil etilgan maxsus dasturlar ayollarning muvaffaqiyatga erishishida asosiy omil bo‘lmoqda. Ayollar uchun yaratilgan sharoitlar nafaqat ilm-fan va iqtisodiyot, balki madaniyat, sport va san‘at sohalarini ham qamrab olgan. O‘zbekistonning ko‘plab ayollari xalqaro sport chempionatlarida va Olimpiadalarda yuksak natijalarga erishib, mamlakatni dunyo miqyosida tanitdilar. Bu yutuqlar ayollarning nafaqat o‘z imkoniyatlarini, balki jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini ham ko‘rsatadi. Masalan, Diyora Keldiyorova – O‘zbekistonning dzyudo bo‘yicha eng muvaffaqiyatli sportchilaridan biri bo‘lib, jamiyatdagi o‘rni va ta‘siri tobora ortib bormoqda. U 2024-yilgi Parij Olimpiadasida 52 kg vazn toifasida oltin medalni qo‘lga kiritib, O‘zbekiston tarixida Olimpiadada oltin medalni qo‘lga kiritgan birinchi ayol dzyudochiga aylandi. Diyora o‘z faoliyati orqali ayollarning sportdagi o‘rni va imkoniyatlarini kengaytirishga hissa qo‘shmoqda. U nafaqat sportchi, balki jamiyatda ayol sifatida o‘z o‘rnini topgan, ko‘pchilikka ilhom baxsh etuvchi shaxsdir. U gender tengligini targ‘ib qilishda ham faol ishtirok etadi. O‘zbekiston ayollarining jahon reytingidagi o‘rni haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekiston ayollari so‘nggi yillarda nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham o‘z salohiyatlarini namoyish etishga muvaffaq bo‘ldilar. O‘zbekistonlik ayollar ko‘plab xalqaro mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Jumladan, “100 ta eng nufuzli musulmon ayollar” ro‘yxatida bir nechta o‘zbekistonlik ayollar o‘rin olgan. Ular orasida ilm-fan, san‘at va ijtimoiy ishlar bo‘yicha erishgan yutuqlari bilan tanilgan olimlar va faol ayollar mavjud. Bu ro‘yxat ayollarning nafaqat o‘z mamlakatlarida, balki butun dunyo miqyosida qanday katta ta‘sirga ega ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekiston ayollarining “Women in Science” (Ilm-fan ayollari) xalqaro forumlarida qatnashib, ilmiy ishlanmalari bilan e‘tirof etilishi, ularga global miqyosda ilmiy jamiyatlar tomonidan yuqori baho berilayotgani ayollarning jahon reytingidagi o‘rnini yanada mustahkamladi. Shuningdek, xalqaro tanlovlarda Malika Rajabova, Xurshida Umarova, Nodira Karimova kabi olimlar va mutaxassislarining muvaffaqiyatlari ayollarning ilmiy, texnologik va innovatsion sohalarda qanday yuksalishlarga erishayotganini isbotlaydi. Yaqinda o‘zbekistonlik Xurshida Umarova nomli olimsuna sun‘iy intellekt va til texnologiyalari sohasida qilgan ishlari bilan xalqaro miqyosda tan olingan. Uning ishtirokida ishlab chiqilgan o‘zbekcha nutqni tanish tizimi O‘zbekiston ta‘lim tizimida ham qo‘llanila boshlandi. Siyosat sohasida ham O‘zbekiston ayollarining o‘rni kuchaygan. Yangi O‘zbekistonda ayollarning parlamentda, mahalliy hokimiyat organlarida va davlat xizmatlarida faol ishtirok etishlari tobora ko‘payib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Ayollar qo‘mitasi va boshqa hukumat tashkilotlari ayollarga ilm-fan, iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash va madaniyat sohalarida o‘z o‘rnini topishga imkoniyat yaratmoqda. Siyosatda faoliyat yuritayotgan ayollar orasida Saida Mirziyoyeva, Tanzila Norboyeva kabi ayollarning xalqaro diplomatiya sohasidagi ishlari ham jahon reytingida e‘tirof etilgan. O‘zbekistonning xalqaro miqyosda shunday

ayollarga bo'lgan ishonchi, ularni yuqori lavozimlarga tayinlashi va ijtimoiy sohalardagi ishtiroki ayollar o'rnini yanada mustahkamlamoqda. O'zbekistonlik ayollar sportda ham katta yutuqlarga erishmoqdalar. Jahon chempionatlari va Olimpiadalarda O'zbekiston ayollarining muvaffaqiyatlari yosh avlod uchun namunadir. Bundan tashqari, O'zbekistonlik ayollar "Women Entrepreneurs Global" kabi xalqaro tashkilotlarda o'z bizneslarini rivojlantirish va jahon bozoriga chiqish borasida yetakchilik qilmoqdalar. O'zbekiston ayollarining "Women in Business" (Biznesdagi ayollar) xalqaro reytinglarida o'rin olishlari va muvaffaqiyatli tadbirkor ayollarning xalqaro podiumlarda qatnashishi, mamlakatimizda ayollarga iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash berilayotganini ko'rsatadi.

Ta'lim sohasidagi islohotlar tufayli qiz bolalarning oliy ta'limga bo'lgan qiziqishi va kira olish imkoniyati keskin oshdi. Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan STEM maktablari, xorijiy universitetlar filiallarida tahsil olayotgan qizlar - bu kelajak olimalarining bugungi poydevoridir. Ayniqsa, qizlar uchun tashkil etilgan "Temurbeklar maktabi", "Ilm-fanga mehr", "Ayollar akademiyasi" kabi tashabbuslar bilimli, salohiyatli va zamonaviy ayol obrazini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ilm-fan sohasida ayollarning faolligi nafaqat mahalliy, balki xalqaro darajada ham e'tirof etilmoqda. 2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda ilmiy unvonga ega ayollar soni 3000 nafardan oshdi, bu esa respublikadagi ilmiy salohiyatning yarmidan ko'pini tashkil qiladi. Qolaversa, O'zbekistonlik olim ayollar xalqaro jurnallarda maqolalar chop etib, xalqaro ilmiy anjumanlarda qatnashmoqda, xorijiy universitetlar bilan ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga hissa qo'shmoqda.

Yana bir muhim yo'nalish – **innovatsiyalar** va **startup loyihalar**. "Technovation Girls Uzbekistan" loyihasi doirasida maktab va kollej yoshidagi qizlar sun'iy intellekt, IT, muhandislik kabi ilg'or texnologiyalarga oid bilimlarni o'zlashtirib, o'z loyihalarini xalqaro sahnada taqdim etmoqda. Bunday dasturlar ayollar va qizlarning texnologik sohalarga qiziqishini oshirmoqda. **Technovation Girls Uzbekistan** - Bu loyiha, ayniqsa, maktab yoshidagi qizlarga axborot texnologiyalari sohasida bilim berish va ularga startup yaratish imkoniyatlarini taqdim etishga qaratilgan. Har yili bo'lib o'tadigan **Technovation** tanlovi O'zbekistonda o'nlab yosh qizlarga o'z startaplarini yaratishga yordam berdi. Misol uchun, **Zohra Sattorova** va uning jamoasi o'zining "Health Assistant" dasturini ishlab chiqib, sog'liqni saqlash sohasida innovatsion yechim yaratgan. Bu kabi yutuqlar ayollar va qizlarning IT sohasidagi innovatsiyalarga bo'lgan salohiyatini ko'rsatmoqda. Hamda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida axborot texnologiyalari yo'nalishida o'qish imkoniyatlari kengaytirilmoqda, ayniqsa, ayollar uchun alohida o'quv dasturlari va stipendiyalar taqdim etilmoqda. Shuningdek, **startup inkubatorlari** va **mentorlik dasturlari** ayollarni IT sohasida rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash bo'yicha ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Xalqaro mehnat tashkilotining "Bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag'batlantirish to'g'risida"gi, "Onalikni

muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlar to'g'risida"gi konvensiyalarning ratifikatsiya qilinishi milliy darajada ayollar huquqlarini himoya qilishning zarur xalqaro-huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida 2020-2021 o'quv yilida xotin-qizlarga 4% qo'shimcha davlat grantlarining ajratilishi ularga berilgan yana bir imtiyozdir. Ilm-fan sohasida gender tenglikni ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda ayollar uchun alohida grantlar, ilmiy loyiha tanlovlari va doktorantura kvotalari joriy etildi. Bu chora-tadbirlar ayollarning ilmiy faoliyatini faollashtirishga xizmat qildi:

- 2020–2024 yillarda ayol ilmiy izlanuvchilar soni ikki baravarga oshdi, PhD va DSc ilmiy darajalarini olgan ayollar ulushi esa 35% dan oshdi.
- "Ilmiy ayol" va "Innovatsion ayol" dasturlari orqali yuzlab olimalar o'z ilmiy loyihalarini ishlab chiqdi va amaliyotga tadbiiq etdi.
- Biotexnologiya, tibbiyot, ekologiya va pedagogika sohalarida faoliyat yuritayotgan olima ayollar xalqaro jurnallarda maqolalar chop etib, O'zbekiston ilm-fanining nufuzini oshirishga hissa qo'shmoqda.

Bular ilmiy sohada ham erkaklar va ayollar teng imkoniyatlarga ega bo'lishi uchun real sharoitlar yaratilganini ko'rsatadi[4].

Madaniyat sohasida ham gender tenglik prinsiplariga asoslangan yondashuv sezilarli darajada kuchaygan. Ayollar endilikda san'at, moda, dizayn, kino va musiqa yo'nalishlarida yetakchi ijodkor sifatida namoyon bo'lmoqda.

- Dizayner Dilnoza Umirzoqova boshchiligidagi "ANOR" modalar uyi tomonidan ishlab chiqilgan milliy liboslar Italiyadagi "Milan Fashion Week"da namoyish qilinib, xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi. Bu milliy qadriyatlar va zamonaviylik uyg'unligining yorqin ifodasi bo'ldi.

- Ayol rejissyorlar – Shahnoza To'xtayeva, Mavluda Asqarova kabi yosh kinematografistlar ijtimoiy va ayollarga oid mavzularni ko'tarib chiqib, xalqaro kinofestivallarda ishtirok etishmoqda.

- Madaniyat va san'at yo'nalishida faoliyat yuritayotgan ayollar soni yildan-yilga ortib, ularning davlat mukofotlari, grantlar va ijodiy stipendiyalarni olish ko'rsatkichi ham oshdi.

Xulosa qilib aytganda, yangi O'zbekistonda ayollarning ilm-fan va milliy qadriyatlarni rivojlantirishdagi roli juda katta. Ularning ta'limga qiziqishi, ilmiy faoliyati, madaniyatga qo'shgan hissasi jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularga imkoniyatlar yaratish va ularning potensialini ochish orqali, jamiyatda yanada ilg'or va ijtimoiy adolatga asoslangan o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. O'zbekiston hukumati tomonidan ayollarga yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlar, shuningdek, ularning milliy qadriyatlarni saqlashdagi hissasi, yangi avlodni tarbiyalashdagi roli, ilm-fan va boshqa sohalarida erishgan muvaffaqiyatlari jahon hamjamiyatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston ayollarining o'rni nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham o'zining yuqori reytingiga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir chora-tadbirlar”. (2022). www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasining Ayollarni qo‘llab-Quvvatlash dasturi (2022).
3. Abdullayeva M., "Ayollar va ilm-fan", O‘zbekiston Jurnalisti, 2021.
4. Ayollar va Jamiyat: O‘zbekiston Misoli, Tashqi Ishlar Vazirligi, 2023.
5. Jahon ayollarining ilm-fandagi yutuqlari, UNESCO, 2022.
6. "Milliy qadriyatlar va ayollar" maqolasi, O‘zbekiston Ilmiy Akademiyasi, 2023.

Kamola Akmal qizi Kamolova
O‘zDJTU, Ingliz filologiyasi fakulteti, 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: **M.A.Xolmurodova**, PhD

MILLIY QADRIYATLAR VA ILM-FAN UYG‘UNLIGIDA AYOLNING O‘RNI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda ayollar ilm-fan sohasidagi ishtiroki hamda milliy-ma’naviy qadriyatlarimizdagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Mustaqillik yillarida va ayniqsa, so‘nggi yillarda ayollarning ijtimoiy hayotdagi faolligi, ilmiy salohiyati va tarbiyaviy ta’siri sezilarli darajada ko‘tarildi. Shuningdek, maqolada ayollar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, davlat siyosati orqali qo‘llab-quvvatlanish mexanizmlari va bu holatning ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikka ta’siri haqida tahliliy fikrlar yuritiladi. Aniq faktlar, real misollar asosida ayollar rolining bugungi kunda qanday yuksalayotgani ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ayollar, ilm-fan, ma’naviyat, qadriyatlar, davlat siyosati, gender tengligi, ta’lim, ijtimoiy faollik, milliy taraqqiyot.

THE ROLE OF WOMEN IN THE HARMONY OF NATIONAL VALUES AND SCIENCE

ABSTRACT

This article discusses the participation of women in science in New Uzbekistan and their role in our national and spiritual values. During the years of independence and especially in recent years, women's activity, scientific potential, and educational influence in social life have increased significantly. The article also provides analytical views on the opportunities created for women, mechanisms for support through state policy, and the impact of this situation on socio-spiritual stability. Based on concrete facts and real examples, it reveals how the role of women is increasing today.

Keywords: New Uzbekistan, women, science, spirituality, values, state policy, gender equality, education, social activism, national development.

РОЛЬ ЖЕНЩИН В ГАРМОНИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И НАУКИ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается участие женщин в науке в Новом Узбекистане и их роль в наших национальных и духовных ценностях. За годы независимости, и особенно в последние годы, значительно возросли активность, научный потенциал, образовательное влияние женщин в общественной жизни. В статье также приводятся аналитические размышления о возможностях, созданных для женщин, механизмах поддержки посредством государственной политики и влиянии этой ситуации на социально-духовную стабильность. На основе конкретных фактов и реальных примеров показано, как сегодня меняется роль женщин.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, женщины, наука, духовность, ценности, государственная политика, гендерное равенство, образование, общественная активность, национальное развитие.

Bugungi kunda O‘zbekiston jadal rivojlanish va yangilanish bosqichida turibdi. “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi nafaqat siyosiy-iqtisodiy sohalarni, balki ijtimoiy-ma’naviy hayotni, ayniqsa ayollar obrosini yuqori bosqichga olib chiqmoqda. Tarixan ayollar jamiyatning eng muhim ustunlaridan biri bo‘lib kelgan. Ular oila, tarbiya, qadriyat va jamiyatda barqarorlik timsoli bo‘lgan. Aynan shu jihatlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki kuchaygan holda namoyon bo‘lmoqda. Ilm-fan va ma’naviyat sohasidagi o‘zgarishlar Yangi O‘zbekistonni barpo etishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu yo‘lda ayollarning faolligi, ularning intellektual salohiyati, ma’rifatparvarligi va ma’naviy yuksakligi muhim rol o‘ynamoqda. Ayollar bugun nafaqat o‘z oilasining, balki butun jamiyatning ma’naviy rivojlanishida, ilm-fan sohasining taraqqiyotida faol ishtirok etmoqda. Ularning mehnati orqali ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy uyg‘onish va zamonaviy yondashuvlar yuzaga kelmoqda.

Ayollarning tarixiy o‘rni va bugungi mavqei

O‘zbek xalqi tarixida ayollar har doim muhim o‘ringa ega bo‘lgan. Bibixonim, Nodira, Uvaysiy, Zebuniso singari tarixiy siymolar nafaqat o‘z davrining, balki butun musulmon Sharqining ilg‘or ayollari sifatida tan olingan. Ularning ijodi, ilm-fanga qo‘shgan hissasi va ijtimoiy faolligi hozirgi ayollar uchun ibrat maktabi hisoblanadi. Bu tarixiy meros bugungi ayollarimizda ham davom etmoqda. Yangi O‘zbekistonda ayollar nafaqat an’anaviy oilaviy rolga, balki ilmiy izlanish, ijtimoiy faoliyat va siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokchi sifatida faol kirib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021-yildagi "Ayollarga oid davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"[1]gi farmoni bu boradagi tub islohotlarga yo‘l ochdi. Unga ko‘ra, har bir sohada ayollar uchun alohida kvotalar, grantlar, bilimlarni oshirish kurslari va ishga joylashish dasturlari joriy qilindi. Masalan, 2023-yilda ayollar uchun ajratilgan oliy ta'lim kvotalari soni 2 barobarga oshirildi, 5 ming nafardan ortiq ayol ilmiy-tadqiqot institutlariga qabul qilindi. Bu esa ularning nafaqat ta'lim olishini, balki ilmiy faoliyat bilan ham

shug‘ullanishini ta‘minlamoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda ilmiy daraja olgan olimlar soni 3000 nafardan oshgan bo‘lib, ularning aksariyati fan doktori yoki falsafa doktori (PhD) unvoniga ega.

Ilm-fan rivojida ayollarning hissasi

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida ayollarning o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, oliy ta‘lim muassasalari, innovatsion markazlar va ilmiy-tadqiqot institutlarida ayollar faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, biologiya, tibbiyot, pedagogika, iqtisodiyot, lingvistika kabi yo‘nalishlarda ayollar salmoqli natijalarga erishmoqda. Masalan, Toshkentdagi Biokimyo ilmiy markazida faoliyat yuritayotgan olim Nargiza Yo‘ldosheva genetik kasalliklarni erta aniqlash va ularni davolash usullarini ishlab chiqqanligi uchun xalqaro mukofot bilan taqdirlandi. Shuningdek, Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti Dilbar Egamberdieva lingvodidaktika yo‘nalishida olib borgan tadqiqotlari bilan xalqaro platformalarda tanilgan. Bunday misollar ayollar faqat uy-ro‘zg‘or ishlari bilan emas, balki yuqori darajadagi ilmiy faoliyat bilan ham faol shug‘ullanayotganini isbotlaydi.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston ayollari” degan ixtisoslashgan ilmiy jurnal, ayollar yetakchiligi bo‘yicha o‘quv dasturlari, ilmiy loyihalarga ajratilgan grantlar orqali ham ayollar ilm-fan sohasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ayni paytda davlat tomonidan har yili ayollar uchun alohida innovatsion grantlar ajratilmoqda, bu esa ularning ilmga bo‘lgan ishonchini kuchaytirmoqda.

Milliy-ma‘naviy qadriyatlar va ayol nufuzi

Milliy qadriyatlar tizimida ayol obrazining o‘rni beqiyosdir. Ayol – bu avvalo tarbiya, ma‘naviyat, poklik, mehr-muruvvat va sabr timsoli. O‘zbek jamiyatida ona maqomi eng ulug‘ maqomlardan biri bo‘lib, u orqali butun avlodlar tarbiyasi, ruhiyati va dunyoqarashi shakllanadi. Aynan shu jihatlarni hisobga olgan holda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ayollar faqat ijtimoiy yoki iqtisodiy emas, balki ma‘naviy yuksalishning bosh omili sifatida ham qaralmoqda. So‘nggi yillarda “Ayollar daftari”, “Ayollar maslahat kengashlari”, “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi” kabi tashabbuslar orqali ayollarning ijtimoiy-ma‘naviy hayotdagi ishtiroki kuchaytirildi. Bu tashkilotlar ayollarning o‘z hayotini mustahkamlashi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishida katta yordam bermoqda.

Shuningdek, ma‘naviyat targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi ayollar soni ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yilda o‘tkazilgan “Milliy qadriyatlar – yuksak ma‘naviyat asosidir” mavzusidagi forumda 60% ma‘ruzachilar aynan ayollar bo‘lgan. Ular jamiyatdagi ma‘naviy tanazzulga qarshi kurashda faol pozitsiyada bo‘lishlari bilan ajralib turishdi. Shu orqali biz ko‘ramizki, ayollar – nafaqat ma‘naviyatga muhtoj, balki uni targ‘ib qiluvchi kuch hamdir.

Davlat siyosatida ayollarga yaratilgan imkoniyatlar

Yangi O‘zbekistonni qurishda davlatning ayollarga bo‘lgan munosabati alohida ahamiyatga ega. Ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularga teng huquqlarni ta‘minlash va jamiyatdagi faolligini oshirish borasidagi islohotlar o‘z samarasini bermoqda. O‘zbekiston hukumati tomonidan 2020-yilda qabul qilingan “Ayollarga oid davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari” dasturi orqali bir qator yirik

qadamlar tashlandi. Dastur asosida ayollar uchun alohida ta'lim va kasb-hunar dasturlari, mehnat bozorida ularning faol ishtirokini ta'minlash, ayol tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar ko'zda tutilgan. Shuningdek, respublikada ayollarni yuqori lavozimlarga tayinlash va ularni iqtisodiy faollikka jalb etish jarayonlari kuchaygan. Masalan, 2022-yilda O'zbekistonning 10 ta eng yirik kompaniyalaridan 3 tasini ayollar boshqaradi, bu esa jamiyatda ayollarning professional faoliyatidagi yuksalishni ko'rsatadi.

Bundan tashqari, "Ayollar tadbirkorligi" dasturi orqali O'zbekistonda minglab ayol tadbirkorlar o'z bizneslarini yo'lga qo'yib, iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shmoqda. Davlat tomonidan taqdim etilgan kreditlar, subsidiyalar va maslahat xizmatlari ayollarni iqtisodiy mustahkamlashda muhim vosita bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonni barpo etishda ayollarning ilm-fan, ijtimoiy hayot va milliy-ma'naviy qadriyatlarni saqlashdagi o'rni juda muhimdir. Ularning ilmiy faoliyatga qo'shgan hissasi, ma'naviy va madaniy qadriyatlarni saqlashdagi faolligi hamda davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlamoqda. Bugungi kunda ayollar nafaqat oilaning, balki jamiyatning barcha sohalarida faol ishtirok etib, O'zbekistonning rivojlanishiga o'z ulushlarini qo'shmoqda. Ayollar uchun yaratilgan imkoniyatlar, ularning ilm-fan va ishbilarmonlikdagi yuksalishi nafaqat milliy qadriyatlarimizni saqlashga, balki Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu tariqa, ayollarimizning o'rni jamiyatdagi o'zgarishlarning ajralmas qismiga aylanishi, shubhasiz, O'zbekistonning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-fevraldagi "Ayollarga oid davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2-bet.
2. Isroilova, N. "O'zbekistonda ayollar ilm-fan va tadqiqotlar sohasida: o'rni va istiqbollari", -Toshkent, 2023. 45-betdan 60-betgacha.
3. "Yangi O'zbekistonni qurishda ayollarning roli" – O'zbekiston ayollari ilmiy jurnali, 2024 yil, 12-son. 5-betdan 15-betgacha.
4. Tashkent State Pedagogical University, Department of Gender Studies, Annual Report, 2023.10-betdan 20-betgacha.
5. "Ayollar va jamiyat: Innovatsion yondashuvlar" – Respublika ilmiy anjumani, - Toshkent, 2023 yil.7-betdan 12-betgacha.

Rayyonaxon Mashxurbek qizi Mo'minova
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Tarjimonlik fakulteti, 1-bosqich 2425-guruh talabasi

**YANGI O'ZBEKISTONDAGI ILM-FAN VA MILLIY-MA'NAVIY
QADRIYATLARNING YUKSALISHIDA AYOLLARNING TUTGAN
O'RNI**

ANNOTATSIYA

Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida xotin-qizlarning ilm-fan, ta’lim va ijtimoiy hayotdagi o‘rni keng yoritilgan. Xotin-qizlarning bilim olish va jamiyatda faollik ko‘rsatishlari uchun yaratilgan sharoitlar, amalga oshirilgan davlat siyosati va farmonlar haqida batafsil so‘z yuritiladi. Tarixiy shaxslar misolida ilmga bo‘lgan ishtiyoq va ayolning tarbiyadagi o‘rni alohida ta’kidlangan

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, xotin-qizlar, intellectual salohiyat, ilm-fan, ma’rifat, ta’lim, tarbiya, jamiyat taraqqiyoti, davlat siyosati, ayollar faolligi, ayollar, bilim, faollik, siyosat.

РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ НАУКИ И НАЦИОНАЛЬНО-ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В статье широко освещается роль женщин в науке, образовании и общественной жизни в условиях Нового Узбекистана. Подробно рассматриваются созданные условия, государственная политика и указы, направленные на получение женщинами образования и повышение их активности в обществе. Особое внимание уделяется стремлению к науке и роли женщин в воспитании на примерах исторических личностей.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, женщины, интеллектуальный потенциал, наука, просвещение, образование, воспитание, развитие общества, государственная политика, активность женщин, знания, активность, политика.

THE ROLE OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND NATIONAL-SPIRITUAL VALUES IN NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

The article extensively highlights the role of women in science, education, and social life in the context of New Uzbekistan. It provides a detailed discussion on the conditions created for women to gain knowledge and demonstrate activeness in society, as well as the state policies and decrees implemented to support these efforts. The article also emphasizes the passion for science and the important role of women in upbringing, illustrated through examples of historical figures.

Keywords: New Uzbekistan, women, intellectual potential, science, enlightenment, education, upbringing, social development, state policy, women's activity, knowledge, activeness, politics.

Yangi O‘zbekiston – bu nafaqat yangi siyosiy va iqtisodiy yo‘nalishlar, balki fuqarolarning fikrlashi, hayotga bo‘lgan yondashuvi hamda ijtimoiy ongdagi yangilanish demakdir. Ushbu yangilanishda ayollar, xususan, xotin-qizlarning tutgan o‘rni beqiyosdir. Zero, intellektual jamiyatni shakllantirishda bilimli, tafakkuri teran, tashabbuskor ayollarning ishtiroki – taraqqiyotning ajralmas omilidir. Bugungi kunda O‘zbekistonda xotin-qizlarga ilm olish, o‘z iqtidorini namoyon etish, jamiyatda faol bo‘lish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ushbu maqolada ana shu o'zgarishlar, xotin-qizlarning o'rni va yutuqlari haqida so'z yuritiladi. So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirish maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi faolligini oshirish" bo'yicha Prezident farmonlari va qarorlari asosida ayollarga oliy ta'lim olish, ilm-fan sohasida izlanish olib borish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, rahbarlik lavozimlariga tayinlanish uchun keng yo'llar ochildi. Bugungi kunda yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlar soni yil sayin ortib bormoqda, ularning ko'plari fan olimpiadalarida, ilmiy grantlarda faol ishtirok etmoqda.

"Ilm-fan va xotin-qizlar" – har qanday davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim soha bo'lib, Yangi O'zbekiston jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyoti yo'nalishini ma'lum darajada belgilab bergan ulug' allomalari, buyuk mutafakkirlari bilan shuhrat qozongan. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ilm-fan, ta'lim hamda milliy-ma'naviy qadriyatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga aylangan. Ayniqsa, xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirish, ularning intellektual va ilmiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, ilmiy faoliyatiga keng jalb etish, bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. 2015-yil 22-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 70-sessiyasida 11-fevral "Ilm fanidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni" deb rasman e'lon qilindi va 2016-yildan boshlab bu sana dunyoning ko'plab mamlakatlarida har yili keng nishonlanib kelinmoqda.

"Tarixiy misollar orqali ayolning jamiyatga ta'siri" – ma'rifatli ayol bo'lish uchun har bir ayol va onalarimiz o'z ustlarida ko'proq ishlab o'zini-o'zi isloh qilmog'i darkor. Avvalambor, har bir ayol bolalik va o'smirlik davridanoq ma'rifatga intilib, ilm olib yashashni o'ziga maqsad qilib olishi ahamiyatlidir. Agar bir insonni tarbiyalamoqchi bo'lsang o'g'lingga yaxshi tarbiya ber, agar jamiyatni tarbiyalamoqchi bo'lsang qizingni ma'rifatli qilib tarbiyala, degan naql bor xalqimizda. Chunki, qiz bola bo'lajak ona u o'zi kabi farzandlarini ham ma'rifatga yetaklaydi. Farzandga tarbiya berish borasida ayollarning tutgan o'rni nihoyatda baland ekanligiga tarix guvohdir. Tarixdan ma'lumki, qanchalar buyuk zotlarning ortlarida albatta bir buyuk ona yoki bir buyuk ayol turgan bo'ladi. Masalan, Ahmad ibn Hanbal rohimahulloh hayotlariga nazar tashlasak, ul zot otalaridan erta yetim qolganlar. Onalari yakka-yu yagona farzandlarini ilmga muhabbatli qilib voyaga yetkazganlar. Ahmad ibn Hanbal balog'atga yetgach ro'zg'or tashvishi o'laroq, darslarga biroz qatnasha olmaydilar, shunda onalari men och o'tirsam ham roziman faqat ta'lim olishlikni tashlab qo'yma deb nasihat qiladilar.

Imom Ahmad G'azzoliy yoshlik chog'lari haqida quyidagilarni hikoya qiladilar: "Olti yoshimda onam meni tong saharda uyg'otib, o'zi tahorat oldirar edi. Tahorat olib bo'lganimdan so'ng chiroylik kiyimlarni kiygazib, qo'limdan yetaklab masjidga olib kelardi. Meni xonaqoxga kirgizib o'zi masjidning pana joyiga o'tib olardi. Bir ozdan keyin muazzin kelib bomdod namoziga azon aytardi". Dunyoni

yayov kezib ilm olgan, imom Ahmadning hayoti ana shunday boshlangan ekan. Hadis ilmining ustozlaridan Sufyon Savriyning onasi o'g'lini ilm yo'liga yo'llab shunday degan edi: "O'g'lim, ilm o'rganing, ro'zg'or tashvishlarini o'ylab fikringizni bo'lmang. Men insha Alloh ip yigirib sotib o'qishingizga ko'maklashaman". Natijada Sufyon Avzoiy ta'riflaganidek: "Islom ummati uning so'zini bir ovozdan qabul qiladigan nodir ulamolardan" bo'lib yetishgan. Yana Imom Sufyonning onalari o'g'lida ilmga qiziqish va mehrmuhabbatni uyg'ota olgan onalardan biri sifatida gavdalanadi. Voqi ibn Jarroh Imom Sufyonning shogirdlaridan bo'lib, ustozining validasi o'g'luga aytgan quyidagi so'zlarini keltiradi: "O'g'lim, ilm talabida jiddu jahd qil. Ehtiyojlaring borasida o'zim g'amxo'rlik qilaman. Birorta hadisni o'rganar ekansan, uning xulq-atvoringda aks etayotganiga nazar sol. Agar unday bo'lmayotganini sezsang, bilginki, olgan ilmning zararingga bo'libdi. Unda hech qanday foyda yo'qdir." Fikrlardan ma'lum bo'ladiki, ilm olish bilan birga ilm olishda jiddu jahd qilmoq darkorligiga, bu ilmning xulq-atvoriga, farzand ma'naviyatiga, tarbiyasiga ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etishiga zukko onaxonlar e'tibor qaratganlar. Vaholanki, davr nuqtai nazaridan qaraganda ayrim holatlarda farzandlarimizning fanni o'rganishi bir yoqlama ta'sir etayotganligini inobatga olish, ilm olishni ma'rifat darajasiga ko'tarish muhim masalasidir. Ma'rifatli onaning oiladagi o'rnini yaxshi hosil olish uchun zamin tanlash bilan barobar deb qiyos qilish mumkin. Islom dinida ayollar masalasiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, ularning oilada, jamiyatda va umuman, hayotda munosib o'ringa ega ekanlari bayon qilingan. Ushbu yuksak e'tiborni Qur'oni karimdagi bir nechta suraning ayollarga bag'ishlangani, ularda ayollar masalasi ko'tarilgani, ayollarning nomi bilan nomlanganida ham ko'rish mumkin.

"Islom dinida ayollar o'rni" – Islom dini erkaklar bilan bir qatorda ayollarni xam ilmu ma'rifatli bo'lishga targ'ib etadi. Qur'oni Karimning umumiy ma'noda kelgan oyatlari erkakka va ayollarga birdek taalluqli bo'lgani jihatidan: "Ey Robbim! Menga ilmni ziyoda et!" (Toho, 114) oyatidan ayollar xam ilmlarini oshirish yo'lida sa'y-xarakat qilmoqlari lozim ekani kelib chiqadi. Zotan, Payg'ambarimiz s.a.v." ilm talab qilish har bir muslim va muslimaga farz" ekanini ta'kidlab o'tganlar. Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy "Qizlar bilim olishga hammadan ko'proq intilishi lozim. Zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar", deb bejiz aytmagan. Uchinchi Renessansga erishish yo'lida xotin-qizlarni yanada bilimli, ma'rifatli qilish eng asosiy vazifalardan biridir. Xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini ko'tarish davlatimiz siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan. Shu bois, bu boradagi ishlarning amaliy isboti sifatida so'nggi yillarda nozik jins vakillarining jamiyat hayotidagi o'rnini oshirishga qaratilgan qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, Xotin-qizlar ta'limini qo'llabquvvatlashning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturi qabul qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoevning «Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi... Sog'lom zurriyod, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdagi o'ringiz va xizmatigingizni hech narsa bilan qiyoslab, baholab bo'lmaydi. Sizlarning mehrmuhabbatingiz, vafo va sadoqatingiz, fidoyiligingiz sababli hayotimiz charog'on», - degan fikrlari e'tiborlidir. Shuning uchun ham O'zbekistonda

xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish masalasi mamlakatda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Shu bilan birga ma'rifatli ayol jamiyatning taraqqiyot yo'lini belgilab beradi. Chunki, aynan ayol bolalarni tarbiyalaydi va ongi, dunyoqarashi, bilim darajasini shakllantiradi. Qiz bola oliy ma'lumotli bo'lsa, yuksak bilim va salohiyat egasiga aylansa, buni kelgusida farzandlariga ham singdiradi. Har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasiga mas'uliyat bilan yondashadi. Chunki, ayolga tabiatan avlodlar zanjirini davom ettirish va millatning qadr ko'taradigan farzandlarni tarbiyalashdek ulug' vazifa yuklangan. Shunday ekan, shukrona tuyg'usi bilan yashash va onalarimiz qizlarini o'qitishni kun tartibidagi birinchi masala sifatida belgilasa, yurtimiz rivojiga hissa qo'shgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Yangi O'zbekistonda ayollarning ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion rivojlanish jarayonidagi o'rni" (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi o'rnini oshirish bo'yicha). Buxoro 2024-yil, 15-fevral.

2. "Yangi O'zbekistonda ayollarning ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion rivojlanish jarayonidagi o'rni" (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari – Shavkat Mirziyoyevning xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni haqidagi fikrlari). – Buxoro, 2024-yil.

3. "Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash dasturi (2022-2026 yillar)" – O'zbekiston Respublikasi rasmiy dasturi.

4. SUSTAINABLE DEVELOPMENT: INITIATIVES OF WOMEN SCIENCE AND BUSINESS. (BMT Bosh Assambleyasining 70-sessiyasi qarori, 2015-yil 22-dekabr, "Ilm-fandagi ayollar va qizlar xalqaro kuni"ni belgilash haqidagi hujjat).

5. Ma'rifatli ayol – kelajak poydevorining yaratuvchisidir. (Qur'oni Karim – ayollar va ilmga da'vat etuvchi oyatlar ("Toho" surasi, 114-oyat va boshqalar).

6. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hadislari – ilm olishning farzligi haqida.

7. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq" asari – qizlar tarbiyasi va ma'rifatga chaqiriq.

8. Ahmad ibn Hanbal va Imom Ahmad G'azzoliy hayotidan olingan tarixiy ma'lumotlar – onalarning farzand tarbiyasidagi o'rni.

9. Sufyon Savriy va Sufyon Avzo'iy haqida tarixiy manbalar – ilm va tarbiya bo'yicha hikoyalar.

10. Islom dini va ayollar mavzusiga oid diniy-adabiy manbalar – ayollarning oiladagi va jamiyatdagi o'rni.

Динора Тимуровна Муратова

УзГУМЯ, Английская филология 2407-группа

Научный руководитель: **Муслима Махмудовна Базарова**

УзГУМЯ, стар. препод. кафедры История Узбекистана

РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ НАУКИ И НАЦИОНАЛЬНО-ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается вклад узбекских женщин в науку, их роль в сохранении и обогащении культурного наследия, а также те возможности и перспективы, которые открываются перед ними в контексте современного развития Узбекистана. Изучены конкретные примеры достижений женщин-ученых, деятелей культуры и образования, проанализированы те государственные программы и инициативы, которые направлены на поддержку и расширение их участия в этих жизненно важных сферах. Цель исследования – показать, что раскрытие потенциала женщин является мощным двигателем развития не только экономики и науки, но и национального самосознания, духовности и нравственности всего общества.

Ключевые слова: Научные исследования, наука, образование, гендерное равенство, женщины учёные.

YANGI O‘ZBEKISTONDA FAN VA MILLIY-MA’NAVIYQADRIYATLAR RIVOJIDA AYOLLARNING O‘RNI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek ayollarining ilm-fanga qo‘shgan hissasi, madaniy merosni asrab-avaylash va boyitishdagi o‘rni, shuningdek, O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti sharoitida ular uchun ochilayotgan imkoniyatlar va istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Olima ayollar, madaniyat va ma’rifat arboblari bo‘lgan xotin-qizlarning erishayotgan yutuqlari aniq misollari orqali o‘rganilib, ushbu muhim sohalarda ayollar faolligini qo‘llab-quvvatlash va mazkur sohalarda xotin-qizlar ishtirokini kengaytirishga qaratilgan davlat dastur va tashabbuslari tahlil etiladi. Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad – xotin-qizlar salohiyatini yuzaga chiqarish nafaqat iqtisodiyot va ilm-fan, balki butun jamiyatning milliy o‘zligini anglashi, ma’naviy-axloqiy rivojlanishining qudratli omili ekanligini ko‘rsatishdir.

Kalit so‘zlar: Ilmiy tadqiqotlar, fan, ta’lim, gender tengligi, olimalar.

THE ROLE OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND NATIONAL-SPIRITUAL VALUES IN THE NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article examines the contribution of Uzbek women to science, their role in preserving and enriching cultural heritage, as well as the opportunities and prospects that open up for them in the context of modern development of Uzbekistan. Specific examples of the achievements of women scientists, cultural and educational figures were studied, and those state programs and initiatives aimed at supporting and expanding their participation in these vital areas were analyzed. The purpose of the study is to show that the development of women's potential is a powerful driver of

development not only of the economy and science, but also of national identity, spirituality and morality of the entire society.

Keywords: Scientific research, science, education, gender equality, women scientists.

В эпоху стремительных перемен и масштабных реформ, происходящих в Новом Узбекистане, роль женщин приобретает особое значение во всех сферах жизни общества. В Узбекистане, стремящемся к инновационному развитию, женщины-ученые играют ключевую роль в продвижении науки и технологий. Их активное участие в развитии науки и укреплении национально-духовных ценностей становится не просто важным фактором, а ключевым условием для построения прогрессивного и процветающего государства. По предложению Президента Шавката Мирзиёева в нашем государстве реализуются масштабные преобразования по всемирной поддержке женщин, повышению их социально-экономической и политической деятельности, обеспечению трудоустройства, широкому привлечению к предпринимательству и научной деятельности. Это нашло отражение прежде всего в таких важных документах, как Конституция Республики Узбекистан в новой редакции. За минувшие годы в Узбекистане принято более 50 законов, нацеленных на обеспечение прав, свобод и законных интересов женщин. Статья 58 новой редакции Конституции Республики Узбекистан предусматривает равные права женщин и мужчин, государство гарантирует равные права и возможности женщинам и мужчинам в управлении социумом и государственными делами, а также в иных областях общественной и государственной жизни.

Узбекские женщины-ученые энергично участвуют в научных конференциях, симпозиумах и семинарах, представляя свои изыскания и делаясь опытом с коллегами, публикуют свои работы в научных изданиях. Так, в соответствии с информацией Национального доклада по науке и инновациям РУз, за последние пять лет 5791 женщин удостоились научных степеней, из них 732 стали докторами наук (DSc) и 5 059-PhD. Лишь в 2024 году 212 женщин получили степень доктора наук, а 1398 – степень PhD. На текущий момент в научной сфере активно работают порядка 5 тысяч женщин-ученых, а в вузах республики свыше 14 тысяч женщин занимаются преподавательской и научно-исследовательской работой.

Вот несколько очевидных примеров деятельности женщин в Узбекистане:

Шахло Турдикулова – Первый заместитель министра инновационного развития Узбекистана, доктор биологических наук, профессор, кавалер ордена «Дустлик». Занимала должность директора Центра передовых технологий при Министерстве инновационного развития. За свою научную карьеру опубликовала более 160 научных работ, в том числе 2 учебника и 2 монографии, более 40 статей в международных изданиях.

Шахида Камалова – одна из выдающихся исследовательниц в области химии и фармацевтики. Стала первой женщиной-профессором в этой сфере в

Узбекистане. Активно изучала химические процессы в фармацевтической промышленности и занималась разработкой новых препаратов.

Дилфуза Эгамбердиева, как первая женщина-профессор в своей области, внесла значительный вклад в химические процессы фармацевтической промышленности и разработку новых лекарственных препаратов. Входит в число 2 % лучших ученых мира и занимает 8692 место в базе данных, созданной Elsevier, в списке 100 000 ученых с самым высоким научным потенциалом 2020 года. Эксперт в области сельскохозяйственной биотехнологии, опубликовала около 200 научных статей за 20 лет научной деятельности. Член Экспертного совета высокого уровня Организации Объединенных Наций по продовольственной безопасности (HLPE), председатель сети ЮНЕСКО по науке и технологиям Азиатско-Тихоокеанского региона.

Дилбар Далимова, заведующая лабораторией биотехнологии Центра передовых технологий при Министерстве инновационного развития, является лауреатом международных премий и обладательницей государственного ордена за вклад в борьбу с пандемией коронавируса. Её активное участие в разработке и клинических испытаниях вакцин против COVID-19 сразу в двух направлениях демонстрирует её самоотверженность и значимость для здравоохранения страны. Это клинические испытания третьей фазы узбекско-китайской вакцины и разработка отечественной вакцины нового поколения.

Поддержка и расширение возможностей для женщин в науке и дальнейшее развитие научных исследований, создание благоприятных условий для работы и продвижения талантливых женщин-ученых, а также укрепление международного сотрудничества позволят Узбекистану стать одним из лидеров в инновационной сфере и внести значительный вклад в решение глобальных проблем.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Газета "Правда Востока". №14, Эътибор Султанова. 21.01.2025.
2. Nemolchi.uz, Виктория Зубайрова, 01.03.2022.
3. Womeninscience.uz.
4. Podrobno.uz.
5. Yangi O'zbekistonda ayollarning ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion rivojlanish jarayonidagi o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Buxoro, - 2024. The role of women in the development of science in Uzbekistan. - стр. 9-10.
6. International scientific and practical conference "The role of women in the development of science and the spiritual and educational sphere: problems and solutions", February 28, 2025.
7. Султанова Э. Женщины и наука в Новом Узбекистане. «Правда Востока» газ. №14, 21.01.2025., - стр. 1 и 3 // https://api.uwed.uz/upload/file_manager/21-01-2025/%E2%84%96%2014%20%D0%BE%D1%82%2021%20%D1%8F%D0%B

D%D0%B2%D0%B0%D1%80%D1%8F%202025%20%D0%B3%D0%BE%D0%B4%D0%B01.pdf.

8. Зубайрова В. Женщины в науке Узбекистана // <https://nemolchi.uz/zhenshhiny-v-nauke-uzbekistana/>

9. <https://www.womeninscience.uz/ru/>

10. Khayrullayeva M.O. The role of women in the development of science in Uzbekistan / Yangi O‘zbekistonda ayollarning ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion rivojlanish jarayonidagi o‘rni” mavzusidagi respublika respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Buxoro-2024. 15-fevral. - стр. 9-10 // https://uniwork.buxdu.uz/resurs/56646_1_859D8ABC5C7BA07EA9A710B0FBD E5FECE156A959.pdf

11. G‘oyibnazarov S., Abdumalikova G. The role of women in the development of science and the spiritual and educational sphere: problems and solutions / International scientific and practical conference. 28.02.2025., -P. 851 – 857. // https://www.researchgate.net/publication/389769598_international_scientific_and_practical_conference_the_role_of_women_in_the_development_of_science_and_the_spiritual_and_educational_sphere_problems_and_solutions_february_28_2025_zenskiy_dividend_v_ek.

Kumushbibi Jaxongir qizi Sadriddinova
Uzbek State University of World Languages
1st-year student, Group 2429
Email: kumushsadriddinova7@gmail.com

EMPOWERING WOMEN IN SCIENTIFIC EDUCATION: A PATH TO PRESERVING NATIONAL-SPIRITUAL VALUES IN NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

This paper examines the role of women in the scientific education system of New Uzbekistan, with a focus on how their active participation not only advances scientific progress but also strengthens national and spiritual values. As educators, researchers, and role models, women contribute to shaping a society rooted in knowledge, culture, and moral integrity. Using examples from modern educational institutions, national programs, and inspiring female figures, the study highlights the importance of encouraging women to engage in science and culture simultaneously. It concludes that empowering women in science is not just a step toward gender equality, but also a vital strategy for preserving the moral foundation and identity of the nation.

Keywords: Women in education, science in Uzbekistan, national values, spiritual heritage, gender equality, female empowerment

Introduction

In the era of New Uzbekistan, great emphasis has been placed on scientific and moral advancement. Women are no longer viewed as passive participants in social

development, but rather as active agents of change and innovation. As the government promotes reforms to build an intellectually strong and morally upright society, the participation of women in scientific education becomes a central factor. This paper explores how women's growing role in science and education contributes to preserving and nurturing national-spiritual values in modern Uzbekistan.

Women in Science and Education: Current Trends

Over the past decade, the government of Uzbekistan has launched various programs to support women's involvement in science and academia. These include scholarships for female students, research grants, and recognition of outstanding female scientists. Institutions like the Presidential Schools and universities such as Tashkent State University and Uzbekistan State World Languages University have seen a steady rise in female enrollment and academic success. One notable example is the increasing number of women teaching science and technology subjects at higher education institutions. Many of these women serve as both educators and researchers, producing studies that are not only innovative but also rooted in local culture and social needs. This trend reflects a significant transformation in the public perception of gender roles. Where once women were expected to prioritize domestic responsibilities, today they are encouraged to pursue intellectual development and contribute to the nation's progress through science.

Preserving National and Spiritual Values

In Uzbek society, spiritual values – such as respect for elders, commitment to family, and national pride – play a vital role in shaping identity. Women are traditionally seen as the guardians of these values within families and communities. By combining their traditional roles with scientific education and academic leadership, women help integrate modern knowledge with cultural continuity. Educated women are now not only preserving traditions but also reinterpreting them in ways that fit contemporary life. For example, a woman scientist who teaches biology may also promote ecological awareness rooted in Islamic values of caring for nature. A female historian may revive the stories of Uzbek heroines from the past, instilling pride and resilience in young girls. Thus, women's contributions are essential for passing on national-spiritual values while adapting them to a modern, globalized society.

Role Models and Real-life Impact

Several women in Uzbekistan have become role models for the younger generation. Scientists such as Dilorom Tadjibayeva (in biology) and linguists like Gavkhar Turayeva have shown how women can excel in research while staying connected to their roots. They mentor students, publish academic work, and speak at public events, promoting both science and morality. Programs like "Ilm-fan va ayol" (Science and Woman) help create platforms for young girls to engage in science fairs, competitions, and conferences – often with themes that reflect ethical and national values. These initiatives prove that science does not have to be separated from culture; instead, it can enhance it.

Challenges and Recommendations

Despite progress, challenges remain. In some rural areas, cultural expectations still limit girls' educational opportunities. Stereotypes about women in science also

persist. To overcome this, more public awareness campaigns and mentorship opportunities are needed. Schools and universities should highlight female achievements and encourage parents to support their daughters' academic goals. Moreover, educational programs should integrate ethical and spiritual content into scientific education, reinforcing the harmony between modern knowledge and cultural heritage.

Conclusion

The empowerment of women in science is not only a question of equality but also a strategic step toward building a knowledge-based and morally strong Uzbekistan. As women gain ground in education and research, they carry with them the responsibility of preserving and promoting national-spiritual values. Their dual role as scientists and cultural ambassadors makes them one of the most powerful forces in shaping the identity of New Uzbekistan.

REFERENCES

1. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Tashkent: Ma'naviyat, 2008, -pp. 15–45.
2. UNESCO Institute for Statistics. Women in Science Report. Paris: UNESCO Publishing, 2023, -pp. 10–35.
3. Ministry of Higher Education of Uzbekistan. National Strategy for Gender Equality 2030. Tashkent: Government of Uzbekistan, 2022, -pp. 5–30.
4. Tadjibayeva, D. “Biological Research and National Ethics.” Uzbekistan Journal of Science, Vol. 12, - Tashkent: UZ Science Press, 2022, -pp. 27–39.
5. Turayeva, G. “Language, Culture, and Identity”. Journal of Uzbek Philology, No. 3, - Tashkent: Philology Press, 2021, -pp. 50–62.
6. Uzbekistan State Committee on Women and Family Affairs. Annual Report on Women's Development. - Tashkent: Committee Publishing, 2024, -pp. 1-22.

II SHO‘BA. BARQAROR KELAJAK UCHUN ILMIY TADQIQOTLARDA AYOLLAR YETAKCHILIGI

Nodira Babadjanova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O‘zbekiston tarixi kafedrası dotsenti

O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHDA TA‘LIM VA AXBOROT VOSITALARINING TA‘SIRI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O‘zbekistonning ko‘p millatli jamiyatida millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda ta‘lim tizimi va ommaviy axborot vositalarining rolini ilmiy asosda tahlil qiladi. Maqolada O‘zbekistonning tarixiy va zamonaviy kontekstida millatlararo hamjihatlikni ta‘minlash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar, qonun hujjatlari va amaliy tadbirlar yoritiladi. Ta‘lim tizimining turli millatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamkorlikni targ‘ib qilishdagi ahamiyati, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining madaniy xilma-xillikni nishonlash va fuqarolik ongini shakllantirishdagi ta‘siri aniq misollar orqali ko‘rsatiladi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, ta‘lim va axborot sohasiga oid qonunlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: millatlararo munosabatlar, ta‘lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, millatlararo hamjihatlik, fuqarolik ongi, madaniy xilma-xillik, O‘zbekiston.

ВЛИЯНИЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ИНФОРМАЦИОННЫХ СРЕДСТВ НА РАЗВИТИЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена научному анализу роли системы образования и средств массовой информации в развитии межнациональных отношений в многонациональном обществе Узбекистана. Рассматриваются реформы, законодательные акты и практические мероприятия, направленные на обеспечение межнационального согласия в историческом и современном контексте Узбекистана. Особое внимание уделяется значению системы образования в продвижении взаимного уважения и сотрудничества между различными национальностями, а также влиянию средств массовой информации на празднование культурного разнообразия и формирование гражданского сознания, что подкрепляется конкретными примерами. Анализируются нормативно-правовые акты, принятые в последние годы в Узбекистане, в частности, касающиеся сфер образования и информации.

Ключевые слова: межнациональные отношения, система образования, средства массовой информации, межнациональное согласие, гражданское сознание, культурное разнообразие, Узбекистан.

THE INFLUENCE OF EDUCATION AND INFORMATION MEDIA ON THE DEVELOPMENT OF INTER-ETHNIC RELATIONS IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article provides a scientifically grounded analysis of the role of the education system and mass media in fostering interethnic relations in Uzbekistan's multi-ethnic society. It examines reforms, legislative acts, and practical measures aimed at ensuring interethnic harmony within Uzbekistan's historical and contemporary contexts. The significance of the education system in promoting mutual respect and cooperation among different ethnic groups, as well as the impact of mass media in celebrating cultural diversity and shaping civic consciousness, is illustrated through specific examples. Normative-legal acts adopted in recent years in Uzbekistan, particularly those related to education and information, are analyzed.

Keywords: interethnic relations, education system, mass media, interethnic harmony, civic consciousness, cultural diversity, Uzbekistan.

Kirish

O'zbekiston ko'p millatli jamiyat sifatida o'ziga xos tarixiy va madaniy merosga ega bo'lib, unda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. O'zbeklar aholining asosiy qismini tashkil etsa-da, ruslar, tojiklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, tatarlar, koreyslar va boshqa millatlar ham jamiyat hayotida faol ishtirok etib kelishmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekiston millatlararo hamjihatlikni ta'minlash va fuqarolarni umumiy vatan manfaatlari atrofida birlashtirish bo'yicha mustahkam siyosiy va huquqiy asos yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi." deya ta'kidlanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida millatlararo munosabatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalari muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ta'lim tizimi yosh avlodni o'zaro hurmat, bag'rikenglik va fuqarolik ongiga ega bo'lishga tayyorlasa, ommaviy axborot vositalari madaniy xilma-xillikni targ'ib qilish va millatlar o'rtasida ko'priq qurishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda ta'lim va axborot vositalarining ta'sirini ilmiy asosda tahlil qiladi, so'nggi yillardagi amaliy ishlar va qonun hujjatlariga tayangan holda aniq misollar keltiradi.

O'zbekistonning ko'p millatli jamiyati Buyuk Ipak yo'li davridan boshlab shakllangan. Turli millatlarning bu hududda yashashi va o'zaro hamkorligi O'zbekistonning madaniy va ijtimoiy boyligini oshirgan. Sovet Ittifoqi davrida turli millatlarning ko'chib kelishi demografik xilma-xillikni yanada kengaytirdi.

Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekiston millatlararo totuvlikni ta‘minlash uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida milliy tenglik tamoyillari mustahkamlangan bo‘lib, unda jinsi, irqi, millati, tili, dini, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat‘i nazar, qonun oldida teng ekanligi belgilab qo‘yilgan.

“Yangi O‘zbekiston” strategiyasi doirasida millatlararo munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2017-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashni ijtimoiy barqarorlikning muhim omili sifatida belgilaydi. Ushbu strategiya ta‘lim, axborot va madaniy sohalarida millatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va do‘stlikni targ‘ib qilishni ko‘zda tutadi.

Ta‘lim tizimi O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biridir. Ta‘lim orqali yosh avlod o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va fuqarolik ongiga ega bo‘lib shakllanadi. So‘nggi yillarda ta‘lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qildi.

2019-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni ta‘lim tizimida zamonaviy innovatsion yondashuvlarni joriy etishni ko‘zda tutadi. Ushbu hujjatda STEAM fanlari, tanqidiy fikrlash va axborotni mustaqil tahlil qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida urg‘u beriladi, bu esa yoshlarda millatlararo hamjihatlik va fuqarolik ongini shakllantirishga yordam beradi.

2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri qabul qilindi, unda fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan ta‘lim muassasalari, millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi ta‘kidlanadi. Konstitutsiyaning 70-moddasi fuqarolik jamiyati institutlarining qonun doirasida faoliyat yuritishini belgilaydi, bu ta‘lim muassasalarining millatlararo hamjihatlikni targ‘ib qilishdagi mas‘uliyatini oshiradi.

O‘zbekiston maktablarida “Vatanparvarlik va fuqarolik tarbiyasi” darslari joriy etilgan bo‘lib, ularda turli millatlarning O‘zbekiston rivojiga qo‘shgan hissasi alohida ta‘kidlanadi. Masalan, Namangan davlat universitetida so‘nggi uch yilda fakultetlar soni 9 tadan 15 taga, ta‘lim yo‘nalishlari soni esa 31 tadan 52 taga oshirildi. Bu turli millatlardan bo‘lgan yoshlarga ta‘lim olish imkoniyatini kengaytirdi.

2021-yildan boshlab O‘zbekistonda xorijiy universitetlarning filiallari, masalan, AQSh, Rossiya va Janubiy Koreya universitetlarining filiallari ochildi. Bu filiallar turli millatlardan bo‘lgan talabalarni birlashtirib, xalqaro miqyosda o‘zaro hurmat va hamkorlikni targ‘ib qilmoqda. Masalan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida turli millat vakillari o‘qiyotgan talabalar xalqaro loyihalarda ishtirok etib, millatlararo hamkorlikni mustahkamlashga hissa qo‘shmoqda.

Maktabgacha ta‘lim sohasida ham millatlararo munosabatlarni rivojlantirishga e‘tibor qaratilmoqda. Masalan, 2020-yilda Maktabgacha ta‘lim vazirligi tashkil etildi, bu esa turli millatlardan bo‘lgan bolalarni erta yoshdan bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash imkonini berdi. Toshkent shahridagi 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-

internati bitiruvchisi Gulmira Sag'dullayeva AQShning 5 ta nufuzli universitetidan grant yutib, turli millatlardan bo'lgan tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. OAV madaniy xilma-xillikni nishonlash, fuqarolik ongini shakllantirish va millatlar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlashda samarali vosita hisoblanadi.

2019-yilda qabul qilingan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida" Qonuni OAV faoliyatida oshkorlik va erkinlikni ta'minlashga xizmat qildi. Ushbu qonun OAVning millatlararo hamjihatlikni targ'ib qilishdagi rolini oshirishga yordam berdi. Shuningdek, "Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida" qonuni OAVning ijtimoiy mas'uliyatini mustahkamladi.

2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 81-moddasida axborot erkinligi va axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi mustahkamlangan bo'lib, bu OAVning millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda faol ishtirok etishiga huquqiy asos yaratdi.

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (MTRK) turli millatlarning madaniyatini yorituvchi ko'rsatuvlar tashkil etadi. Masalan, "Millatlar do'stligi" ko'rsatuv turli millat vakillarining hayoti, an'analari va O'zbekiston rivojiga qo'shgan hissasini yoritadi. 2022-yilda MTRK tomonidan "Do'stlik festivali"ga bag'ishlangan maxsus teleko'rsatuv translyatsiya qilindi, unda koreys, rus, tojik va boshqa millatlarning madaniyati namoyish etildi.

Ijtimoiy tarmoqlar ham millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda muhim vositaga aylandi. Masalan, 2023-yilda "Yangi O'zbekiston" loyihasi doirasida ijtimoiy tarmoqlarda turli millatlarning O'zbekiston madaniyatiga qo'shgan hissasini yorituvchi videolar tarqatildi. Ushbu videolar yosh avlodda millatlararo hamjihatlik va fuqarolik ongini shakllantirishga xizmat qildi.

OAV orqali tashkil etiladigan "Navro'z" va "Mustaqillik kuni" kabi bayram tadbirlari turli millatlar vakillarini birlashtiradi. 2023-yilda Samarqand shahrida o'tkazilgan "Navro'z" bayramida turli millatlarning milliy taomlari, raqslari va musiqalari namoyish etildi, bu esa madaniy almashinuvni rag'batlantirdi.

Ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalari millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda bir-birini to'ldiruvchi vositalar sifatida xizmat qiladi. Ta'lim tizimi yosh avlodni bag'rikenglik va o'zaro hurmat ruhida tarbiyalasa, OAV bu qadriyatlarining jamiyatning keng qatlamlariga yetib borishini ta'minlaydi.

Masalan, 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi BMT minbarida ilgari surildi. Bu taklif ta'lim va OAV orqali yoshlarda millatlararo hamjihatlikni targ'ib qilishga xizmat qildi. Maktablarda ushbu taklifni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Yoshlar va millatlar do'stligi" mavzusida ochiq darslar tashkil etildi, OAV esa ushbu tadbirlarni keng yoritdi.

2022-yilda Toshkent shahrida tashkil etilgan "Millatlar do'stligi" festivali ta'lim muassasalari va OAV hamkorligida o'tkazildi. Festivalda turli millatlardan bo'lgan maktab o'quvchilari va talabalar o'zlarining madaniy chiqishlarini

namoyish etdi, bu tadbir O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tomonidan jonli efirda yoritildi.

Xulosa

O‘zbekistonning ko‘p millatli jamiyatida millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda ta‘lim tizimi va ommaviy axborot vositalari muhim rol o‘ynaydi. Ta‘lim tizimi yosh avlodda o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va fuqarolik ongini shakllantirsa, OAV madaniy xilma-xillikni nishonlash va millatlar o‘rtasida ishonch muhitini yaratishga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlari, xususan, ta‘lim va axborot sohasiga oid normativ-huquqiy aktlar bu jarayonni yanada mustahkamladi. Amaliy tadbirlar, masalan, “Do‘stlik festivali” va “Navro‘z” bayramlari, turli millatlar vakillarini birlashtirib, O‘zbekistonning ko‘p millatli jamiyatining boyligini namoyish etdi. Kelajakda ta‘lim va OAVning ta‘sirini yanada kuchaytirish orqali O‘zbekiston millatlararo hamjihatlikning xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli namunasiga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni. 2019-yil 29-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” farmoni. 2017-yil 7-fevral.
4. “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2019-yil.
5. “Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2019-yil.
6. Mirziyoyev, Sh. M. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
7. Jo‘rayev Q. “O‘zbekiston Respublikasi va jahon hamjamiyati”. Toshkent: Oltin meros press, 2024.
8. Turayeva, G. “Bo‘lajak o‘qituvchilarni sog‘lom ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalarining o‘rni”. Termiz: Termiz davlat universiteti, 2023.

Gulhayo Shuxrat qizi Ibadullayeva

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Gumanitar fanlar kafedrası o‘qituvchisi

gulhayoibadullayeva@gmail.com

BUGUNGI KUN AYOLLARINING ILM-FAN VA TEXNOLOGIYA RIVOJIDAGI ROLI

ANNOTATSIYA

Bugungi shiddatli zamoda xotin-qizlarning ilm-fan va texnologiya sohasidagi roli hayotning barcha jabhalarida tobora ko'proq namoyon bo'lib bormoqda. Ilm-fan va texnologiya aksar global muammolarga javob beradi va uning roli inson hayotining farovonligi uchun xizmat qilmoqda. Ilm-fan texnologiya ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish va mustahkamlash vositasi sifatida qaralsada, lekin butun dunyoda ayollar fan va texnologiya sohalarida hal qiluvchi rolga ega emaslar. Bu muammoning sabablari birinchidan, oila va ayollarning jamiyatdagi o'rni va faoliyati to'g'risidagi shaxsiy qarashlari, oiladagi vazifalar bo'lsa, ikkinchidan, jamiyatda ularning ishtirokini ta'minlash talabini pasligidir. O'zbekiston xotin-qizlari ham bundan mustasno emas. Butun dunyo bo'yicha yuqori ilmiy darajalarga yaqinlashganda, ayollar soni kamayadi. Ushbu maqolada shu sohadagi mavjud muammolar va fan, texnologiyani qo'llash, rivojlantirishda ayollarning roli jamiyatni takomillashtirishga qanday olib kelishi mumkinligini ko'rsatiladi. Shuningdek, ushbu maqola fan va texnologiya ayollarning pozitsiyasiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatishga harakat qilingan va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, ayol, ijtimoiy, ilm, fan, texnika, jamiyat, ta'lim, soha, ish, bandlik, gender tenglik, global, texnologiya, pozitsiya, oila.

Kirish

Bugungi kunda inson turmush tarzida xususan ayollar ijtimoiy faoliyatida katta o'zgarishlar sodir bo'lganini asosi ilm-fan va texnika rivoji bilan bog'liq ekanligi hech kimga sir emas. Har tomonlama bilimlarning rivoji, Inson o'sishi va rivojlanishining asosiy o'qi va harakatlantiruvchi kuchining omili bo'lib, xizmat qiladi. Bilim olishda islom dinida chegara yo'q, beshikdan qabrgacha ilm izla deyishgan, bilim olish jinsga- ayol va erkakga ajralmaydi, bu borada ular teng! Asosiy qomusimizda ham bu borada adolat barqaror. O'zbekistonda oxirgi yillarda gender tenglik bo'yicha bir qator qaror va farmonlar xotin-qizlarimizning faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun barcha sharoitlar yaratishga karatilgan va katta ahamiyat berilmoqda.

Asosiy qism

Hammamiz yaxshi bilamizki, bugungi zamonimiz texnologiya zamoni, rivojlangan mamlakatlarda biron soha yo'q-ki, raqamlash va yashil raqamlash tizimi kirib bormagan bo'lsa, ayni paytda bu jarayonda dunyo aholisining yarmi, ya'ni ayollarning o'rni qanchalik ahamiyatga ega ekanligi aniq ma'lum emas. Ko'p davlatlarda o'rta ta'lim majburiy va o'qishga borganda qizbola va o'g'ilbola teng qatnashadi, shunga ko'ra dunyoning ko'plab mamlakatlarida bakalavriat talabalarining muhim qismi ayollar bo'lsa-da, ko'rsatgichlar shuni ko'rsatadiki, vaqt o'tishi bilan yuqori ilmiy darajalarda ayollar soni kamayib borishi kuzatiladi va ularning soni ko'pchilikni tashkil etmaydi. Ayollar san'at va ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar, ta'lim va tarbiya sohasida ko'proq faoliyat yuritsalar, texnika, muhandislik, aniq fanlar sohalariga kamroq kirishadi. Asosan, ayollar tarbiyaviy va jismoniy parvarishga urg'u beradigan ishlarga moyil bo'lib, texnika mexanika mahoratiga va ijodiy fikrlashga tayanadigan ishlarda kamroq faoliyat ko'rsatadilar. Lekin aytib o'tish joizki, O'zbekistonda oxirgi ikki yil magistr qizlar soni 2-3 barovarga

ko'paygan. Bundan tashqari, ilmiy yo'nalishlarni tanlashda gender farqlar ham nisbatdan kamroq ko'zatilmoqda.

Ijtimoiy hayotda, uy ishlarini bajaradigan texnikadan tortib to qishloq xo'jaligi va sanoat sohaslarida ishlaydigan texnologiyalarning kirib kelishi, ya'ni bu evolyutsiyon jarayon ko'p chegaralarni, an'analarni urf-odatlarini, qolaversa, turmush tarzini o'zgartirgan bo'lsa-da, keng ko'lamlil ijtimoiy faoliyatda ayollarning faol bo'lishiga sharoit yaratganday bo'lsa-da, lekin jamiyatda gender tenglikni texnosanoat sohalarda yo'qligini mushohada qilish oson.

Bugungi kunda texnologik imkoniyatlar muhim ishlab chiqarish omilidir. Bu inson hayotida katta o'zgarishlarga olib kelmoqda. Mazkur jarayonda bilim asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun malakali ishchi kuchiga talab kun sayin ortib bormoqda.

Bilimga yo'naltirilgan jamiyat sohaslaridagi islohotlar va o'zgarish jarayoni, innovatsiyalarning harakatlantiruvchi omili va rivojlanish rejalari va kelajak uchun taraqqiyot strategiyasi bo'lib, xizmat qiladi. Bu jarayon inson rivojlanishiga asoslanadi. U global raqobatni, yangi shakllarni kuchaytirish orqali iqtisodiyotga turli yo'llar bilan ta'sir qiladi. Ish, bandlik, tashkilotlar va korxonalar, yangi jarayonlar, siyosat, qaror qabul qilish, adolat va xilma-xillik tushunchalari va inson erkinligi miqdorini oshirish orqali jamiyatning gender munosabatlariga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir qiladi. Gender - bu ikki guruh erkaklar va ayollarning har birini jamiyatda o'ynayotgan roli. Ma'lumki, vaqt o'tishi bilan rol o'zgarib kelmoqda va shu bilan birga u turli jamiyatlarda ham farq qiladi. Shubhasiz, bu rol ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotimizga ta'sir qilishi natijasida mamlakatlar rivoji ham turlicha jarayon olgan. Yetakchi mamlakatlarda ilm-fan, texnologiya inson hayotning ko'p jihatlariga, xususan, jamiyatning gender munosabatlariga ham ta'sir qilganini ko'rish mumkin.

Bilimga yo'naltirilgan jamiyat - fan va texnologik bilimlar barcha darajalarda bo'lgan jamiyatdir. Bu ijtimoiy jihatdan samarali. Bilim odamlar uchun strategik resursdir. "Intellektual ishchi kuchi" bilan birga jismoniy mehnat bilan kapital, boylik va kuch ishlab chiqarishning asosiy omillari hisoblanadi. Mahsulotlar kundalik hayotda haqiqiy intellektual mehnatdan foydalanishga asoslangan (Fuchs, 2004). Shu bilan birga, bilimga yo'naltirilgan jamiyat ayollarning rolini qayta belgilashni talab qiladi. Bu shuni anglatadiki, texnologiya ayollarning mehnati va hayoti darajasi haqida dalolat beradi, ya'ni texnologiyani rivojlantirish va ulardan foydalanishda ayollarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Fan va texnologiya barqaror inson rivojlanishi uchun ijtimoiy adolaga ham ta'sir qiladi.

Fan va texnologiya sohasida bilimga ega bo'lish intellektual kapital yoki intellektual ishchi kuchini hisoblangani uchun bu inson ijtimoiy hayotiga tabiiy ravishda ta'sir qiladi. Ommaviy ishlab chiqarish jarayonida bilimga asoslangan iqtisodiyot bor. Shu sababli, bilim va texnologiya ayollar hayotining barcha jabhalarida, ayniqsa, iqtisodiyot, ta'lim, tarbiya va atrof-muhitga ta'sir qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda fan va texnika sohasida ayollar ishtiroki qanchalik faol bo'lsa, kam rivojlangan mamlakatlarda ayollarning ishtiroki past ko'rsatgichlarni ko'rsatadi. Allaqachon tajribadan ko'rinib turibdiki, jamiyatning "keng bilim maydoni"da ayollarning yetarlicha ishtirok etishi musbiy natijalar bersa, gender

tengsizligi jamiyatdagi ijtimoiy iqtisodiy jihatdan manfiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bilim va texnologiyaning chuqurligi va keng koʻlami, uni hayotning barcha jabhalariga kirib borishi gender tenglik uchun muhim omil va juda muhim asosdir. Ayollarning mavqeini oshirish va mustahkamlashda bilim va texnologiya ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish va ularning turmush tarzini mustahkamlashga katta taʼsir koʻrsatadi. Gender tenglikning mavjudligi, ayollarning salohiyat va qobiliyatini tan olinishi koʻplab oʻzgarishlarga asos boʻladi va jamiyat rivojiga taʼsir qiladi. Inson taraqqiyotiga vakolat berish, inson tanlovini kengaytirish jarayonidir. Shu sababli, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish vaqt oʻtishi bilan oʻzgarishlarni talab qiladigan jarayondir. Agar u amalga oshirilsa, ayollarning imkoniyatlariga koʻra sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq boʻladi. Bu jamiyatning barcha jabhalarini qamrab oluvchi keng koʻlamli jarayon (Oldham, 2000). Shuning uchun imkoniyatlarni kengaytirish uchun mos keladigan harakatlar qilish kerak. Erkaklar uchun mavjud imkoniyatlar, ayollar uchun ham fan-texnologiya sohada imkoniyatlar yaratilishi shart. Buning amalga oshirilishi xotin-qizlarning poydevori va huquqlarini mustahkamlaydi, ijtimoiy adolatni kengaytiradi. Boshqa tomondan, uning global oʻsish jarayoniga asos boʻla oladi. Aksincha, ilm-fan, texnologiya rivojida ayollarning ishtiroki cheklanganligi nafaqat ayolning, hatto jamiyatning rivojiga taʼsir koʻrsatadi. Gender tenglik taraqqiyotning eng muhim tarkibiy qismlariga mos imkoniyatlar doirasini kengaytirmoqda. Rivojlanish jarayonida ishtirok etishlari uchun ayollarga imkoniyatlar yaratib berish kerak.

3. **Pedagogical Methodology:** Frederickson and Cline place significant emphasis on preparing teachers for inclusive education. To effectively implement inclusive education, teachers need to have special methods and individualized approaches. The book presents the most effective ways to train teachers and pedagogical methodologies. For example, it discusses the need for educational programs suited to children's specific needs, the adaptation of learning materials, and the variety of teaching methods.

4. **Social Integration and Collaborative Learning:** The book also discusses the relationship between inclusive education and social integration. Inclusive education is not only about acquiring knowledge but also about developing social skills, fostering intercultural understanding, and improving interactions between children. In an inclusive environment, both healthy and children with disabilities can learn together and find their place as equal members of society.

5. **Practical Approaches and Challenges:** Frederickson and Cline also analyze the practical challenges faced when implementing inclusive education. The book discusses issues such as the lack of preparation in educational institutions, difficulties in training teachers in special educational methods, and financial and resource shortages. The authors offer approaches and practical solutions to overcome these challenges.

Frederickson and Cline highlight the following important principles for successfully implementing inclusive education:

1. Equality and Fairness: Every child, whether healthy or disabled, should have equal rights to education. Creating equal opportunities for all children is the primary goal of inclusive education.

2. Adaptation and Individual Approach Since each child has different needs and abilities, it is crucial to adapt education and provide individualized approaches. Teachers should create flexible learning materials and methods for children with special needs.

3. Teamwork and Integration: In inclusive education, children should work together and develop their social skills. This helps every child find their place in society.

4. Optimization of the Education System: Educational institutions and classrooms must be adapted for children with special needs. Teachers should be trained in special methodologies, and the advantages of inclusive education should be promoted within society. Serious efforts are being made to develop inclusive education in Uzbekistan. In 2020, the Ministry of Education of the Republic of Uzbekistan published the document "Directions for the Development of Inclusive Education." This document outlines the main directions for implementing inclusive education. The primary goal of inclusive education in Uzbekistan is to support the education system for children with special needs and to involve all children in the educational process.

Azizova S. (2020) highlighted experiences related to the development of inclusive education in Uzbekistan in her dissertation. In her dissertation titled "Implementing Inclusive Education for Children with Special Needs: The Experience of Uzbekistan," she analyzed Uzbekistan's major achievements and challenges in the field of inclusive education. This research provides detailed information on the important steps in implementing inclusive education in Uzbekistan's education system, as well as educational programs and pedagogical methodologies for children with special needs.

Azimov T. (2019) in his research analyzed the state of the education system for children with special needs in Uzbekistan, emphasizing that serious changes need to be made in the existing system. In his work titled "Education for Children with

Special Needs: The Situation and Development in Uzbekistan," he analyzed the reforms being carried out in Uzbekistan's education system to develop inclusive education.

The main advantages of inclusive education include:

1. **Social Equality and Inclusivity:** Inclusive education creates equal opportunities for all children in society and helps them adapt to society. Every child, whether healthy or with disabilities, has the right to education. This is the main goal of the educational process.

2. **Psychological Development:** Inclusive education for children with special needs not only enhances their knowledge but also helps develop their self-confidence. Through this education, children feel like members of society and gain full confidence in their abilities.

3. **Interpersonal Social Relations:** inclusive education, children with special needs study alongside healthy children, developing their social skills through interaction. This helps them find their place in society.

There are some challenges in implementing inclusive education:

- **Unprepared Educational Institutions:** Many schools and educational institutions lack the necessary infrastructure for children with special needs. The buildings and classrooms are not adapted for children with disabilities.

- **Unqualified Teachers:** Teachers play a crucial role in the successful implementation of inclusive education. Training teachers in special education methodologies, creating individualized learning plans, and providing the necessary skills to consider the psychological and pedagogical development of children with special needs are essential for success.

- **Financial Resources:** There is a shortage of financial and material resources needed to expand inclusive education. This hinders the quality of the education system.

The following directions are essential for developing inclusive education:

- **Improving Teacher Qualification:** Teachers must be trained in the basic principles and methodologies of inclusive education, which will help them successfully organize the educational process.

- **Improving Infrastructure:** Schools and educational institutions must be adapted for children with special needs, and necessary technical and psychological conditions must be created.

- **Promoting Public Awareness:** It is essential to promote inclusive education widely and raise awareness about its benefits. People need to have more information about the advantages of inclusive education.

In conclusion, the primary goal of inclusive education is to ensure equal rights for children with disabilities to receive education and integrate them into society. This education system not only focuses on acquiring knowledge but also helps in the psychological and social development of children. With inclusive education, children can increase their self-confidence and find their place as members of society. While some steps have been taken to develop inclusive education in Uzbekistan, challenges still exist. Schools are not adequately adapted for children with disabilities, there are difficulties in training teachers in special

education methods, and financial resources are lacking. Therefore, it is necessary to train teachers in inclusive education, adapt educational institutions, and raise public awareness about this issue. Only then will children with disabilities be able to find their place in society as equal citizens. Through inclusive education, the social, psychological, and spiritual development of every child is ensured, which contributes to the stability and development of society.

REFERENCES

1. UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. 1994.
2. Azizova, S. Implementing Inclusive Education for Children with Disabilities: The Experience of Uzbekistan (dissertation). Tashkent State Pedagogical University, - Tashkent, 2020.
3. Ministry of Education of the Republic of Uzbekistan. Directions for the Development of Inclusive Education. - Tashkent, 2020.
4. Azimov, T. Education for Children with Disabilities: The Situation and Development in Uzbekistan. Tashkent: Ministry of Education of the Republic of Uzbekistan, 2019.
5. Frederickson, N., & Cline, - T. Special Educational Needs, Inclusion, and Diversity. Open University Press, 2002.

Charos Raxmidinovna Choriyeva

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti 2401-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Muslima Maxmudovna Bazarova**

O‘zDJTU, O‘zbekiston tarixi kafedrasida katta o‘qituvchisi

INTELLEKTUAL SALOHIYAT – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida intellektual salohiyatning tutgan o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Bugungi kunda bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, innovatsion g‘oyalarga ega yoshlarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Mamlakatning har tomonlama rivojlanishi, iqtisodiyot, ilmfan, texnologiya va madaniyat sohalarida raqobatbardosh bo‘lishi, aynan intellektual kuchga ega insonlar orqali amalga oshadi. Maqolada shuningdek, ta‘lim sifatini oshirish, ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirish va iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash orqali intellektual salohiyatni yanada kuchaytirish zarurligi ta‘kidlanadi. Yangi O‘zbekiston bunyodkorlik, yangilanish va taraqqiyot davri bo‘lib, unda har bir fuqaroning bilim va salohiyati jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanmoqda. Shu boisdan, intellektual salohiyatni rivojlantirish umumiy taraqqiyot uchun muhim hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: Ijtimoiy faollik, taʼlim islohotlari, yoshlarga oid davlat siyosati, madaniy yuksalish, fuqarolik jamiyati, aholi salohiyatini oshirish, gender tengligi, sogʻlom turmush tarzi, mahalliy tashabbuslar.

INTELLECTUAL COMPETENCE IS ONE OF THE IMPORTANT FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article provides an in-depth analysis of the role of intellectual potential in the development of New Uzbekistan. Today, educating knowledgeable, modern-thinking youth with innovative ideas has become a priority in state policy. The comprehensive development of the country – in areas such as the economy, science, technology, and culture – is achieved through individuals with intellectual strength. The article also emphasizes the importance of improving the quality of education, encouraging scientific research, and supporting talented youth to further enhance intellectual potential. New Uzbekistan is a period of construction, renewal, and progress, where the knowledge and capacity of every citizen is becoming a key factor in societal development. Therefore, developing intellectual potential is considered essential for overall progress.

Keywords: Social activity, education reforms, youth policy, cultural advancement, civil society, human capacity development, gender equality, social innovation, healthy lifestyle, local initiatives.

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ – ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

Данная статья представляет собой глубокий анализ роли интеллектуального потенциала в развитии Нового Узбекистана. В настоящее время воспитание образованной, современно мыслящей молодежи с инновационными идеями стало приоритетным направлением государственной политики. Всестороннее развитие страны в таких сферах, как экономика, наука, технологии и культура – достигается именно благодаря людям с высоким интеллектуальным потенциалом. В статье также подчеркивается необходимость повышения качества образования, поддержки научных исследований и талантливой молодежи для дальнейшего укрепления интеллектуального потенциала. Новый Узбекистан – это эпоха созидания, обновления и прогресса, где знания и потенциал каждого гражданина становятся основным фактором развития общества. Поэтому развитие интеллектуального потенциала считается важнейшим условием общего прогресса.

Ключевые слова: Социальная активность, реформы образования, государственная молодежная политика, культурный подъем, гражданское общество, развитие человеческого потенциала, гендерное равенство, социальные инновации, здоровый образ жизни, местные инициативы.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘plab omillarga bog‘liq. Ularning eng muhimlaridan biri bu – intellektual salohiyat. Aytish joizki, zamonaviy jamiyatning rivojlanishi faqat iqtisodiy resurslar bilan cheklanmaydi, balki inson kapitalining bilim va salohiyatiga ham bevosita bog‘liqdir. O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasiga ko‘ra, ta’lim tizimining modernizatsiyasi, ilm-fan va texnologiyalarga asoslangan yangi sanoatlarni yaratish, yoshlarni innovatsion faoliyatga jalb qilish kabi vazifalar alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi, aynan intellektual kuchni rivojlantirishga qaratilgan.

2021-yilda mamlakatda Yoshlar siyosatini yanada rivojlantirishga oid yangi qonunlar va dasturlar qabul qilindi, bu esa yoshlarning ijtimoiy va ilmiy faolligini oshirish, ularga zamonaviy bilimlarni o‘rgatish hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishni maqsad qiladi. Shuningdek, ilm-fan sohasida ko‘rilgan yutuqlar ham katta ahamiyatga ega. 2020-yil oxirida O‘zbekistonda innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va ilmiy ishlanmalarni rag‘batlantirishga qaratilgan “Innovatsion rivojlanish” dasturi amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, yuqori texnologiyalarni joriy etish, ilmiy markazlarni rivojlantirish va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish bo‘yicha bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirildi. 2020-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston ilm-fan va texnologiyalar sohasida dunyoda 120-ovozda turibdi, bu esa mamlakatning global intellektual maydonda o‘z o‘rnini mustahkamlashga intilayotganini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekistonning global maydonda raqobatbardoshligini oshirish uchun ta’lim tizimi va ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish lozim. Bu yo‘lda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, ilmiy tadqiqotlarga investitsiya kiritish, texnologiyalarni joriy etish kabi masalalar alohida o‘rin tutadi. O‘z navbatida, ta’lim tizimining samarali islohoti, intellektual salohiyatni oshirishda eng muhim vositadir. O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga asos soluvchi mutaxassislar, iqtidorli yoshlar va ilmiy xodimlar jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, intellektual salohiyatni rivojlantirish – mamlakatning barcha sohalarida barqaror va uzluksiz taraqqiyotning asosiy omili hisoblanadi. Mamlakatda bilim va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy modelni shakllantirish orqali jamiyatni yanada rivojlantirish mumkin. O‘zbekistonning global miqyosda raqobatbardoshligini oshirish, intellektual resurslarni rivojlantirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va jamiyatning ijtimoiy faolligini oshirish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy yetuklikka erishish un biz, avvalo, xalqimiz salohiyatini oshirishimiz zarur. Bu uchun biz ba’zi g‘oyalar va rivojlanishimiz uchun kerakli bo‘lgan asosiy ma’lumotlarga aniqlik kiritishimiz lozim. Intellektual salohiyat – bu jamiyatning bilim, texnologiya, ilmiy potensialini rivojlantirish, yaratish va undan samarali foydalanish qobiliyatidir. Mamlakatning har tomonlama taraqqiyoti, ayniqsa, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda, aynan bilimli va yuqori malakali mutaxassislar orqali amalga oshiriladi. Intellektual salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, ayniqsa, ta’lim tizimi, ilm-fan, texnologiyalar

va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga doir choralar bugungi kunda mamlakatning o‘shirish sur‘atlarini tezlashtirib, uni global raqobatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston hukumati ta’lim tizimida keng miqyosdagi islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu islohotlar yoshlarning bilim va malakasini oshirish, ular orasida innovatsion fikrlashni rivojlantirish, ijtimoiy faollikni oshirish va ilmiy izlanishlarga qiziqish uyg‘otish maqsadida amalga oshirilmoqda. 2021-yilda qabul qilingan “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi qonun, yoshlarning ta’lim olishda teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan. Hozirda, mamlakatda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish uchun yangi ilmiy markazlar va texnoparklar tashkil etilmoqda. O‘zbekiston Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2023-yilda 5 ta yangi texnopark tashkil etildi, bu texnoparklar ilmiy izlanishlar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga jalb qilingan yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

2021-yilda “Digital Uzbekistan 2030” strategiyasini qabul qilish, mamlakatni raqamli iqtisodiyotga o‘tkazish bo‘yicha yangi dasturlarni amalga oshirishga imkon yaratdi. Ushbu strategiya doirasida mamlakatning barcha sohalarida raqamli transformatsiya amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonning ta’lim tizimida kiritilgan o‘zgarishlar, jumladan, STEM ta’limi (ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohasidagi yangiliklar ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda STEM sohasidagi ta’limni rivojlantirish uchun 2023-yil boshida 200 dan ortiq yuqori texnologiyali laboratoriyalar tashkil etildi. Ushbu laboratoriyalar o‘quvchilarga ilmiy-texnologik izlanishlar olib borish imkoniyatini yaratmoqda. Yoshlarni nafaqat ilm-fan, balki ijtimoiy faollikka ham jalb qilish muhim ahamiyatga ega. 2022-yilda “Yoshlar akademiyasi” tashkil etilib, uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan bir qator grantlar va mukofotlar taqdim etildi. Akademiya yoshlarni ilmiy faoliyatga, innovatsion g‘oyalar yaratishga, shuningdek, ular orasida ijtimoiy va siyosiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishni maqsad qilgan. Yoshlar akademiyasining asosiy vazifalaridan biri – iqtidorli yoshlarni tanlash va ularga ilmiy faoliyatda o‘z iqtidorlarini namoyon etish imkoniyatlarini yaratishdir.

Bundan tashqari, gender tengligi va ijtimoiy innovatsiyalar ham jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan. 2022-yilda gender tengligi bo‘yicha yangi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar qizlarni ta’lim olishga jalb qilish, ular uchun teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan. 2022-yilda 100 dan ortiq grantlar iqtidorli yoshlar uchun ajratildi. Ijtimoiy innovatsiyalar orqali jamiyatning barcha qatlamlarini o‘z bilimini oshirishga jalb qilish zarur. Mahalliy ilmiy markazlar, texnoparklar, o‘quv kurslari va ilmiy tashkilotlar orqali yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Shuningdek, 2023-yilda “Yoshlarning ijtimoiy innovatsiyalari” dasturi ishga tushirildi. Bu dastur yoshlarni ijtimoiy muammolarni hal qilish, yangi texnologiyalar yaratish va jamiyatda o‘zgarishlar qilishga rag‘batlantiradi.

Sog‘lom turmush tarzini oshirish ham jamiyat taraqqiyotining yana bir muhim omilidir. 2022-yilda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va yoshlar orasida sportni rivojlantirish bo‘yicha keng miqyosda tadbirlar o‘tkazildi. Sport va jismoniy faoliyat

yoshlarni nafaqat sog‘lom turmush tarziga jalb qilish, balki ularni yangi g‘oyalarni yaratishga, jamoaviy ishlarni rivojlantirishga va innovatsion fikrlashga undaydi. 2021-yildan boshlab mamlakatda sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan islohotlar, fuqarolarni tibbiy ta‘minot bilan ta‘minlash va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan yangi dasturlarni o‘z ichiga oladi. Shu tariqa, intellektual salohiyatni rivojlantirish O‘zbekistonning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlash uchun muhim omil hisoblanadi. O‘zbekistonning innovatsion g‘oyalari, ta‘lim islohotlari va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari, uning global miqyosda raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ta‘lim islohotlari, ilmiy-texnologik tadqiqotlar, yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb qilish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish intellektual salohiyatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridir. Bu sohalaridagi o‘zgarishlar yoshlarni, ayniqsa, yangi g‘oyalarni va innovatsiyalarni yaratish orqali jamiyatni rivojlantirishga tayyorlaydi. Ta‘lim tizimi, ilm-fan va innovatsion texnologiyalar jamiyatni yuqori bilimga ega, raqobatbardosh va ijodiy fikrlaydigan mutaxassislar bilan ta‘minlashni maqsad qilgan. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish orqali O‘zbekistonning global iqtisodiy va ijtimoiy maydonda o‘rni kuchayadi. Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanishida bilim va salohiyatga asoslangan iqtisodiy modelning shakllanishi, o‘zgarishlar va yangilanishlarning asosiy manbaidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022 – 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-307-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-6102466?ONDATE=07.07.2022%2000>
2. Saidov A. Hozirgi zamon: Yangi O‘zbekistondagi islohotlar falsafasi // <https://parliament.gov.uz/articles/2118>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/16/usaid-digital-uzbekistan-2030/>
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida” SQ-297-IV-son qarori // <https://lex.uz/docs/-5466673?ONDATE=28.05.2021>
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” VMQ-23-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-5234746?ONDATE=04.10.2023>
6. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/ayollarning-siyosatda-imkoniyatlarini-kengaytirish-ozbekistonda-gender-tengligi-uchun-yetakchilikni-shakllantirish>

Шахризода Шерзодовна Хасанова
УзГУМЯ, Факультет Английской филологии 2403-группа
Электронная почта: itsshahrizoda@gmail.com

Научный руководитель: **Муслима Махмудовна Базарова**

РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ НАУКИ И НАЦИОНАЛЬНО-ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В последние годы Узбекистан переживает настоящий ренессанс в вопросах расширения возможностей женщин. Реформы, проводимые в стране, открывают новые горизонты для их участия в самых разных сферах – от науки до культурной жизни. Эта статья раскрывает, как узбекские женщины вносят свой вклад в научный прогресс и бережно сохраняют национальные духовные ценности, становясь вдохновляющими примерами для общества.

Ключевые слова: женщины, наука, духовные ценности, Узбекистан, реформы, образование, общество

YANGI O‘ZBEKISTONDA AYOLLARNING FAN VA MILLIY-MA’NAVIY QADRIYATLAR RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

ANNOTATSIYA

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ayollar salohiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘lida yangi bosqichga ko‘tarildi. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar ayollarning ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarda faol ishtirok etishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada o‘zbek ayollarining ilmiy taraqqiyotga qo‘shayotgan hissasi, shuningdek, milliy-ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylashdagi roli tahlil qilinadi. Ular bugungi jamiyat uchun ilhom manbaiga aylanishmoqda.

Kalit so‘zlar: ayollar, fan, ma’naviy qadriyatlar, O‘zbekiston, islohotlar, ta’lim, jamiyat

THE ROLE OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND NATIONAL-SPIRITUAL VALUES IN NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

In recent years, Uzbekistan has entered a new era of empowering women, marked by extensive reforms aimed at broadening their participation across various fields, including science and culture. This article explores how Uzbek women contribute to scientific advancement while also preserving and promoting national spiritual values. Their active involvement serves as a powerful source of inspiration for society.

Keywords: women, science, spiritual values, Uzbekistan, reforms, education, society.

Для исследования были использованы методы наблюдения, анализа статистических данных и изучения законодательных актов. Результаты показывают, что женщины в Узбекистане сегодня – это не только хранительницы семейного очага и традиций, но и активные участницы

научных исследований, инновационных проектов и общественных инициатив. Они уверенно занимают позиции в академической среде, вносят свежие идеи в развитие технологий и культуры, а также играют ключевую роль в укреплении национальной идентичности.

В современном Узбекистане женщины уверенно переписывают привычные сценарии своей роли в обществе. Они больше не ограничиваются традиционными рамками материнства и семейного уюта – сегодня женщины Узбекистана блистают как ученые, новаторы и влиятельные голоса в обществе. Эта эволюция стала возможной благодаря целенаправленной поддержке государства, которое создает возможности для их роста и самореализации в самых разных областях.

Эти изменения говорят о глубокой трансформации в общественном сознании. Государственная поддержка, выраженная в создании программ и инициатив для женщин, помогает раскрывать их потенциал и вдохновляет новое поколение. Узбекские женщины становятся символом гармоничного сочетания уважения к традициям и стремления к прогрессу.

Примером этого прогресса служит стремительный рост числа женщин в высшем образовании, особенно в таких сложных дисциплинах, как технологии и естественные науки. По данным Министерства высшего образования, в 2024 году более 40% студентов вузов составляют девушки. Это не просто цифры – это символ глубоких перемен.

Но изменения касаются не только статистики. Общество все больше ценит вклад женщин в науку и культуру. Они не только проводят исследования, запускают стартапы и представляют Узбекистан на международной арене, но и бережно сохраняют национальное наследие – язык, традиции, уникальный культурный код. Их голоса звучат везде: от научных лабораторий до культурных фестивалей.

Особенно вдохновляет, как женщины влияют на молодое поколение. В школах, университетах и общественных объединениях они становятся наставницами, передавая знания и воспитывая в молодежи гордость за свои корни и уверенность в будущем. Их энергия и мудрость помогают формировать новое, осознанное поколение.

Женщины Узбекистана сегодня – это не просто участники перемен, а их катализаторы. Их вклад в науку, культуру и духовное развитие страны бесценен. Благодаря государственной поддержке, меняющемуся мышлению общества и их собственной решимости, они закладывают основу для процветающего и гармоничного будущего Узбекистана.

ЛИТЕРАТУРА

1. Конституция Республики Узбекистан. 2023.
2. Мирзиёев Ш.М. Узбекистан – страна великих реформ. Ташкент: Узбекистан, 2022. – С. 45–52.
3. Исмаилова Г. Женщины в науке: путь признания. Журнал «Наука и общество», 2023, №2. – С. 12–18.

4. Официальный сайт Министерства высшего образования Республики Узбекистан. <https://edu.uz>

5. Хасанова Н. Женская инициатива в обществе. – Ташкент: Ilm Ziyu, 2023. – С. 33-39.

6. Саидова Д. Влияние женщин на духовно-нравственное воспитание молодежи. Вестник духовности, 2024, №4. – С. 27-31.

Muxlisa Omonova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Roman-german filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi
omonovamuxlisa900@gmail.com

Madina Sherzod qizi Achilova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi
madina.achilova11@gmail.com

KELAJAK TARJIMONLARI: INSON TAFAKKURI USTUN QOLADIMI YOKI SUN’IY INTELLEKT YETAKCHILIK QILADIMI?

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda sun’iy intellekt (SI) tarjima sohasida katta yutuqlarga erishayotgan bo‘lsa-da, inson tarjimonlarning roli haligacha muhimligicha qolmoqda. Ayniqsa, tibbiy tarjimonlar, sinxron tarjimonlar va madaniy sezgirlik talab qiladigan tarjimalar inson omilisiz yuqori sifatga ega bo‘la olmaydi. Ushbu maqolada sun’iy intellekt va inson tarjimonlarning imkoniyatlari solishtiriladi hamda kelajakda tarjimonlik sohasida inson omilining o‘rni qanday bo‘lishi mumkinligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, inson tarjimonlar, avtomatik tarjima, tibbiy tarjima, sinxron tarjima, madaniy sezgirlik, tarjima texnologiyalari.

ABSTRACT

Nowadays, artificial intelligence (AI) has achieved significant advancements in the field of translation. However, the role of human translators remains crucial. In particular, medical interpreters, simultaneous interpreters, and translations requiring cultural sensitivity cannot achieve high quality without human involvement. This article compares the capabilities of AI and human translators and analyzes the potential role of human expertise in the future of translation.

Keywords: artificial intelligence, human translators, automatic translation, medical translation, simultaneous interpretation, cultural sensitivity, translation technologies.

АННОТАЦИЯ

В настоящее время искусственный интеллект (ИИ) добился значительных успехов в сфере перевода. Однако роль человеческих переводчиков по-прежнему остается важной. В особенности медицинские переводчики, синхронные переводчики и переводы, требующие культурной

чувствительности, не могут быть выполнены на высоком уровне без участия человека. В данной статье сравниваются возможности ИИ и человеческих переводчиков, а также анализируется будущее роли человека в сфере перевода.

Ключевые слова: искусственный интеллект, человеческие переводчики, автоматический перевод, медицинский перевод, синхронный перевод, культурная чувствительность, технологии перевода.

Kirish

Hozirgi davr texnologiyalar inqilobi sun'iy intellekt(SI)ni inson mehnatini avtomatlashtirishda muhim vositaga aylantirdi. Ko'plab sohalarda u insonlarning an'anaviy ish uslublarini o'zgartirib, jarayonlarni tezlashtirib, soddalashtirib va arzonlashtirib kelmoqda. Tarjima sohasi ham bundan mustasno emas. Google Translate, DeepL, ChatGPT kabi sun'iy intellektga asoslangan vositalar matnlarni bir tildan ikkinchi tilga avtomatik tarjima qilish imkoniyatini beradi. Lekin bu texnologiyalar inson tarjimonlarning o'rnini to'liq egallay oladimi yoki ular faqat yordamchi vositalar sifatida qoladimi? Ayniqsa, tibbiy tarjimonlar va sinxron tarjimonlarning o'rnini sun'iy intellekt bosa oladimi? Bu maqolada shu kabi masalaga chuqurroq nazar tashlaymiz.

Sun'iy intellekt tarjimonlarining afzalliklari

Sun'iy intellekt dasturlari oddiy matnlarni bir necha soniya ichida tarjima qilishi mumkin. Kitoblar, maqolalar, hujjatlar va xatlarni SI yordamida tezkor tarjima qilish imkoniyati inson vaqtini tejaydi. SI tarjimonlari bir vaqtning o'zida yuzlab tillarni qo'llab-quvvatlaydi, bu esa turli tillardagi matnlarni osongina tarjima qilish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, ko'p tilli loyihalar uchun juda qulaydir.

Ko'pgina SI tarjima xizmatlari bepul yoki juda arzon narxlarda taqdim etiladi, bu esa katta miqdordagi matnlarni tarjima qilish xarajatlarini kamaytiradi. An'anaviy tarjima xizmatlari, ayniqsa kamyob tillar uchun, ancha qimmatga tushishi mumkin. Ba'zi dasturlar internetga ulanmasdan ham ishlash imkoniyatiga ega, bu esa tarmoq aloqasi cheklangan joylarda ham tarjima qilishga imkon beradi.

Sun'iy intellekt vositalari bir vaqtning o'zida yuzlab tillarni qo'llab-quvvatlaydi va bu tarjimonlar uchun katta yordamchi vosita bo'lishi mumkin. SI tarjimonlari matnni juda tez tarjima qila oladi, bu esa vaqtni sezilarli darajada tejashga yordam beradi. Katta hajmdagi hujjatlarni tarjima qilishda bu afzallik ayniqsa seziladi.

Mashinaviy o'rganish algoritmlari doimiy takomillashib boradi, bu esa tarjima sifatining yildan-yilga yaxshilanishiga sabab bo'ladi. SI tarjimonlari doimiy ravishda mavjud bo'lib, istalgan vaqtda tarjima qilish xizmatini taqdim etadi. Bu insoniy tarjimonlarning cheklangan vaqt va mavjudligiga bog'liq bo'lmagan holda tarjimalarni tezkor bajarish imkonini beradi.

Inson tarjimonlarning o'rnini va SI bilan solishtirish. Ba'zi sohalarda SI hali inson tarjimonlar darajasiga yetib bora olmaydi. Masalan:

Sinxron tarjima – konferensiyalar, xalqaro uchrashuvlar yoki jonli chiqishlarda sinxron tarjimonlarning roli juda muhim. Ular nafaqat so'zlarni tarjima qiladi, balki ohang, ifoda va auditoriyaning kayfiyatini ham hisobga oladi va shu

aspektlarga ta'sir qiladi. Masalan, BMTning xalqaro yig'ilishida tarjimonlar siyosiy nutqlarning mazmunini saqlab, ayni paytda notiqning ovoz ohangini ham yetkazishlari kerak bo'ladi. Sun'iy intellekt esa hozircha bunday nozik jihatlarni to'liq bajara olmaydi.

Tibbiy tarjima – tibbiyot sohasida noto'g'ri tarjima hayot-mamot masalasiga aylanishi mumkin. Inson tarjimonlar bemor va shifokor o'rtasidagi muloqotda nozik tafsilotlarni tushunish va izoh berish orqali hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, bir bemor xorijiy mamlakatda shoshilinch yordamga muhtoj bo'lsa, inson tarjimoni bemorning shikoyatlarini, tibbiy tarixini va shifokorning ko'rsatmalarini aniq tushuntira oladi. Sun'iy intellekt esa tibbiy atamalarni tarjima qilsa ham, murakkab tibbiy holatlar yoki noaniq simptomlar bo'yicha izoh berishda zaiflik qiladi.

Sud va huquqiy tarjima – sud jarayonlarida tarjimonlar faqatgina so'zlarni emas, balki ularning huquqiy mazmunini ham aniq yetkazishlari kerak. Bu jarayonlarda xatolar juda qimmatga tushishi mumkin. Masalan, xalqaro sudlarda ayblanuvchining yoki guvohning so'zlarini noto'g'ri tarjima qilish sud qaroriga ta'sir qilishi mumkin. Sun'iy intellekt bu sohada huquqiy iboralar va kontekstni to'liq tushunish imkoniyatiga ega emas.

Jonli suhbatlar va madaniy tafsilotlar – Jonli muloqotda inson tarjimonlar ohang, tana tili va kontekstni hisobga olib tarjima qiladi. SI esa hozircha bunday holatlarda yetarlicha samarali emas. Misol tariqasida, xalqaro biznes muzokaralarida inson tarjimoni faqat so'zlarni tarjima qilish bilan cheklanmay, muzokaralar ruhiyatini ham tushunib, aloqa samaradorligini oshiradi. Sun'iy intellekt esa hozircha bunday holatlarda yetarlicha samarali emas, ayniqsa hazil, kinoya yoki nozik madaniy ifodalarni tushunishda qiynaladi.

Inson tarjimonlarining ustunliklari va SI cheklolari. Nega sun'iy intellekt inson tarjimonlarni ayrim sohalarda yengib o'tolmaydi?

Sun'iy intellekt tezkor tarjima qila oladi, ammo inson tafakkuri va tajribasi talab qilinadigan holatlarda u yetarli emas. Sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanib borayotganiga qaramay, u inson tafakkurining murakkab tomonlarini to'liq takrorlay olmaydi.

Kontekst va ma'no tushunish qobiliyati – Inson tarjimonlar jumlarlar ortidagi yashirin ma'nolarni, kontekstni chuqur anglaydi. SI esa ko'pincha so'zma-so'z tarjima qiladi va bu noto'g'ri talqinlarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, "Let's break the ice" iborasi faqat inson tarjimon tomonidan to'g'ri tushuniladi – "Suhbatni yumshatish" degan ma'noda.

Hissiyot va intuitsiya yetishmasligi – Sun'iy intellekt faqat mavjud ma'lumotlar asosida ishlaydi va insonlardagi intuitiv qaror qabul qilish qobiliyatiga ega emas. Insonlar jumlaning ma'nosini kontekstdan kelib chiqib tushuna oladi, SI esa bunday holatlarda xatolarga yo'l qo'yishi mumkin.

Ijodiy va estetik tafakkur – She'riy, adabiy va murakkab uslub talab qiluvchi matnlarni tarjima qilishda inson tafakkuri ustun. Madaniy sezgirlik va milliy o'ziga xoslikni hisobga olish lozim. Chunki har bir tilning o'ziga xos iboralar, kinoyalari va metaforalari bo'ladi. Sun'iy intellekt bu jihatlarni yetarlicha anglab yetolmaydi, natijada tarjimada ma'no yo'qolishi yoki buzilishi mumkin. Masalan, Ernest

Xemingueyning "The Old Man and the Sea" asarini tarjima qilishda faqat soʻzlarni emas, balki asarning ohangini va ruhiyatini ham saqlash zarur.

Tezkor moslashish muammosi – Inson tarjimonlar vaziyatga qarab tarjima uslubini oʻzgartira oladi, SI esa oldindan oʻrganilgan algoritmlar asosida ishlaydi va noanʼanaviy vaziyatlarga moslasha olmaydi. Har bir tilning oʻziga xos iboralari, kinoyalari va metaforalari boʻladi. Sunʼiy intellekt bu jihatlarni yetarlicha anglab yetolmaydi, natijada tarjimada maʼno yoʻqolishi yoki buzilishi mumkin. Masalan, oʻzbek tilidagi "Oʻtin olib kelishga joʻnatib, qulogʻidan ayrilibdi" iborasi boshqa tillarga toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilinsa, maʼnosini yoʻqotadi.

Tibbiy va sinxron tarjima murakkabligi – Tibbiyot sohasida notoʻgʻri tarjima jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. SI tibbiy terminlarni tarjima qilishi mumkin, lekin ularni toʻgʻri talqin qilish va mos kontekstda ishlatish inson bilimiga bogʻliq. Sinxron tarjimada esa SI jonli muloqotdagi ohang, ifoda va tezkor javob berish koʻnikmalarida insondan ortda qoladi. Masalan, bemorning dorilarga allergiyasi yoki operatsiya davomida foydalaniladigan anesteziya turi notoʻgʻri tarjima qilinsa, jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Sinxron tarjimonlar esa xalqaro konferensiyalar va muzokaralarda real vaqtda tezkor va aniq tarjima qilishlari kerak, bu esa inson tafakkuri va tajribasi bilan amalga oshiriladi.

Tarjimachilik sohasining kelajagi

Hozirgi kunda sunʼiy intellekt tarjimonlar inson tarjimonlarni toʻliq almashtirish darajasiga yetib bormagan. Ayniqsa, murakkab, hissiyot va madaniy tafsilot talab qiladigan matnlarni tarjima qilishda inson tafakkuri va tajribasi hal qiluvchi rol oʻynaydi. Biroq, texnologiyalar rivojlanib borayotganligi sababli SI va inson tarjimonlarning hamkorligi yanada samarali boʻlishi mumkin.

Kelajakda SI vositalari yanada aqlliyoq boʻlishi, tarjimalarning sifati yaxshilanishi va tabiiyroq tus olishi mumkin. Biroq, inson tarjimonlarga ehtiyoj yoʻqolib ketmaydi. Ayniqsa, sinxron va tibbiy tarjima, sud jarayonlari va badiiy matnlar kabi nozik jihatlari talab qilinadigan sohalarda inson omili muhim boʻlib qoladi. Eng yaxshi natijalarga erishish uchun inson tafakkuri va sunʼiy intellekt imkoniyatlarining uygʻunligi talab etiladi. Lekin bu bilan SI kelajakda tarjimonlarning oʻrnini bosolmaydi, deb odamlar harakatda toʻxtab qolishlari ham kerak emas. Aksincha, texnologiyalarni oʻzlashtirish va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish zamon talabi hisoblanadi. SI bilan hamkorlik qilish orqali tarjimonlar oʻz malakalarini yanada oshirib, zamon talablariga moslashishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda sunʼiy intellekt tarjima jarayonini inqilobiy darajada osonlashtirishi va tezlashtirishi mumkin, ammo u inson tafakkuri va madaniy sezgirlikning oʻrnini toʻliq bosa olmaydi. Ayniqsa, tibbiy tarjimonlar va sinxron tarjimonlarning roli SI tomonidan toʻliq egallanishi qiyin. Adabiy asarlar, siyosiy matnlar, yuridik hujjatlar va murakkab texnik matnlar kabi tarjima talab qiladigan sohalarda inson tarjimonlarning roli hal qiluvchi ahamiyat kasb etishda davom etadi. Kelajakda sunʼiy intellekt va inson tarjimonlarning uygʻunligi eng mukammal tarjimalarni yaratishda asosiy omil boʻlib qolishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hutchins, W. J., & Somers, H. L. (1992). An Introduction to Machine Translation. - London: Academic Press.
2. Bowker, L., & Fisher, D. (2010). Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction. Ottawa: University of Ottawa Press.
3. Goggin, B. (2016). The Ethics of Medical Translation and Interpreting. In The Routledge Handbook of Translation and Ethics (pp. 240-255). Routledge.
4. Vasconcellos, M. (1988). Machine Translation: The State of the Art. In Advances in Computers, Volume 27.
5. Taibi, M. (2021). Multilingual Communication in Healthcare: Policy and Practice. Palgrave Macmillan.
6. Shlesinger, M. (1998). Corpus-based interpreting studies: The state of the art. Meta: Journal des traducteurs, 43(4), 486–493.

Marjona Behzod qizi Xalilova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

1-kurs talabasi

Madina Sherzod qizi Achilova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

madina.achilova11@gmail.com

CHET TILLARINI O‘RGATISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH MASALALARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda samarali ta’sirga ega bo‘lgan innovatsion metodlar xususida so‘z boradi, ta’lim sohasida axborot texnologiyalarini qo‘llash masalalari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Metod, multimedialar, gamifikatsiya, language exchange, mobil ilovalar, online.

Barchamizga ma’lumki, kundan kunga globallashib borayotgan hozirgi zamonda chet tillarini bilish odamlar uchun shunchaki qiziqish emas, balki zamon talabiga aylanib qoldi. Ya’ni xorijiy tillarni bilish kishilar uchun ko‘plab imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Ma’lum bir chet tilini o‘rganish bu shunchaki til bilish emas, balki shaxsiy rivojlanish, kasbiy imkoniyatlar kengligi, madaniy va ilmiy aloqalar o‘rnatish hamda sayohat va turizm imkoniyatlarini ham anglatadi. Shuningdek, yurtimizda ham chet tillarini ommalashtirish hamda ularni ayniqsa yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Maktablarda ham boshlang‘ich sinflardan o‘quvchilarga xalqaro til sifatida e’tirof etilayotgan bir nechta xorijiy tillar, ya’ni rus tili va ingliz tillarini o‘rgatilishi kengaytirilmoqda. Bundan tashqari, xorijiy til o‘qituvchilari uchun ixtisoslashtirilgan treninglar va online kurslar tashkil qilinib, pedagoglarning bilim darajasi doimiy ravishda yangilanmoqda.

Bugungi globallashtirish davrida chet tillarini o'rgatish jarayonida innovatsion yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. An'anaviy metodlar bilan bir qatorda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli platformalar, interaktiv dasturlar va multimedia vositalarining qo'llanilishi talabalarda chet tilga nisbatan qiziqish va motivatsiyani kuchaytiradi. Ayniqsa, onlayn o'quv modullari, virtual darslar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt asosidagi mashqlar til o'rganish jarayonini samarali va qulay qiladi. Shuningdek, masofaviy ta'lim imkoniyatlarining kengayishi chet tillarini geografik cheklolansiz o'rganishga sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanishda metodik yondashuvning to'g'ri tanlanishi, pedagoglarning raqamli savodxonligi va texnik bazaning yetarli bo'lishi ham muhim rol o'ynaydi.

Chet tillarini o'rgatishda innovatsion yondashuvlar zamonaviy pedagogika, texnologiya va metodikani o'z ichiga olgan bir qator yangi uslublarni talab qiladi.

Buning uchun o'qituvchi pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Bu borada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday degan: "Tarbiyachi-ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramad qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablariga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak". Bunday xususiyatga ega o'qituvchidan o'quv jarayoni samaradorligini oshiradigan va mo'ljallangan o'quv natijasiga erishishni ta'minlaydigan innovatsion texnologiyalardan foydalanish talab qilinadi. Ayniqsa, bu xildagi yondashuvlardan chet tilini o'qitishda muntazam qo'llab borish maqsadga muvofiq. Zamonaviy ta'limda o'rganuvchilar darslarni yaxshiroq ongli ravishda o'zlashtirishi va bir xillikdan qochish uchun individual, juftlik va guruh bo'lib shug'ullanish uchun turli metodlar mavjud. Hozirda chet tilini o'rganish jarayonida juft va jamoa bo'lib shug'ullanish uchun aqliy hujum, rolli o'yinlar, loyiha usuli, aql xaritasi, kase kabi metodlar qo'llaniladi. Til o'rganuvchilar individual tarzda shug'ullanish uchun klaster, Blum diagrammasi, inter-card singari o'qitish usullari darslarda keng qo'llaniladi. Tajribalarda aniqlanishicha, bu usullar nafaqat til o'rganishda balki har qanday yangi ma'lumotni qabul qilishda o'z natijalarini ko'rsatib kelmoqda. Misol sifatida "Aqliy hujum" dab ataluvchi metodni oladigan bo'lsak, uning maqsadi muammoni hal qilish uchun cheklangan vaqt ichida iloji boricha ko'proq g'oyalarni to'plashdir. Bu esa o'quvchilarni ijodkorlikka undaydi va o'z fikrlarini erkin ifodalash imkonin beradi. "Kase" metodi esa muayyan vaziyat misolida, muammoni jamoaviy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilishni o'rgatadi.

Zamonaviy texnologiyalar tobora rivojlanayotgan bir davrda online til o'rganuvchilar soni ham ortmoqda. Bu turdagi til ixlosmantlari uchun mobil ilovalar, online platformalar, multimediyali materiallar ko'plab qulayliklar yaratib bermoqda. Quyidagilar shular jumlasidandir:

Mobil ilovalar: Duolingo, Babbel

Duolingo – xorijiy tillarni o'rganishga mo'ljallangan ilova bo'lib, u orqali so'z boyligi, grammatika va talaffuzni mashq qilish hamda ko'nikmalar doirasidagi

mashqlarni yozma tarzda bajarish orqali bilimni yanada mustahkamlash mumkin. Darslar soʻngida esa maxsus sertifikatlar taqdim etiladi.

Zoom – online darslar uchun moʻljallangan maxsus video platforma boʻlib, uzoq masofadagi oʻqituvchi va oʻquvchilarga interaktiv shaklda dars oʻtish imkonini beradi. Mazkur platforma asosan 2020-yildan boshlab (Covid-19 avj olgan mahalda) Oʻzbekistonda keng qoʻllanila boshlandi va hozirgacha taʼlim sohasida qoʻllaniladigan yetakchi platformalardan biri hisoblanadi.

Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR)

Tillarni real hayotga yaqinroq oʻrganish uchun VR va AR texnologiyalarini qoʻllash mumkin. Yaʼni, VR yordamida chet tilda virtual sayohat qilish yoki AR yordamida yangi soʻzlarni interaktiv tarzda oʻrganish mumkin.

Language exchange

Xorijiy tilni oʻrganish mihiyati boshqa odamlar bilan muloqotdan iborat. Suhbatlashish malakalarini takomillashtirish uchun esa, yaxshisi, shu tilda yoki bu tilni allaqachon oʻrganib boʻlgan kishilar bilam shugʻillangan maʼqul. Speak pall, Hello talk kabi dasturlar shu vazifalarni oʻz ichiga olgan boʻlib, ular orqali butun dunyodagi til oʻrganuvchilar bilan bevosita aloqa qilish imkonini beradi.

Gamifikatsiya oʻrganish platformalaridagi oʻyinlar yordamida til oʻrganish ham mumkin. Bu metod orqali til oʻrganish jarayoni koʻproq qiziqarli va ragʻbatlantiruvchi boʻladi.

Talaffuz va tinglash texnologiyalari

Chet tilini oʻrganishda talaffuz albatta katta ahamiyatga ega. Buning uchun esa seriallar va podcastlardan foydalanish mumkin. Bunda “Shadowing” usuli ancha samarali usul sanaladi.

Online kurslar:

Hozirda koʻplab platformalar orqali online dars berish va veb-seminarlar tashkil qilish imkoniyati mavjud. Bu orqali oʻqituvchida oʻzlashtirishi past boʻlgan oʻquvchilar bilan alohida shugʻullanish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalar orqali til oʻrgatish jarayonini osonlashtirish hamda qiziqarli qilish mumkin. Onine platformalar na ilovalar foydalanuvchilarga yutuqlarni qayd etish, yangi maqsadlar belgilash va oʻzgarishlarni koʻrish imkonini beradi. Bu esa oʻrganishga boʻlgan motivatsiyani oshiradi va jarayonni qizgʻin tusga olib kiradi. Axborot texnologiyalari koʻp variantli oʻrganish imkoniyatlarini taklif etadi- video darslar, interaktiv mashqlar , online kurslar hamda oʻyinlar orqali bir vaqtning oʻzida ham til oʻrganish ham madaniy hordiq olish imkoniyatini beradi. Bu yondashuvlar oʻrganish jarayonini xilma-xil boʻlishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tarbiya va taʼlimda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2010.
2. Avazboyev A.I., Ismadiyarov Y.U. Kasbiy pedagogika. – Toshkent: Cholpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2014.
3. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. . – Toshkent: Sharq. 1993. – 28 b.
4. Jalolov J. Chet tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent. 2012.

Muslima Husniddin qizi Nosiriddinova
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Tarjimonlik fakulteti, 1-bosqich talabasi
muslimanosiriddinova@gmail.com

TEKNOLOGIK INNOVATSIYALAR VA TARJIMONLIK: MUOMMOLAR, YECHIMLAR, IMKONIYATLAR, ISTIQBOLLAR

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarjima va texnologik innovatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlar, mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil etilgan. Mashinaviy tarjima va sun‘iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi tarjimonlarga yangi imkoniyatlar bilan bir vaqtning o‘zida muammolarni ham yuzaga keltirayotganini ko‘rsatadi. Tarjimonlik sohasida inson tafakkuri va madaniy kontekstni hisobga olishning zarurligi ta’kidlanadi, chunki mashinaviy tarjima tizimlari faqat so‘z va grammatikani tarjima qilishi mumkin, ammo madaniy va ijtimoiy jihatlarni hisobga olishda cheklovlarga ega. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston va chet el olimlarining fikrlariga asoslanib, sun‘iy intellekt va mashinaviy tarjima tizimlarining cheklovlari va imkoniyatlari, shuningdek, tarjimonlar uchun yangi texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan. Maqola, shuningdek, tarjimon tayyorlashda innovatsion yondashuvlar va texnologik vositalardan foydalanishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Talabalar va yosh mutaxassislar uchun yangi texnologiyalarni o‘rganish va ulardan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan, ularning kasbiy rivojlanishiga yordam beradigan zamonaviy yondashuvlar haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: tarjima, texnologik innovatsiyalar, mashinaviy tarjima, sun‘iy intellekt, madaniy kontekst, tarjimon tayyorlash, imkoniyatlar, muammolar, yechimlar, yosh mutaxassislar, talabalar.

TECHNOLOGICAL INNOVATIONS AND TRANSLATION: PROBLEMS, SOLUTIONS, POSSIBILITIES, PROSPECTS

ABSTRACT

This article analyzes the relationship between translation and technological innovations, the existing problems, and their solutions. The development of machine translation and artificial intelligence technologies creates new opportunities for translators, but at the same time, it also introduces challenges. The necessity of considering human cognition and cultural context is emphasized, as machine translation systems can only translate words and grammar but are limited when it comes to cultural and social aspects. The article, based on the opinions of both Uzbek and foreign scholars, discusses the limitations and possibilities of artificial intelligence and machine translation systems, as well as ways to effectively utilize new technologies for translators. It also highlights the importance of innovative

approaches in translator training and the use of technological tools. Furthermore, the article presents methods for students and young specialists to learn and effectively use new technologies, providing modern approaches that contribute to their professional development.

Keywords: translation, technological innovations, machine translation, artificial intelligence, cultural context, translator training, opportunities, problems, solutions, young specialists, students.

ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ИННОВАЦИИ И ПЕРЕВОД: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ, ВОЗМОЖНОСТИ, ПЕРСПЕКТИВЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются взаимосвязь между переводом и технологическими инновациями, существующие проблемы и их решения. Развитие технологий машинного перевода и искусственного интеллекта открывает новые возможности для переводчиков, но в то же время вызывает и проблемы. Подчеркивается необходимость учета человеческого мышления и культурного контекста, так как системы машинного перевода могут переводить только слова и грамматику, но ограничены в учете культурных и социальных аспектов. В статье, основываясь на мнениях узбекских и зарубежных ученых, рассматриваются ограничения и возможности систем искусственного интеллекта и машинного перевода, а также способы эффективного использования новых технологий для переводчиков. Также подчеркивается важность инновационных подходов в подготовке переводчиков и использовании технологических инструментов. В статье также представлены методы обучения и эффективного использования новых технологий для студентов и молодых специалистов, а также современные подходы, способствующие их профессиональному развитию.

Ключевые слова: перевод, технологические инновации, машинный перевод, искусственный интеллект, культурный контекст, подготовка переводчиков, возможности, проблемы, решения, молодые специалисты, студенты.

Kirish

Tarjima sohasida yuz berayotgan texnologik innovatsiyalar nafaqat tarjimonlarning ishini osonlashtirish, balki yangi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Tarjimonlar uchun sun'iy intellekt va mashinaviy tarjima tizimlarining rivojlanishi albatta katta qadamdir, ammo bu texnologiyalar turli madaniyatlar o'rtasidagi o'ziga xos farqlarni va tilning chuqur ma'nolarini yetarlicha anglay olmaydi. Tarjimonlik faqatgina grammatik qoidalarni bilishdan iborat emas; bu – madaniy, tarixiy va milliy o'ziga xosliklarni tushunish, har bir tilning ruhini, iboralarini va an'anaviy ifodalarini to'g'ri tarjima qilishdir. Dunyoning har bir tili va madaniyati o'ziga xos qoidalar va iboralarga ega. Bularni tushunmasdan, tarjima qilishning muvaffaqiyatli bo'lishi qiyin. Mashinaviy tarjima tizimlari, masalan, ingliz tilidagi iboralarni o'zbek tiliga tarjima qilishda nafaqat

grammatika va sintaksisni hisobga olishadi, balki iboralar va tushunchalar orasidagi madaniy farqlarni aniqlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu, asosan, sun'iy intellektning madaniy sezgisi etishmasligi bilan bog'liq. Tarjima jarayonida faqat matnni o'zgartirish emas, balki uning chuqur ma'no qatlamlarini, milliy va madaniy xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. Bunga texnologiyalar yordamida erishish mumkin bo'lsa-da, ular hali to'liq madaniyatni tushunib, tarjima jarayonida uning mohiyatini aks ettira olmaydi. Ushbu maqolada tarjimonlik sohasidagi asosiy muammolarni va texnologik innovatsiyalarni tahlil qilib, madaniy va lingvistik farqlarni hisobga olishda qanday yechimlar ishlab chiqilishi mumkinligi haqida so'z yuritimiz.

Tarjima sohasidagi texnologik innovatsiyalar zamonaviy tarjima amaliyotini qayta shakllantirmoqda. Mashinaviy tarjima tizimlari, masalan, Google Translate yoki DeepL, so'z va iboralarning tez va samarali tarjimasini ta'minlaydi. Biroq, bunday tizimlar madaniy, ijtimoiy va kontekstual jihatlarni hisobga olishda cheklangan. Shuning uchun, mashinaviy tarjima tizimlari, ayniqsa, so'zma-so'z tarjima qilishda samarali bo'lsa-da, o'zgaruvchan ijtimoiy va madaniy ma'lumotlarni to'g'ri ifodalashda ko'pincha xatoliklar yuzaga keladi. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari mashinaviy tarjimaning rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Biroq, SI tizimlari ham, ayniqsa, inson tafakkuri, his-tuyg'ular va madaniy yondashuvlarni hisobga olishda cheklangan. Bu esa tarjimonlarning va tarjima qilish jarayonining imkoniyatlari va yutuqlari uchun yangi yo'llarni ochmoqda.

Mashinaviy tarjima tizimlari faqat so'z va grammatikani tarjima qiladi, lekin ular madaniy kontekstni hisobga olishda kamchiliklarga ega. Bunday tizimlar odatda har bir tilning o'ziga xos madaniy jihatlarni va ularning ma'nolarini e'tiborga olmaydi.

Yechim: Tarjimonlarning bu muammoni hal qilishda madaniy bilimlarni hisobga olishlari zarur. Bu, o'z navbatida, tarjimonlarga tizimlar tomonidan ishlab chiqilgan tarjimalarning madaniy jihatlarni ko'rsatishga yordam beradi.

Tarjimonlar ba'zan yangi texnologiyalarga to'liq moslashishda qiynalishadi, chunki mashinaviy tarjima tizimlarining samaradorligi cheklangan. O'zaro ma'lumot almashishning va tizimlardan foydalanishning optimal yo'llari aniqlanishi zarur.

Tarjimonlarga yangi texnologiyalarni o'rganish va ular bilan ishlash uchun mos va samarali treninglar taklif etilishi lozim. Bundan tashqari, mashinaviy tarjima tizimlari va sun'iy intellektni qo'llashda madaniy va ijtimoiy jihatlarni hisobga olish zarur.

Texnologik innovatsiyalar, ayniqsa, yosh mutaxassislar va talabalar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Yosh tarjimonlar yangi texnologiyalarni o'rganib, ularni tarjima jarayonida samarali qo'llashlari mumkin. Shuningdek, tarjimonlar tayyorlashda virtual ta'lim vositalarining ahamiyati ortmoqda, bu esa yangi texnologiyalarni o'rganish va ulardan foydalanishni osonlashtiradi.

Tarjima jarayonida tilning lug'aviy va grammatik strukturasi bilan birga, o'zbek, arab, ingliz, rus va boshqa tillardagi iboralar va ularning madaniy manbalari ham katta rol o'ynaydi. Har bir til va madaniyat o'zining maxsus iboralari, an'anaviy ifodalari, she'riy va adabiy vositalari bilan ajralib turadi. Bu farqlarni tushunmasdan

va chuqur o'rganmasdan tarjima qilish, qaysi tilda bo'lishidan qat'i nazar, juda murakkab va zaif natijalarga olib keladi. Madaniyatga bog'liq iboralar va xalq maqollarining tarjimasi mashinaviy tarjima tizimlari uchun ayniqsa qiyinchilik tug'diradi. Sun'iy intellektning asosiy vazifalaridan biri tilning grammatik va sintaktik strukturasi tushunish bo'lsa-da, madaniyatga xos, xalq an'alariga asoslangan iboralarni va turli xil she'riy shakllarni to'g'ri tarjima qilishda tizimlar doimiy ravishda zaiflik ko'rsatmoqda. Masalan, ingliz tilidagi "it's raining cats and dogs" (yomg'ir yog'ayotgan) iborasi biron bir mantiqiy tarjimaga ega bo'lmasligi mumkin. Bu ibora o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa, hech qanday ma'no anglatmaydi, chunki bu iboraning ma'nosi faqat ingliz tilida mavjud.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt va mashinaviy tarjima tizimlari uchun madaniy o'ziga xosliklarni anglash va tarjimaga kiritish qiyin, chunki bu tizimlar ma'lum bir madaniyatga oid tushunchalar va qadriyatlarni tushunishdan yiroq. O'zbek tilidagi "Alhamdulillah" iborasi, masalan, arab tilidan olingan bo'lib, har doim ijobiy ma'no tashiydi. Biroq, mashinaviy tarjima tizimi uning ma'nosini hamisha to'liq anglab yetmaydi. Ingliz tilidagi tarjima "Praise be to God" bo'lsa ham, bu ifoda diniy, madaniy kontekstni tushunmasdan, noaniq bo'lishi mumkin. Did, farosat va madaniyat kabi tushunchalar tarjimonning intellektual salohiyatining eng asosiy omillari hisoblanadi. Bularni hisobga olmasdan tarjima qilish mumkin bo'lgan noaniqliklarni va xatoliklarni olib kelishi muqarrar. Masalan, qadimgi o'zbek xalq maqollarini ingliz tiliga tarjima qilishda biror-bir mashinaviy tizim faqat grammatik jihatdan to'g'ri tarjima qilish mumkin, ammo uning chuqur ma'nosi, mazmuni va konteksti yo'qoladi. "O'tgan kuningni unut, kelajagingni unutmang" (ya'ni, o'z hayotingizni yangi imkoniyatlar bilan tiklash) kabi maqollarni ingliz tiliga "Forget the past, don't forget the future" tarzida tarjima qilish, asli mazmuni aks ettirmaydi.

Bundan kelib chiqadiki, sun'iy intellekt va mashinaviy tarjima kabi texnologiyalar faqatgina matnni grammatik va sintaktik jihatdan tarjima qilish bilan chegaralanadi, lekin ularning madaniy kontekstdagi va an'anaviy ma'nolardagi ifodalarga to'liq yondoshuvi hali mavjud emas. Bu masalani hal qilish uchun tarjimonlarning kasbiy tajribasi, chuqur madaniyatga bo'lgan bilimlari va farosatlari zarur.

Muammolarni bartaraf etish yo'llari: Madaniyatga oid muammolarni bartaraf etish uchun mashinaviy tarjima tizimlarining tahliliy imkoniyatlarini oshirish va ularni madaniyatshunoslik, tilshunoslik bilan bog'lash kerak. Birinchi navbatda, sun'iy intellekt yordamida tarqatilgan ma'lumotlar va tarjimalar, tilning lug'aviy va madaniy boyliklarini hisobga olib, doimiy o'rganish jarayoniga qo'shilishi kerak. Yangi innovatsion tizimlar ishlab chiqilganda, tarjimonlarga o'zining madaniyatini to'g'ri aks ettirishda yordam berish uchun madaniyatshunoslikka alohida e'tibor berish zarur. Shuningdek, intellektual treninglar, madaniyatshunoslik bo'yicha kurslar va tarjimonlar uchun maxsus metodologik qo'llanmalar ishlab chiqilishi kerak. Bular yosh tarjimonlarga nafaqat texnologiyalardan foydalanish, balki milliy iboralar va xalq madaniyatini tarjimaga kiritishda qanday yondashish kerakligini ham o'rgatadi. Mashinaviy tarjima

texnologiyalarini inson tajribasi va didi bilan birlashtirish, tarjimonlarning malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Tarjimaning nazariy asoslari: o‘zbek va chet ellik olimlar qarashlari tahlilida: Tarjimonlik san’ati nafaqat ikki til o‘rtasidagi lingvistik aloqani o‘rnatish, balki ikki xil madaniyat, tafakkur va dunyoqarash o‘rtasidagi ko‘priknı barpo etish san’atidir. Bu borada o‘zbek tarjimashunosligi sohasida ilmiy asosda izlanish olib borgan yyetuk mutaxassislardan biri – professor G‘aybulla Salomovdir. U tarjima nazariyasi, amaliyoti va til vositalarining o‘zaro aloqasi haqida chuqur ilmiy mulohazalar yuritgan. Jumladan, uning hammualliflikda yozgan “Tarjimon mahorati” (1979) asarida tarjima jarayonining murakkabligi, leksik-semantik nomuvofiqliklar, frazeologik birliklar va stilistik muvofiqlik masalalarini tahlil qilgan. Salomov o‘z tadqiqotlarida matn mazmunining saqlanishi va stilistik sadoqat masalalariga alohida e‘tibor qaratgan. Shuningdek, professor Najmiddin Komilov o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini tarjima qilishda nafaqat lingvistik, balki ma‘naviy-ma‘rifiy yondashuv zarurligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, tarjima jarayonida matnning ma‘nosini yetkazish bilan birga, madaniy kod va ruhiyatni saqlash muhim. Bu yondashuv ayniqsa tasavvufiy matnlarni tarjima qilishda o‘z ahamiyatini ko‘rsatadi. Najmiddin Komilov tarjimada ma‘naviy tafakkurga hurmat bilan yondashishni afzal ko‘radi va bu jihatdan u tarjimanni – muallif tafakkurining musaxxar ifodachisi sifatida ko‘radi.

Ushbu masalalar xalqaro miqyosda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Eugene Nida “dynamic equivalence” (dinamik ekvivalentlik) tamoyilini ilgari surib, tarjimada literal sadoqatdan ko‘ra mohiyatni yetkazishni muhim deb biladi. U Bibliya tarjimalarida matn ma‘nosining turg‘un emas, balki har xil madaniyatga mos shaklda ifodalanishini asoslab bergan. Yana bir mashhur tarjimashunos – Roman Jakobson, tarjimini til tizimining semiotik jihatlarida tahlil qilgan va tarjima faqat tilshunoslik emas, belgi tizimi va tafakkur tizimi o‘rtasidagi uzviy aloqa ekanligini isbotlagan. U tarjimini uch turga – ichki til doirasidagi (intralingual), tillararo (interlingual) va belgilararo (intersemiotic) tarjimaga ajratgan. Demak, o‘zbek va jahon tarjima olimlarining qarashlari bir nuqtada – ma‘no, madaniyat va tilning uyg‘unligida jam bo‘ladi. Shunday yondashuvlar zamirida tarjima nafaqat so‘z o‘g‘irish, balki bir tafakkur olamini boshqa tafakkur olamiga muvofiq va ta‘sirchan ko‘chira olish san’ati sifatida e‘tirof etiladi.

Xulosa

Tarjimonlik sohasidagi texnologik innovatsiyalar nafaqat yangi imkoniyatlarni, balki jiddiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Mashinaviy tarjima tizimlari faqat grammatika va sintaksis bilan ishlashda samarali bo‘lsa-da, madaniy farqlar va lingvistik xususiyatlarni hisobga olishda juda zaif. Sun‘iy intellektning bunday muammolarni hal qilishdagi roli cheklangan, chunki u did, farosat va madaniy tushunchalarni anglay olmaydi. Shu bois, tarjimonlar uchun texnologiyalardan samarali foydalanishning o‘zi kifoya qilmaydi, balki ularni madaniy va lingvistik bilimlar bilan boyitish, tizimlarni inson sezgisi bilan uyg‘unlashtirish zarur. Mashinaviy tarjima tizimlarining madaniy kontekstni e‘tiborga olmaydiganligi, shuningdek, yangi texnologiyalarni o‘rganish va ularni samarali qo‘llashning zaruriyati haqiqatda dolzarb masalalardir. Yosh mutaxassislar va talabalar uchun

texnologiyalarni o'rganish va ularni amaliyotga tadbiq etish katta ahamiyatga ega. Kelajakda, yangi texnologiyalarni to'g'ri qo'llash va madaniy jihatlarni hisobga olish jarayonida tarjimonlar uchun samarali o'quv dasturlari va treninglar zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bozorov D. (2021). Challenges of Machine Translation in the Context of Uzbek Language. Tashkent: Uzbek National University.
2. Jakobson, R. (1959). On Linguistic Aspects of Translation. Cambridge: Harvard University Press.
3. Khalilov R. (2022). Sun'iy intellekt va mashinaviy tarjima tizimlarining cheklovlari. Xalqaro tarjima va lingvistika jurnali, 7(1), 35-49.
4. Komilov N. (2005). O'zbek mumtoz adabiyoti va tarjimasini. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti.
5. Nida, E. (2001). Dynamic Equivalence in Translation. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
6. Salomov G. (1979). Tarjimon mahorati. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
7. Shukurov, M. (2019). Technological Innovations and Their Impact on the Translation Industry. International Journal of Linguistics and Translation, 28(4), 52-67.

Farangiz Mikoyil qizi Egamberdiyeva
O'zDJTU, talaba
farangizegamberdiyeva0608@gmail.com

ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING CHET TILINI O'QITISHDAGI O'RNI VA ULARDAN FOYDALANISH

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning samaradorligi va o'qitishning zamonaviy metodlari yoritildi. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarning chet tillarini o'qitish jarayonidagi ahamiyati va ulardan samarali foydalanish usullari yoritilgan. Unda raqamli ta'lim vositalari, multimedia texnologiyalari, interaktiv platformalar orqali xorijiy til kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ta'limni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni alohida ko'rsatib o'tiladi. Buning natijalari chet tillarini o'qitishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Chet tili, metod, o'yin, innovatsiya, yangilik.

Ma'lumki, chet tillarini (Ispan tili) o'rganish va o'rgatish barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatori Vatanimiz – O'zbekistonda ham zamon talabiga aylandi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rganishga

qiziqish oshdi va ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Bunga yaqqol dalil sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997-yil 9-avgust) qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda, muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazmunida barkamol shaxs va malakali kadrlar tayyorlash jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgan. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonining har bir bosqichini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'lim darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirish lozim. Jahon ilm-fanining yutuqlaridan bahramand bo'lish davr talabidir. Shu maqsadda chet tillarini o'rganishning yanada samarali yo'llarini izlash, turli xil zamonaviy o'qitish metodlarini yaratish olimlarimiz, izlanuvchi o'qituvchilarimiz va bilimli yoshlarimiz oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Hozirgi davrda ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish innovatsion texnologiya va zamonaviy metodlarni keltirib chiqardi. Innovatsiya- inglizcha "yangilik kiritish" (tarqatish) ma'nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo'lgan munosabati va boshqalarini o'rgangan. "Yangilik" – bu vosita, yangi metod, metodika ma'nolarini anglatadi. "Innovatsiya" – bu ta'lim, ma'lum bosqichlar bo'yicha rivojlanadigan jarayon. Chet tili – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, fransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelmoqda. Bu tillar ta'lim muassasalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Chet tili muallimi metodika fani yutuqlarini puxta egallash orqali o'quvchi, talabaning to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarini samarali o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan o'qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqishga va nazariyaning amalda ijodiy qo'llanilishiga bog'liqdir. Respublikamizda chet tilini o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumyevropa ramkali tavsiyanomalari(CEFR)ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umum ta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalari o'quvchi, talabalari uchun mos o'quv qo'llanmalari ishlab chiqildi. Ushbu talablarga mos o'quv xonalari stendlar va zamonaviy axborot kommunikativ texnologiyalar bilan jihozlandi. Chet tilini o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani asosiy to'rt aspektga (o'qish, yozish, tinglab tushinish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari – bu ta'lim jarayonida zamonaviy innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalanish. Shuningdek ta'lim jarayonidga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish nazarda tutilmoqda. Xususan, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud. Texnologik vositalardan foydalanish chet tilini o'rganishning har bir aspektida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushinish (listening) uchun albatta, kompyuter, player, CD disklar

yoki podcastlar eshitishda mobil telefonlarsiz bu ishning umuman iloji yo‘q. Tinglab tushinish til o‘rganishning asosiy qismlaridan biridir. Bunda o‘quvchi so‘zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so‘z boyligi va uning ma‘nolariga e‘tibor berishi talab qilinadi. Bu jarayonda esa innovatsion texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir.

Bu jarayonda:

- kompyuterlardan foydalanish jarayonida o‘quvchi chet tilidagi video roliklar, dialoglar, kino va multfilmlarni ham ko‘rish, ham eshitish imkoniyatiga ega;

- chet tilidagi radio eshittirishlar, podcastlar, televediniyadagi dasturlarni eshitish, ko‘rishi ham mumkin;

- an‘anaviy usul hisoblangan magnitafon, cassetalar va quloqchinlardan foydalanish;

- CD playerdan foydalanish orqali esa o‘quv jarayonini qiziqarli va yana samaraliroq qilish mumkin. Chet tilini o‘qitish metodi – chet tili o‘g‘atishning amaliy, umumta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishuvni ta‘minlovchi muallim va o‘quvchi faoliyatining majmuasi hisoblanadi. Metod atamasi “ta‘lim usullari yig‘indisi” va “ta‘limning yo‘nalishi” ma‘nolarida qo‘llaniladi. Masalan, chet tili o‘qitishning tarjima metod, to‘g‘ri metod, an‘anaviy metod, intensiv metod va boshqalari mavjud. “Metod” atamasi bilim, malaka, ko‘nikmani egallash, dunyoqarashni shakillantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo‘lidagi o‘qituvchi va talabaning ish usuli ma‘nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha son-sanoqsiz ta‘riflarga ega. Tarixan metodlar to‘rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga “tarjima”, “tog‘ri”, “qiyosiy”, “aralash” deb qabul qilingan. Metodlar tarixi atoqli metodist prof. I.V.Raxmonov tomonidan chuqur o‘rganilgan. Bugungi kunda maktablarda interfaol o‘yinlar orqali dars o‘tish an‘anaga aylanib bormoqda. Ma‘lumki, darsning turli xil o‘yinlar asosida o‘tilishi o‘quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko‘nikmalarini oshirish va kuchli bo‘lishlarini ta‘minlaydi. O‘yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o‘quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Har qanday o‘yin zamirida umumiy qabul qilingan ta‘lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O‘quv o‘yinlariga o‘quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O‘yinlar jarayonida o‘quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg‘ulotga qiziqibroq yondashadi va bermalol faoliyat ko‘rsatadi. Ta‘kidlash lozimki, o‘yin eng avallo, o‘qitishning bir usulidir. O‘quvchilar o‘yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g‘alaba qozonishga intiladilar, o‘qituvchi ular orqali o‘quvchiga ta‘lim-tarbiya ham beradi. O‘quvchi ispancha o‘yin o‘ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi. Biz bilamizki, hozirgi ta‘lim jarayonida o‘quvchi subyekt bo‘lishi lozim. Bunda ko‘proq interfaol metodlarga e‘tiborni qaratish ta‘lim samaradorligini oshiradi. Ispan tili darslariga qo‘yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. Bugungi kunda ispan tili o‘qituvchilari Ispaniya, Lotin Amerikasi pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

- “Muammoli vaziyat yechimi” (Solución creativa de problemas) bu usulni qo‘llash uchun hikoyaning boshlanishi o‘qib beriladi qanday yakun topishi o‘quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;
- “Quvnoq topishmoqlar” (Adivinanzas alegres) o‘quvchilarga topishmoqlar o‘rgatish Ispan tilini o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o‘zlariga notanish bo‘lgan so‘zlarni o‘rganadilar va o‘ylab, topishmoq javobini topadilar;
- “Tezkor javob” (Respuestas Rápidas) o‘tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;
- “Chigil yozdi” (“Ejercicios de calentamiento”) o‘quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o‘yinlardan foydalanish;
- “Pantomima” (pantomima) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo‘lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo‘ladi;
- “Hikoya zanjiri” (una historia en cadena) usuli o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishda yordam beradi;
- “Rolli o‘yinlar” (personajes de actuación) bu usul darsning barcha tiplarida qo‘llanilishi mumkin;
- Hunarga o‘rgatish uchun “Interprete”, “Traductor”, “Escritor”, “Poeta” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o‘quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;
- “Allomalar yig‘ini” (Reunión de pensadores) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so‘zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo‘lib tarbiyalanishiga yordam beradi;
- “Rasmlar so‘zlaganda” (Cuando las imágenes hablan) usuli ancha qulay bo‘lib, ingliz tilini o‘rgatishda, talaba, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;
- Kviz kartochkalari (tarjetas de prueba) o‘quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi.

Ko‘rib chiqqanimizdek, har bir innovatsion texnologiya o‘ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faol harakati ko‘zda tutiladi. Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari, nutqi ravojlanadi, tez va to‘g‘ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o‘quvchida bilimga ishtiyiq uyg‘otadi. O‘quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi. Bu esa o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol subyektlariga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bekmuratova U.B. Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent – 2012.
2. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. Ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan interfaol usullar (uslubiy qo‘llanma). – Navoiy, 2006.

3. Xoldorova M.S., Fayziyeva N.T., Rixsittilayeva F.X. Chet tilini o‘qitishda yordamchi vositalardan foydalanish. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

4. Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003.

5. Jalolov. J Chet tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent. “O‘qituvchi nashriyoti” 1996.

Gulsanam Xabibullo kizi Sobirova

O‘zDJTU, talaba

gulsanamsobirova@icloud.com

TALABALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI MASOFAVIY TA’LIM ORQALI RIVOJLANTIRISH

ANNOTATSIYA

Bu maqolada masofaviy ta'lim orqali talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha hamda xorijiy (ispan) tillarni zamonaviy multimedia vositalari orqali o‘qitishning samaradorligi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Bundan tashqari talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda masofaviy ta’limning imkoniyatlari, metodik yondashuvlari va samaradorligi tahlil qilinadi. Masofaviy ta’lim shakli talabalarning mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini, axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasini va eng asosiysi – o‘z fikrini yozma va og‘zaki shaklda aniq, mantiqiy ifoda eta olish qobiliyatini shakllantirishda muhim vosita sifatida baholanadi. Shuningdek, real tajriba asosida o‘quvchilar faoliyatining monitoringi, muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Unda asosan, ispan tilida o‘qishni o‘rgatishga to‘xtalib, undagi an'anaviy darslik va elektron darslikdagi farqlar ochib berilgan. Elektron darslikdagi qulayliklar haqida batafsil yoritilgan. Bundan maqsad ispan tilini o‘rganuvchi talabalarga ispan tilida o‘qishni o‘rgatishdagi qulay va oson yo‘llarini ko‘rsatishdir.

Kalit so‘zlar: elektron darslik, o‘qish, talaba, zamon, bilim, predlog, so‘z.

Mustaqil respublikamizning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni tobora o‘sib, xalqaro aloqalar mustahkamlanib borayotgan bir paytda yoshlarga xorijiy tillarni puxta o‘rgatish fan o‘qituvchilari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Xorijiy til o‘qitilishida o‘quvchi, talabalarning kommunikativ va muloqot dialogida erkin ishtirok eta olishi kabi ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadlar ustuvorlik qiladi. Talabalarni og‘zaki va yozma savodxonligini oshirish maqsadida qiziqarli o‘quv materiallari, muammoli vaziyat, qiziqarli mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Talabani faqat matnlar bilan ustma-ust band qilib qo‘yish ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Hozirgi vaqtda yoshlarimiz qanday kasbni egallashidan qat'iy nazar axborot-kommunikasiya texnologiyalarini puxta bilishi lozimligini anglab yetgan. Shu bois talabalarni ijodkorlikka undash maqsadida o‘qitish jarayonida ilg‘or pedogogik texnologiyalardan, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan oqilona va unumli foydalanish, mavjud elektron axborot resurslarini samarali qo‘llash talab etiladi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan va chet tilidan o'quv jarayonida samarali foydalanishga erishish uchun barcha oliy o'quv yurtlarida pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash talab etilmoqda. Professor-o'qituvchilar o'z ustida ishlab malakasini oshirmoqdalar. Qolaversa, shu soha mutasaddilari oliy o'quv yurtlari bilan o'z bilimlarini o'rtoqlashmoqdalar.

Chet tili va axborot texnologiyalarini bilish butun jahon axborot tizimiga ulanish, materiallar olish va ulardan dars jarayonida foydalanish imkonini beradi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar tufayli oliy ta'lim muassasalarida ham malakali, yyetuk kadrlar tayyorlash imkoniyatlari kengaymokka.

Sir emaski, bugungi kunda axborot texnologiyalari barcha sohaga kirib borgani kabi, ta'lim sohasida ham keng qo'llanilmoqda. Bugungi kunda darsliklarning yangi avlodi-elektron darsliklarni yaratish va ta'lim jarayonida qo'llash amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Elektron darsliklar odatiiy nashrlarga qaraganda bir qancha afzalliklarga ega. Birinchidan, ma'lumotlarni yangilash va tarqatish juda qulay. Ikkinchidan, katta hajmdagi ma'lumotlarlar orasidan kerakli ma'lumotlarni izlash juda qisqa vaqt oralig'ida amalga oshiriladi. Elektron darsliklar masofa bilmaydi. Dunyoning istalغان chekkasidan turib ma'lumotlar bilan tanishish mumkin. Bugungi kunda elektron darslik yaratish va tatbiiq etishda ularning bir necha turlari amaliyotda uchramoqda. Ularning eng ko'p tarqalgan turi bu veb sahifa ko'rinishidir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiiy sohadagi tanlagan rivojlanish yo'li ta'lim sohasini ham tubdan yangilash bo'yicha islohotlar o'tkazishni taqozo etdi. Bu islohotlarning qonuniiy asosini tashkil etuvchi qo'shaloq hujjatlar – "Ta'lim to'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliiy dasturi"da ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishni ta'minlash uchun yangi ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlari, darsliklar, zamonaviy didaktik ta'minot ishlab chiqildi hamda yangi turdagi ta'lim muassasalari tashkil etildi.

Barkamol shaxs va yyetuk mutaxassislarni tarbiyalashda "Kadrlar tayyorlash milliiy dastur"ini jahon miqyosida e'tirof etilishi ko'p jihatdan umumiiy o'rta ta'lim tizimining tubdan yangi asoslarda tashkil etilayotganligi bilan o'z me'yoriga erishilmoqda.

Bu borada esa, ko'p vazifalarni muvafaqqiyatli hal etilishi har tomonlama pedagogik mahoratli, komil insonlarni tarbiyalashga qaratilmoqda. Bunday insonlar o'z faoliyatida bevosita dars jarayonida innovation, motivation, axborot ham kompyuter texnologiyalarni dadillik bilan joriiy eta oladigan, yuqori kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchilarni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lmoqda.

Har tomonlama barkamol o'z sohasining bilimdoni, zamonaviy o'zgarishlarga tez moslasha oladigan kadrlargina Vatanimiz istiqbolini ta'minlashda faol qatnasha oladi. Shu sababdan ham uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish muhim pedagogik muammo hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishdan maqsad o'quvchilarning fanga bo'lgan barqaror qiziqishlarini kuchaytirish, ularning fan asoslarini keng va chuqur egallashlariga erishish orqali komil inson qilib tarbiyalashdan iborat.

Jumladan, fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalardan samarali foydalanish, uning mazmuni, strukturasi, o'qitish uslublarini uzluksiz takomillashtirib borish,

mazkur fanlardan elektron adabiyotlar yaratish ta'limni isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, bosh konseptual yo'nalish talabalarning tasavvurini rivojlantirish hamda texnikaviy fikrlash qobiliyatini ifodalashga o'rgatishdir, chunki muammoga bunday yondoshish o'z navbatida talabalarning tasavvurini o'stirishda, ularda ixtirochilik, kashfiyotchilik, rasionalizatorlik ijodkorlik va bunyodkorlik kabi xislatlarni rivojlantirishda va eng muhimi yoshlarni barkamol avlod etib tarbiyalashda xizmat qilishi shubhasiz.

Elektron darsliklardan samarali foydalanyotgan Respublika oliy o'quv yurtlari va ulardagi mutaxassislar ushbu elektron darsliklar haqida o'zlarining ijobiy fikrlarini qator ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishgan.

Ushbu elektron darsliklar ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda qo'shgan salmoqli hissasi, milliylik ruhida yozilganligi, yosh avlodni ijodkorlik bunyodkorlik kabi xislatlarini rivojlanishiga qaratilganligi bilan hozirgacha yaratilgan o'quv adabiyotlardan keskin farqi, ularning qator tanlovlarda sovrinli o'rinlarni egallab kelishiga sabab bo'lmoqda.

Muhimi ta'lim jarayoni eng maqbul yo'lni tanlashda an'anaviy usullarni takomillashtirish bilan birga yangi, zamonaviy fan va texnika yutuqlariga moslashgan usullarni ham ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bunday usullardan biriti-ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan o'qituvchining yordamchisi sifatida foydalanish usulidir. Zero, kompyuter zamonaviy texnika vositasi sifatida talabalarni nazariy bilim asoslari bilan qurollantirishga yordam beradi, o'quv materialini izchillik bilan faol o'zlashtirishga, egallangan nazariy bilimlarni amalda tatbiq qila olishga o'rgatadi, talabalar o'zlashtirish darajasini tez va ob'ektiv aniqlashda o'ta qulay vosita bo'lib xizmat qiladi.

Chunki chet tili o'qitishda axborot texnologiyalardan samarali foydalanish, uning mazmuni, strukturasi, o'qitish uslublarini uzluksiz takomillashtirib borish, chet tili o'qitishdan elektron darsliklar yaratish va ularni ta'limda isloh qilishning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi davrda metodikada o'qishni chet tilini o'qitish usuli, yo'li deb qaralmay, uni til materiallarini o'zlashtirishga yordam beruvchi, uni asosida nutqni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan material manbai, ma'lumot olish manbai deb qaralmoqda. Shu sababdan o'qiyotganda asosiy diqqat matn mazmuniga qaratiladi.

O'qish gapirish ko'nikmasini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. O'qilgan matnlarning mazmuni bo'yicha savol-javob mashqlarini bajarish, hikoya qilib berish, suhbat va muhokamalar qilishi ko'p mashqlarga asos bo'ladi. O'qish orqali gapirish uchun ma'lumot, material to'planadi. Ularni chet tilida gapirishga tayyorlaydi. Ovoz chiqarib o'qish esa to'g'ri talaffuzga o'rgatishda va yangi til materiallarini tushunishda muhim bosqich sanaladi. Bundan tashqari ovoz chiqarib o'qish ovoz chiqarmay o'qishning yetuk ko'nikmasini shakllantirishda ham muhim vosita rolini o'ynaydi.

Psixolog tadqiqotlarning guvohlik berishicha, o'qish paytida ko'rish-yozuv va nutq-harakat sezgilari o'rtasida bevosita aloqa paydo bo'ladi. Ularning o'zaro birga nutq faoliyatida ishtirok etishi o'qish paytida ma'lumot olishni ta'minlaydi.

Darhaqiqat, til o'z tabiatiga ko'ra nihoyatda murakkab hodisa bo'lib, uni o'rganishda turli metodlar qo'llaniladi. Fanning taraqqiyoti, unda yangidan-yangi tarmoqlarning vujudga kelishi tilni o'rganadigan metodlar doirasining kengayishini va takomillashib borishini taqozo qiladi. So'nggi yillarda fan va texnika rivojlanib borishi natijasida ilm-fan sohasida ham ulkan o'zgarishlarga erishilmoqda. Texnika rivojlanib borgani sari ta'lim sohalarida ham axborot texnologiyalaridan foydalanishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Asosan o'qishni o'rgatish jarayonida turli xil texnik vositalardan (multemidiyalar, audio-video vositalar, so'nggi rusumdagi kompyuterlar) unumli foydalanilmoqda. Shular qatorida masofaviy ta'lim, ya'ni elektron darsliklar yaratilmoqda va ilm-fan sohasiga tadbiiq etilmoqda.

Elektron darsliklarning qulaylik tomonlari ko'p. Elektron darsliklar yordamida o'qitishning an'anaviy ta'lim jarayonidan butunlay farq qilib, ko'pgina afzalliklarni o'z ichiga oladi.

An'anaviy dars jarayonida o'qituvchi muntazam ravishda talaba bilan matn ustida ish olib boradi. Noan'anaviy bo'lgan elektron darsliklardan foydalanish jarayoni tillarni o'qitish metodikasining eng qulay usullaridan biri bo'lib, ko'proq amaliy mashqlarni o'z ichiga oladi. Elektron darslik orqali talaba o'qituvchi yordamisiz mustaqil ravishda matnni o'qib-eshitish, tarjima qilish, tushunish, tahlil qilish va mustaxkamlash uchun berilgan mashqlarni bajarish uchun etarlicha vaqtga ega bo'ladi.

Til o'qitish jarayonida masofaviy ta'limning samarasi katta bo'lib, chet tilida o'qishni o'rgatish davomida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

Ananaviy darslikda o'qishni o'rgatish.

LÉXICO TEXTO

Se llama Ramón. Es español pero vive en Chile. Es médico. Trabaja en un hospital de Santiago. Tiene cincuenta años. Ahora va a España con su familia. Van de vacaciones. Van en avión. Está al lado de Ramón, su mujer. Es española también. Tiene cuarenta y cuatro años. Es profesora de español.

Tienen dos hijos. El menor se llama Carlos. Estudia en la facultad de historia. Es muy inteligente. El mayor se llama Pedro. Trabaja en la oficina.

Vocabulario

se llama – uning ismi, ego zovut vive – yashaydi, jiviyot
ahora – hozir, seychas pero – lekin, no
médico, m – shifokor, vrach avión, f – tayyora, samolyot
también - ham, toje profesor, m – o'qituvchi, uchitel
menor – kenja, mladshiy mayor – kattasi, starshiy
inteligente – aqlli, umniy actriz, m – artist, aktrisa
cerilla, f – gugurt, spichka oficina, f – korxonona, uchrejdienie
idioma, m – til, yazik vacación, f – ta'til, kanikuli

Notas

1. ir a – qayergadir bormoq, exat(kuda-libo)
2. ir de vacaciones – ta'tilga bormoq, exat na kanikuli
3. al lado de – yonida, ryadom
4. ¿Cómo estás/está? – qandaysan? Qalaysiz? Kak dela?
5. ¿Qué tal? – Ahvolingiz qalay? Kak vi?

6. Como siempre – odatdagidek, kak vseгда

EJERCICIOS LÉXICO – GRAMATICALES

1. Traduzca.

1. La hermana de Pedro lee los diarios “País” y “El mundo1”. ...

2. Complete las oraciones.

1. Lola.....en la ciudad de México....

4. Traduzca al español

a) 1. Karlosning oilasi katta. ...

Elektron darslik orqali o‘qishni o‘rgatish:

Start

[soundgood=Vocabulario-Ramon]

Conosca con las nuevas palabras del texto

"Ramon"

<div align=left> Vocabulario

<div align=left>

se llama – {uning ismi|ego zovut} vive – {yashaydi|jiviyot}

ahora - {hozir|seychas} pero – {lekin|no}

médico, m – {shifokor|vrach} avión, f – {tayyora|samolyot}

<div>

Notas

1. ir a – {qayergadir bormoq| exat(kuda-libo)}

2. ir de vacaciones – {ta’tilga bormoq| exat na kanikuli}

3. al lado de – {yonida|ryadom}

4. ¿Cómo estás/está? – {qandaysan? Qalaysiz?! Kak dela?}

<p>Aprenda el vocabulario!

Ejercicios

##Traduzca las oraciones

"Uning ismi nima?"

#[soundgood=Ispan_Muy bien.wav]

 ¿Cómo se llama?

#[soundwrong=Ispan_Falso.wav] ¿Cómo te llama?

¿Que se llama?

##<p>Traduzca

"korxona"

#[soundgood=Ispan_Muy bien.wav]

 oficina

#[soundwrong=Ispan_Falso.wav]

 escuela

idioma

##<p>Complete las oraciones.

 Lola [box=*vive;se llama;donde] en la ciudad de México [soundgood=Ispan_Muy bien.wav] [soundwrong=Ispan_Falso.wav]

##<p>Busca el antónimo de la palabra

"menor"

#[soundgood=Ispan_Muy bien.wav]

 mayor
medico[soundwrong=Ispan_Falso.wav]
vive

Title

Analiza las nuevas palabras

Start

 [soundgood=Ramon]

"Ramon"

Lea el texto, traduzca utilizando el
vocabulario.

<div align=left> Se llama Ramón. Es español pero vive en
Chile.

Es médico. Trabaja en un hospital de Santiago. Tiene cincuenta años. Ahora va
a España con su familia. Van de vacaciones. Van en avión. Está al lado de Ramón,
su mujer. Es española también. Tiene cuarenta y cuatro años. Es profesora de
español.

Tienen dos hijos. El menor se llama Carlos. Estudia en la facultad de historia.
Es muy inteligente. El mayor se llama Pedro. Trabaja en la oficina.

¿De qué se trara el texto?

Title

Conteste a las preguntas segun el texto

Ejercicios

Contesta a las preguntas segun el texto

"¿Cómo se llama el mayor?"

#[soundgood=Ispan_Muy bien.wav]

 Pedro

#[soundwrong=Ispan_Falso.wav]

 Carlos

#

 No sé

Pravilo

#[pravilo={“hospital” bunday talaffuz etilmaydi; [[ospital]] – deb talaffuz
etiladi| “hospital” tak ne proiznositsya. A proiznositsya kak- [[ospital]]

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish lozimki, yuqorida ko'rsatilgan amallar
metodik jihatdan talaba va o'qituvchi uchun ijobiy imkoniyatlar yaratadi. Bu hol
o'zbek tiliga mo'ljallangan elektron darslikda faqat o'zbek tilidagi matn, rus tiliga
mo'ljallangan elektron darslikning versiyasida rus tilidagi matn namoyish etiladi.

Biz o'qishni o'rgatishda yuqorida aytilgan fikr, mulohazalarni hisobga olib,
metodikani samarali qo'llasak chet tili va uning talaffuzini o'rgatishda uning
foydasi, ahamiyati samarali bo'ladi. Oliy o'quv yurtlarida chet tilini o'qitish
jarayonini texnik vositalar yordamida tashkil qilishimiz zarur. Uni to'g'ri tashkil qila
bilish oldimizga qo'yilgan maqsad, vazifani hal qilishda yordam beradi.

Ta'kidlab o'tishimiz joizki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida
yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi
yoshlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'lik.

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o‘rgatishda elektron darsliklarning o‘quv jarayoniga kiritilishi ilm-fan sohasida dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://president.uz/uz> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
2. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Editorial, 2009, 44-46-betlar.
3. Oltiev T.J. Ispan tili amaliy grammatikasi. – Toshkent: Editorial, 2007, 32-38-betlar.
4. Виноградов В.С. Грамматика испанского языка. – Москва: “Высшая школа”, 2000, 80-83-стр.

IV SHO‘BA. OILA FAROVONLIGINI TA‘MINLASHDA FUQAROLIK INSTITUTLARI FAOLIYATI TAHLILI YUTUQ VA KAMCHILIKLAR

Nodira Odiljonovna Toliboyeva
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrası dotsenti, PhD

O‘ZBEKISTONDA OILA FAROVONLIGINI TA‘MINLASH: YUTUQ VA KAMCHILIKLAR TAHLILI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola O‘zbekistonda oila farovonligini ta‘minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda fuqarolik institutlarining oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy barqarorlik va demografik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashdagi yutuqlari va mavjud kamchiliklari o‘rganiladi. Maqola davlat, nodavlat tashkilotlar va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikning hozirgi holati, qonunchilik asoslari va ilmiy tadqiqotlarning amaliyotga tatbiq etilishi masalalarini ko‘rib chiqadi. Tadqiqot natijalari oila institutini mustahkamlash bo‘yicha islohotlarning muvaffaqiyatlari va tizimli muammolarni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatadi. Xulosa qismida oila farovonligini oshirish uchun fuqarolik institutlarining faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: oila farovonligi, fuqarolik jamiyati institutlari, ijtimoiy barqarorlik, demografik rivojlanish, nodavlat tashkilotlar, qonunchilik asoslari, ilmiy tadqiqotlar.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЛАГОПОЛУЧИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: АНАЛИЗ УСПЕХОВ И НЕДОСТАТКОВ

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена анализу деятельности институтов гражданского общества в обеспечении благополучия семьи в Узбекистане. В исследовании рассматриваются достижения и недостатки институтов гражданского общества в поддержке семейных ценностей, социальной стабильности и демографического развития. В статье анализируется текущее состояние сотрудничества между государством, неправительственными организациями и частным сектором, законодательные основы и внедрение результатов научных исследований в практику. Результаты исследования показывают успехи реформ по укреплению института семьи и пути устранения системных проблем. В заключении предлагаются рекомендации по совершенствованию деятельности институтов гражданского общества для повышения благополучия семьи.

Ключевые слова: благополучие семьи, институты гражданского общества, социальная стабильность, демографическое развитие,

неправительственные организации, законодательные основы, научные исследования.

ENSURING FAMILY WELL-BEING IN UZBEKISTAN: ANALYSIS OF SUCCESSES AND DISADVANTAGES

ABSTRACT

This article is dedicated to the analysis of the role of civil society institutions in ensuring family well-being in Uzbekistan. The study examines the achievements and shortcomings of civil society institutions in supporting family values, social stability, and demographic development. The article reviews the current state of cooperation between the state, non-governmental organizations, and the private sector, as well as legislative frameworks and the application of research findings in practice. The research results highlight the successes of reforms aimed at strengthening the family institution and propose solutions to address systemic challenges. The conclusion provides recommendations for improving the activities of civil society institutions to enhance family well-being.

Keywords: family well-being, civil society institutions, social stability, demographic development, non-governmental organizations, legislative frameworks, scientific research.

Mavzuning dolzarbligi

Среди общественных институтов центральное место занимает махалля - община как сельская, так и городская. Можно сказать, что с общины начинается само гражданское общество в Узбекистане. Здесь закладываются представления о правах личности и поведении свободного человека наряду с личной ответственностью за происходящее. Община выработала традиции почитания глав семей, родов, кварталов, селений, городов, трудовых профессий, возрождения национального ремесленничества, потенциал которых при правильном подходе и рациональном использовании может сыграть одну из ключевых ролей в достижении гендерного равенства, в саморегулировании и саморазвитии общества.

Надо помнить, что процесс активизации традиционных общественных институтов в конструктивном русле требует определенного времени и самое главное – открытости и доверия.

Более чем 30 лет независимого развития Узбекистана институты гражданского общества в нашей стране превратились в эффективную самоуправляемую силу, которые самостоятельно выносят и решают самые актуальные проблемы общества и государства, ведут равный диалог с государственными органами, осуществляют общественный контроль. Институты гражданского общества Узбекистана сейчас превратились в прогрессивную движущую силу, которая обеспечивает дальнейшую демократизацию государства, ограничивает власть. Поэтому, в рамках

проводимых конституционных реформ весьма актуальным является появление в проекте Конституции Республики Узбекистан в новой редакции норм, посвященных институтам гражданского общества, общественному контролю за формированием и исполнением Государственного бюджета, Национальным институтам по правам человека, конституционным гарантиям по невмешательству государства в деятельность институтов гражданского общества и многое другое.

Как известно, в Узбекистане уделяется большое внимание благополучию семьи. Реализуются государственные программы мер по обеспечению реализации интересов семьи. Узбекистан присоединился к целям устойчивого развития ООН, в которых 12 из 17 целей являются гендерно-чувствительными. Таким образом, можно констатировать, что задача обеспечения государственных гарантий равных прав и равных возможностей мужчин и женщин в полной мере соответствует стратегическим целям государства и целям устойчивого развития ООН.

Повышение роли и статуса женщин в обществе стало важным общественно-политическим фактом в жизни Узбекистана за годы независимости и фактором развития нашей страны.

Список литературы:

1. Государственный Комитет Республики Узбекистан по статистике <https://gender.stat.uz/ru/obshchie-svedeniya>;
2. Тусунов С., Кабулов Э. и др. Истории Сурхандарьи. Ташкент: Шарк, 2004. 606 с.;
3. Гуломова Д. “Женщины Узбекистана в годы независимости”. Ташкент, 2000. С. 136.;
4. Народное слово. 2018 г. 8 марта. Праздничное поздравление Ш.Мирзиёева в связи с международным женским днём 8 марта;
5. Гендерный аспект: участие женщин Узбекистана в политической жизни и избирательных процессах (yuz.uz);
6. Всеобщая декларация прав человека. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml;
7. Конвенция о политических правах женщины. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/women_politrights.shtml;
8. Международный пакт о гражданских и политических правах. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml;
9. Конвенция о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/cedaw.shtml;
10. Пекинская декларация и платформа действий. <https://www.un.org/womenwatch/daw/beijing/pdf/BDPfA%20R.pdf>.

Munavvara Elyorjon qizi Adhamjonova
O‘zDJTU, Ingliz filologiyasi fakulteti
1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: N.O.Toliboyeva

O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGI MASALALARINING AYRIM JIHATLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada gender tenglikning ijtimoiy, ilmiy, huquqiy jihatlari tahlil qilinib, ijtimoiy munosabatlar, huquqiy-mehnat munosabatlari va boshqa jihatlarda ayollarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga doir mulohazalar keltirilgan. Ayollarning huquqlarini himoyalash, ayniqsa, gender tenglikka amal qilish jamiyat taraqqiyotining muhim asosi ekanligi o‘rganiladi. Mehnat munosabatlarida ham gender tenglikni ta‘minlash zamonaviy jamiyatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillaridan biri ekanligi yoritiladi. Shuningdek, gender tenglikka erishishda yuzaga keladigan muammolar, ularning sabab va oqibatlari, xalqaro va milliy tajriba asosida ushbu muammolarni bartaraf etish yo‘llari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar. Ayollar, gender, gender tenglik, gender yondashuv, iqtisodiy masala, mehnat munosabatlari, diskriminatsiya, siyosiy-ijtimoiy munosabatlar, xotin qizlar huquqlari.

SOME ASPECTS OF GENDER EQUALITY PROBLEMS IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

The article analyzes the social, scientific and legal aspects of gender equality, and also provides considerations on state support for women in social, legal and labor relations and other aspects. It is studied that protecting women's rights, especially adhering to gender equality, is an important basis for the development of society. It highlights that ensuring gender equality in labor relations is one of the main socio-economic principles of modern society. It also discusses the problems that arise in achieving gender equality, their causes and consequences, and ways to overcome these problems based on international and national experience.

Keywords: Women, gender, gender equality, gender approach, labor relations, discrimination, political and social relations, Women's rights.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ПРОБЛЕМ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются социальные, научные и правовые аспекты гендерного равенства, а также приводятся соображения о государственной поддержке женщин в социальных, правовых и трудовых отношениях и других аспектах. Исследовано, что защита прав женщин, особенно соблюдение гендерного равенства, является важной основой развития общества. Подчеркивается, что обеспечение гендерного равенства в трудовых отношениях является одним из основных социально-экономических

принципов современного общества. Также будут обсуждены проблемы, возникающие в достижении гендерного равенства, их причины и последствия, пути преодоления этих проблем на основе международного и национального опыта.

Ключевые слова. Женщины, гендер, гендерное равенство, гендерный подход, трудовые отношения, дискриминация, политические и социальные отношения, права женщин и девочек.

Kirish

Bugungi kunda gender tengligi zamonaviy jamiyatning bir qismi va uning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanmoqda. Ayollar va erkaklar o'rtasida teng imkoniyatlar yaratish nafaqat ayol huquqlarining tamoyili, balki ijtimoiy va madaniy sohalarida muvaffaqiyatlarga erishishning kaliti bo'la oladi. Ammo bu masala hamon dunyo miqyosida muhim muammo sifatida o'rganilib, hal etilishi zarur bo'lgan masalalar qatoridan o'rin olmoqda. Tarixan yondashsak, gender tengligi masalasi jamiyatlarda turli shakllarda yuzaga chiqqan. Ayrim madaniyatlarda ayollarning ta'lim olish yoki kasb tanlash imkoniyatlari cheklangan bo'lsa, boshqa jamiyatlarda ular rahbarlik lavozimlariga chiqish imkoniyatidan mahrum qilingan. Shu bois, gender tengligiga erishish uchun nafaqat qonunchilik, balki jamiyat ongini o'zgartirish ham talab etiladi.

Asosiy qism

Gender tengligi nafaqat huquqiy yoki ijtimoiy masala, balki iqtisodiy masalaga ham aylanmoqda. Xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra, ayollar va erkaklar o'rtasidagi tengsizlikning saqlanib qolishi va shunday davom etishi iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi. Ayollarni mehnat bozorida faol ishtirok etishga ko'maklashish va ularga rahbarlik lavozimlarida teng imkoniyatlar yaratish jamiyatning har bir a'zosiga foyda keltiradi. Ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash, tadbirkorlik va texnologiya kabi sohalarida gender tengligini ta'minlash jamiyat rivojining yangi bosqichlarini ochib beradi. Ammo gender tafovutlar hali ham global miqyosda dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ayollar va erkaklar o'rtasidagi ish haqi farqlari bu muammoning eng yaqqol aksi bo'la oladi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, ayollar erkaklarga nisbatan o'rtacha 20% kam maosh oladi. Bu nafaqat iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradi, balki ijtimoiy adolat tamoyillariga ham zid. Shu bilan birga, ayollar yuqori lavozimlarga ko'tarilishda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Rahbarlik lavozimlaridagi ayollar ulushi past bo'lib, bu mehnat bozoridagi gender tengsizlikning yana bir ko'rinishi hisoblanadi. Bundan tashqari, gender tenglikni ta'minlash bo'yicha xalqaro darajada qabul qilingan konvensiyalar mavjud bo'lsa-da, ularni milliy qonunchilikka to'liq integratsiya qilishdagi zaiflik bu muammoni yanada chuqurlashtiradi. Huquqiy ko'nikmalarning yetarlicha samarali emasligi gender tenglikni amalda qo'llashga to'sqinlik qilmoqda. Mutaxassislar tomonidan ayollar o'rtasidagi iqtisodiy muammoni ilmiy jihatdan tahlil etilganda, ularni "yopishqoq pol" (sticky floor), ya'ni ayollarning past daromadli va o'sish imkoniyatlari cheklangan lavozimlarda "qotib qolishi"ni ifodalanganini ko'rish mumkin.

Dunyo bo‘ylab gender tenglikni ta‘minlash bo‘yicha xalqaro darajada qabul qilingan konvensiyalar mavjud bo‘lsa-da, ularni milliy qonunchilikka to‘liq integratsiya qilishdagi zaiflik bu muammoni yanada chuqurlashtiradi. Huquqiy ko‘nikmalarning yetarlicha samarali emasligi gender tenglikni amalda qo‘llashga to‘sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, genderga asoslangan diskriminatsiya hali ham keng tarqalgan muammo bo‘lib qolmoqda. Mehnat bozorida erkaklar va ayollar o‘rtasida teng imkoniyatlarning yetarlicha ta‘minlanmagani, jumladan, ish haqi farqlari, lavozimga ko‘tarilishdagi qiyinchiliklar va mehnat sharoitlaridagi tengsizlik kabi masalalar dolzarbdir. Bu o‘rinda mehnat munosabatlaridagi gender tenglikni ta‘minlash yo‘lida mavjud muammolarni bartaraf etish uchun qator strategik yondashuvlarni amalga oshirish zarur.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ham ayollarning boshqaruv organlariga tayinlanishiga bo‘lgan e‘tiborning o‘sishi sotsial tenglik muvozanatini me‘yorga keltirmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining 13-moddasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlash masalalari bo‘yicha tadbirkorlik subyektlarining, shuningdek, fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarning va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarinig vakillari ishtirokida maslahat kengashlarini tuzish mumkinligi belgilangan. Mazkur normaga asoslanib, barcha oliy ta‘lim muassasalarida tuzilgan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahat kengashi – gender tenglikni ta‘minlashning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Quyidagi ko‘rsatgichlar orqali yurtimizda ham islohotlar amalga oshirilayotganligini yaqqol namoyon bo‘lyapti:

1. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi a‘zolarining 49 foizini, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi a‘zolarining 54 foizini, O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va O‘zbekiston Ekologik partiya a‘zolarining 41 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi.

2. 2019-yildan boshlab aholining ish bilan ta‘minlanishi va yangi ish o‘rinlari yaratilishi davlat buyurtmasi asosida amalga oshirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. O‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarga vaqtincha mehnat guvohnomalarini berish va ularning ish stajini qayd etish tartibi joriy etildi. Natijada norasmiy sektorda band bo‘lgan xotin qizlarning ulushi 27 foizga yetdi.

Xalqaro miqyosda esa Birlashgan Millatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar gender tengligini ta‘minlash va ayollar huquqlarini kafolatlash bo‘yicha turli bitimlar va deklaratsiyalarni qabul qilganlar. Ushbu hujjatlar davlatlarning ayollar huquqlarini himoya qilish va gender tengligini ta‘minlash bo‘yicha majburiyatlarni olishlarini ta‘minlashga qaratilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida so‘zlagan nutqida: “Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat‘iy davom ettiramiz”, – deb ta‘kidladilar. Umuman olganda, gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va

faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi.

Xulosa qilib aytanda, bugungi kunda ayollarning huquqlarini davlat tomonidan muhofaza qilinishi, ularning manfaatlarini ta'minlash va mehnat munosabatlarida ham tengligiga erishish maqsadida davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizda xotin-qizlarning o'rnini va maqomi ortib bormoqda. Xususan, ayollarning davlat boshqaruvidagi ishtirokining ortayotganligi, turli rahbarlik o'rinlarini egallashi, kasbiy malakasining oshib borayotganligi, oliy ta'limda ular soninig yuksalib borayotganligi buning yaqqol dalili hisoblanadi.

Shuningdek, gender tengligi – bu jamiyatda erkaklar va ayollarning teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashdir. Bu nafaqat adolat va inson huquqlarining muhim tamoyili, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning ham muhim omilidir. Gender tengligi mavjud bo'lgan jamiyatda har bir inson qobiliyat va mehnatiga yarasha baholanadi, an'anaviy gender stereotiplari esa yo'q qilinadi. Shu bois, tenglikni ta'minlash nafaqat davlat siyosati, balki har bir insonning ongida shakllanishi kerak bo'lgan qadriyatdir. Faqat shundagina jamiyatda adolatli va farovon hayotni barpo etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/4494849>

2. "O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: joriy holat, vazifalar va istiqbol" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. <https://lex.uz/docs/-5466673>. ILO (2021), The Future of Diversity in the Workplace. <https://www.ilo.org>

3. Toliboyeva N.O. O'zbekistonda gender tengligi masalasining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. International Scientific Journal Science And Innovation Special Issue: "Transformation Of Education: The Role Of Women In The Development Of Science", February 16, 2024 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10663511>.

4. Султонова А.Р. Гендерное равенство как фактор устойчивого развития мирового сообщества European science № 4 (46). -С.31

Sevinch Bektosh qizi Baxtiyorova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz filologiyasi fakulteti talabasi

E-mail: sevinchbektoshovna@gmail.com

Ilmiy rahbar: **N.O.Toliboyeva**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti, PhD

AYOL SIYMOSIDA MUKAMMALLIK

Ushbu maqolada mukammal ayol tushunchasiga umumiy yondashilib, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda, oilada, ma'naviyatda, ilm-fan sohasidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Tarbiya va uning jamiyatga ta'siri, rivojlangan dunyoda ayollarning oila va kasbdagi roli borasida aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: ayollar, mukammallik, tarbiya, fazilatlar, yot illatlar, din, jamiyat, kuch, oila, ona, kasb, ayol roli.

Kirish:

Insoniyat tarixida erishilgan aql bovar qilmas kashfiyotlar, ulkan ilm-fan yutuqlari sababchilari bo'lmish Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino kabi buyuk olim-u fuzalolar, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi dunyoga nomi ketgan, jahon hamjamiyati tomonidan asarlari yuksak baholangan buyuk mutafakkir shoirlar, Imom Buxoriy, Termiziy kabi o'z ilmining sultonlari, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur singari tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirgan buyuk davlat arboblari ham zaifa, mushtipar onalar dunyoga keltirishgan, saboq berib, ulg'aytirishgan. Hech shubhasiz, ularning yyetuk va komil inson darajasiga yetishlariga, ulkan zafarlar quchishlariga sababchi- ziyoli, ilm-ma'rifatli, zukko va sabrli onalaridir. O'ylashingiz mumkin, ayol bir zaif xilqat, jismonan nozik, og'ir mehnat qilib, ishlab farzandlarini boqa olmaydi, ularga moliyaviy jihatdan yordam bera olish imkoniyati cheklangan deb, biroq aksar erkaklardan farqli o'laroq, aytolamanki, ular cheksiz kuch-qudrat egasi, negaki, yyetuk tarbiyasi orqali, nafaqat jamiyat va davlat hayotini, balki insoniyat tarixini ham o'zgartira olishlari mumkin. Va, ular, shubhasiz, ma'rifatdan yiroq, ilmsiz, ma'naviy kambag'al emas, balki yyetuk, o'qimishli, tarbiyali, ziyrak, jasur va mard ayollardir. Endi tasavvur qiling: komillikka, mukammallikka, komilalikka erishgan onalarning farzandlari-chi? Ular qay darajada kamol topishi mumkin, ular sabab jamiyat hayotida qanday ijobiy o'zgarishlar, yuksalish, yaxshilanishlar paydo bo'ladi? Davlat-chi? U o'zining buyuk farzandlari bilan jahonga dong'i ketadi-ku. Albatta, yetish imkonsizdek tuyilgan cho'qqilarni zabt etuvchilar- mukammal ayollarning farzandlari bo'ladi. Hammaga ayonki, farzand hayotida onaning tutadigan o'rni beqiyos, shuningchun, tarbiya- bu ayollarning eng katta kuchidir.

Asosiy qism:

Yuqorida qayd etilgan buyuk shaxslar ortida ularni tabriyalab voyaga yetkazgan onalar turibdi. Bunga doir tarixiy misollar, dalillar ham talaygina. Misol uchun, manbalarda keltirilishicha, Amir Temurning onasi Takina Mohbegim ismli fozila, o'qimishli ayol bo'lib, "xotun" unvoniga ega edi, u farzandi Temurbekning buyuk inson bo'lib yetishuvida asosiy rol o'ynagan, uni har tomonlama yyetuk bo'lishiga yordamlashgan, ta'lim-tarbiyasini o'z joyiga qo'ygan, shu sababli, sohibqiron Amir Temur dunyo tan olgan komil inson bo'lib yetishgan. Keyinchalik, u onasi xotirasiga atab, Keshda mahobatli Oqsaroy majmuasini barpo ettirgan.

Bundan tashqari, Payg'ambarimiz alayhissalomning muborak hadislarini to'plagan, sahih va nosahihga ajratib, ulardan butun olam musulmonlarining bahramand bo'lishlariga sababchi bo'lgan, imomlarning imomidek sharafli unvonga sazovor inson, Al Buxoriy hazratlarining ham yyetuk shaxsga aylanib, o'z ilmining

eng ilg'ori bo'lib shakllanishida oqila onalarining o'g'itlari, ta'lim- tarbiyalari yetakchi rol o'ynagan. Rivoyat qilinishicha, muhaddisimiz yosh chog'larida ko'zlari ojizlanib qoladi, baxtga qarshi tabiblar ham bu dardga davo topa olishmaydi. Shunga qaramay, mushfiqa onalari, kunduz kunlari yosh Muhammadga Qur'oni karimdan saboq berib, tunlarini bedor duolar qilish bilan o'tkazardilar. Ammo, bir tong Muhammad ko'z nurlari qaytgani holda uyqudan uyg'onadi, negaki Allohga iltijolar qilgan mushtipar onaning duolari ijobat bo'lgan edi. Buni qarangi, bundan buyuk Payg'ambar Ibrohim alayhissalom onaning tushiga kirib boxabar etadi. Shundan so'ng u kishining xalq orasida asl ismlari unutilib, "Duosi mustajob ayol" nomi bilan mashhur bo'lib ketadilar.

Shuningdek, shoirlarimiz ijodida "Alisherning onasi" kabi jumlar uchraydi va bu buyuk zotning birinchi ma'naviy ustozlari bo'lmish onalariga borib taqaladi, albatta. Alisher Navoiy ona (ismlari noma'lum) larining duosi, xizmati, tarbiyasi, yaxshiligi tufayli abadiyatga daxldor zot bo'lib tarixda qolgan. Bu kabi tarixiy misollar talaygina, ularni keltiraversak, oxiriga yetolmaymiz.

"Bu dunyoda erkak kishi egalik qila oladigan eng qimmatli narsa- ayol qalbidir" degan edi mashhur amerikalik yozuvchi Josia Holland. Bu so'zlarning zamirida chuqur ifodali mazmun mujassam, negaki bu fikr bejiz aytilmagan, axir ayolning beg'ubor, benazir, mehr-muhabbatga to'la qalbi bor va u bu dunyoni o'chmas, yorug' nurdek yoritib, har tomonga sevgi, ma'naviyat, iffat urug'larini sohib turibdi. Avval a'yon bo'lganidek, ayollarning eng qudratli quroli bu- tarbiya, tarbiya orqali ayollar butun jamiyat hayotini tubdan o'zgartirish imkoniyatiga ega. Shunday ekan xalqimiz aytganidek, ko'nglida kiri yo'q, qalbi chirkin illatlardan, firklardan holi, pokiza, beg'ubor, hayo va iffat bilan limmo-lim qalb, egasining turish-turmishidagi, kishilar bilan bo'lgan ijobiy munosabatlarining mujassamligini bildiradi. Shuningdek, qalb boyligi yuksak bo'lgan ayollar jamiyatdagi ruhiy, ma'naviy va axloqiy muvozanatni saqlab turadi. Ular o'zlarining farzandlariga bergan ta'limlari orqaligina emas, balki xatti-harakatlari, turmush o'rtog'i, yaqinlari va do'stlari bilan samimiy munosabatlari asnosida jamiyatda namuna bo'lib, yosh avlodni ham bevosita, ham bilvosita tarbiyalaydi. Uning har so'zi, muomalasi, qilmishlari- bu real, hayotiy darsdir. U jamiyatda axloqiy me'yorlarni bunyod etadigan, insonlarning bir biriga mehrini oshiradigan, sabrli bo'lishga chaqiradigan ulug'vor kuchga aylanadi. Shu sababdan, ayol nafaqat o'z farzandlarining, balki butun bir jamiyatning tarbiyachisidir.

Oila jamiyatning bosh bo'lagi, bosh bog'ini- ota-ona, oila mustahkamligi, farzandlarning bir-biriga oqibati, ishonchi, diyonatli bo'lishi bevosita ularga, ayniqsa, onalarga bog'liq. Ayollarning sabri, chidami, kechira olish qobiliyati, tinch muhitni saqlashga urinishi bilan oilada barqaroq va o'zgarmas kayfiyat barpo etiladi. Bu bo'lsa, farzandlarning emotsional-psixologik holatiga, tarbiyasiga ijobiy va iliq ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, axloqi barkamol, iffati oliy, firklari teran, qarashlari iboli, kiyinishidan yuksak hayosi barq urib turadigan, xushmuomala, shirinsuhan ayollar farzandlariga va turmush o'rtog'iga pozitiv ta'sir etadi va oila unga har jihatdan moslashadi.

Shuningdek, diniy savodxonligi yuqori, milliy an'ana va qadriyatlardan xabardor onalar, shariatga muvofiq hayot tarzi bilan ham ibrat bo'la oladi. Diniy

muhitda ulg'aygan bolalarda esa ezgu fazilatlar shakllanadi, misol uchun, ular axloq-odobli, sabr-toqatli, sadoqatli, shukrona keltiradigan bo'lib voyaga yetadi, oq-u qoraning, halol-u haromni farqlay oladigan yyetuk shaxs bo'lishadi. Shu bilan birga ularda kattalarni izzat-hurmat qilish, ularga itoatli bo'lish, begonalarga ham yordam berish kabi ezgu sifatlar shakllanadi. Gunoh va masiyatlardan cheklanadigan, faqar savob ishlar qilishga urinadigan avlod yetishib chiqadi. Va, albatta, ayollar o'z his va kechinmalarini nazorat qila olishi va har jiddiy, stressli vaziyatlarda ham og'ir-vazmlik bilan o'zini tuta bilishi oila ruhiyatidagi xotirjamlikni saqlaydi va o'zaro hurmat, ehtirom va mehr-oqibatni oshiradi. Shu singari fazilatlarga ega komila ayollar haqida azim tarix ham bizni xabardor etadi.

O'n to'qqizinchi asrning birinchi yarmida ijod qilgan, mashhur zullisonayn shoira hisoblanmish Nodira (asl ismi Mohlaroyim) Qo'qon xoni Umarxonning suyakli rafiqasi bo'lib, butun umri xon saroyida kechgan. Bu uning ijod bilan muntazam va unumli shug'ullanishi, o'zidan oldingi turkiy va forsiy shoirlar asarlarini qunt bilan o'rganishi, ularning an'nalarini izchil davom ettirishi uchun qulay sharoit yaratdi. U har tomonlama yyetuk, mohir bo'lishga doimo intilib yashadi, ikki tilda yuksak darajaga yetgan ijodkorga aylandi. She'riyat muxlislari orasida shuhrati baland edi. Saroy ahli har mahal unga hurmat ko'rsatar, maslahat va tavsiyalar olib turardi, hattoki xonning o'zi davlat ishlarida unga tayanardi, shuningchun, Nodiraning mamlakat hayotida muhim o'rin tutganligi, qaror va qonunlar chiqara olish huquqi bor edi. Shoira yashagan davrda Qo'qon adabiy muhiti gullab yashnadi. Bu esa ayollarning davlat va jamiyat hayotida qanchalik faol rol o'ynashi mumkinligini, ma'lum bir sohaning ustasi bo'lib yetishishi va xalqni tarbiyalab, ma'rifat tarqatish imkoni borligining yorqin dalilidir.

Dinimiz tarixidan ma'lumki, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vassallamning rafiqalari, Islomni birinchi qabul qilgan, badavlat va omma orasida hurmat-ehtiromga sazovor savdogar ayol bo'lmish Hadicha binti Xuvaylid roziyallohu anhu ham cheksiz sadoqat, sabr-toqat, oqilalik va fidoyilik timsoli bo'lib qolgan. U dini yo'lida ko'plab mashaqqatlar chekkan bo'lishiga qaramay, haq deb bilgan dinidan voz kechmadi, aksincha, olamlarga rahmat bo'lib kelgan Payg'ambar tomonida turishni, uni har tomonlama qo'llab quvvatlashni davom ettirdi, bu yo'lda molini ham ayamadi. Barcha mulkini Islom yo'lida, musulmonlar uchun xarj qildi va Payg'ambarimiz (s.a.v) ga tayanch, kuch manbayi bo'lib xizmat qildi. Islom tarixida Buyuk zot Allohning salomiga munosib, musulmonlarning onasi maqomiga sazovor ayolga aylandi. Bu ibratli va ma'rifatga boy umr orqali, biz shuni anglashimiz joizki, har bir ayol jamiyat tarqqiyotiga o'z hissasini qo'sha olishga qodirligi shubhasiz.

Butun dunyoda hamshiralik ishining asoschisi, angliyalik "shafqat" hamshirasi Florens Naytingeylhisoblanadi. U 20 yoshidayoq hamshira bo'lishni orzu qildi. Ammo uning orzulari o'sha vaqtlarda amalga oshmas edi. Chunki jamiyat hamshiralarni go'yoki rad qilib bo'lmaydigan dalillar bilan yengil tabiatli ayollar qatoriga kiritgan edi. Aristokratik jamiyat vakillari uchun odatiy bo'lmagan kasbni puxta egallab olgan ayol, Qrim urushi davrida frontda taniqli mavqeni egallagan va yarador askarlarga xizmat ko'rsatishni tashkil qilgan. 1857- yilda Naytingeylning «Angliya armiyasida sog'liqni saqlash, gospitalarni unumli boshqarish masalalari

bo'yicha mulohazalar» kitobidagi mulohazalar natijasi o'laroq, qirol harbiy-tibbiy hay'ati tuziladi. Kazarma va harbiy gospitalarning sanitariya holatini yaxshilashga oid islohot o'tkaziladi. Bundan tashqari, harbiy-tibbiy bilim yurti ochilib, hamshira faoliyatiga yuqori darajali talablar qo'yuvchi maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqiladi. Uning modeli bo'yicha avvaliga Yevropada, so'ngra Amerikada birinchi hamshiralar maktabi tashkil qilinadi. Angliyada bu qahramon ayol sharafiga yig'ilgan mablag' hisobiga shunday maktab ochiladi. Hozirgi vaqtda ham F. Naytingeyl yozib qoldirgan kasbiy qadriyatlar o'zgarmay kelyapti. 1974 yilda Xalqaro hamshiralar kengashi tashabbusi bilan Florens Naytingeyl tavallud kuni munosabati bilan 12 may sanasi "Xalqaro hamshiralar kuni" sifatida yil taqvimiga muhrlangan. Bundan ayonki, har bir ayol Florens kabi kuchli, qat'iyatli bo'lishga qodir, uning ham qo'lidan qahramonliklar, jasorat ko'rsatish keladi, u ham jamiyatga, insoniyatga foyda olib kela oladi, xizmat qila oladi.

Endi chidam va sabr masalasiga to'xtalsak, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar onaning xotirasi kuchli bo'lsa, u bolasiga saboq berishda ko'proq sabrli bo'ladi. Yoki aksincha holatlarda, ayol farzandining qaysarliklariga qahr-g'azab bilan javob beradi. Shunday ekan, mukammallikka da'vo qiladigan har bir ayol o'zining sabr-qanoati va bardoshlilik bilan boshqalardan ajralib turishi kerak. Zero, sabrli ayol farzandini ham toqatli qilib, mehr bilan tarbiya qiladi. Bu esa jamiyatda sabrli, pozitiv shaxslar qatori ko'payishiga olib keladi. Bola o'z his-tuyg'ularini nazorat qilishni o'rganadi. Kelajak hayotidagi to'siqlardan chidam bilan o'tib, muvaffaqiyatsizliklar sabab ortga chekinmaydi.

Farzand bir kun ota yoki ona bo'ladi, albatta. Bu esa anglatadiki, o'zlashgan ta'lim- tarbiya nasldan naslga o'tadi. Demak, ayol bir insonni emas, butun avlodni tarbiyalaydi. Agar tarbiyalanuvchi ilmi, axloqli, halol bo'lib ulg'aysa, kelajakda ulardan kuchli siyosatchi, adib, olim bo'lib yetishishi mumkin. Onaning pand-nasihat va o'gitlari ham bola uchun juda foydali. Agar ona hayot maktabida, qiyin sinovlarni boshidan o'tkazgan bo'lsa, uning saboqlari juda qimmatli bo'ladi.

Aslini olganda, mukammallik nisbiy tushuncha, hech kim mukammal hayot kechira olmaganidek, mutlaq mukammal ham bo'la olmaydi. Ammo o'zi xos bo'lish, ichki dunyo go'zalligi ayolga komillik baxsh etadi. Ba bunga erishish yo'lida har xil to'siqlarga duch kelish mumkin. Bunda ayol turli xil yomon illatlardan, salbiy xatti-harakatlardan tiyilishi joiz. Jumladan, noo'rin g'azab va jahl munosabatlarda sovuqlikka, tushunmovchilik va atrofdagilarning noroziligiga olib kelishi mumkin. Bu ayolni vazminlikdan, sabrli bo'lishdan uzoqlashtiradi. Ayol kishi g'azabini tiya olmasa, hissiyorlarini nazorat qila olmasa oiladagi xotirjam muhit zararlanadi, tinchlik yo'qoladi.

Keyingi illat, bu hasad, eng og'ir gunohlardan biri, negaki Alloh taolo Falaq surasida, hasadgo'ydan panoh so'rashga chaqirgan. Bunga arzigulik sabablar bor, albatta. Hasad nima o'zi? U qachon paydo bo'lgan? Bu savollarga Xo'ja Alambardor masjidi imom xatibi Rahimberdi domla Rahmonov shunday javob beradi:

"Insoniyat yer yuzida istiqomat qilishni boshlagach sodir etilgan ilk gunoh hasaddan bo'ldi. Qobil ukasi Hobilni o'ldirdi. Bugungi kunda ham hasaddan azob chekayotganlar yoki hasad illati bilan kasallanganlar oramizda kam emas. Hasad –

hamma gunohlarning onasi. Hasadgo‘y odam o‘zi hasad qilgan odamning g‘iybatini qiladi, yolg‘on guvohlik beradi, chaqimchilik qiladi, odamni la‘natlaydi. Hasad odamni janjal qilishga, qo‘l ko‘tarishga, hattoki u qotil darajasiga eltadi. Mana shu gunohlar: yolg‘on, chaqimchilik, bo‘hton – hammasini o‘rgansak, zamirida hasad yotibdi. Hasadning shakllanishiga atrof-muhit ham sababchi bo‘lib qoladi. Tevarakatrofda unga nisbatan ta'siri kuchliroq bo‘lganlarning fe'l-atvori hasadga sabab bo‘lib qoladi. Hasadgo‘y ota-onaning farzandi ham shunday bo‘ladi”. Shu fikrlarga tayanib aytolamizki, hasad o‘zi bilan boshqa yomon illatlarni ham boshlab keladi, uning ortidan, g‘iybat, takabburlik, noshukrlik, aldanchilik, hiyla qilish kabi illatlar yuzaga chiqadi. Bu omillar qalbning kirlanishiga, unda dog‘lar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ko‘ngil kirlansa, ma‘nan komillik yetib bo‘lmas cho‘qqiga aylanadi.

Hammadan o‘zini ustun qo‘yish yoki boshqalarning muvaffaqiyatlari, yutuqlari va baxtini ko‘ra olmaslik- ayolning ichki go‘zalligi va mehribonligini so‘ndiradi. Negaki ayol o‘z baxtini boshqalar hayotiga taqqoslab emas, o‘z mehnatidan, turmushidan qidiradi. Noshukr bo‘lmaydi, har bir narsada ijobiylikni ko‘ra oladi, o‘ziga berilgan ne‘matlarni qadrlaydi, ularga toqat qilib, shukrona keltirib yashaydi.

Bugungi zamonaviy dunyoda, ayol timsoliga faqatgina uy bekasi yoki farzand tarbiyachisi sifatida qaralmaydi, balki zamon bilan hamnafas, texnologiya olamida, ilm-fan sohasida, siyosatda, tadbirkorlik va biznesda ham ilg‘or shaxslar sifatida ayol ham o‘z istedodi, salohiyatini ommaga ko‘rsatib kelmoqda. U bir paytning o‘zida ham turish turmushini joyiga qo‘yadi, farzand tarbiyalaydi, ham kasbiy faoliyati, kareyerasi bilan shug‘ullanadi. Misol tariqasida, Sheryl Sandberg-Facebook kompaniyasining bosh operatsion direktori, Kamala Harris- AQSHning birinchi vitse-prezidentin, Jenifer Doudna- biontexnologiya bo‘yicha Nobel mukofoti laureati va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis senati raisi Tanzila Narbayeva kabi matonatli ayollarni keltirishimiz mumkin.

Ammo, bugungi kunda, ularga nisbatan zamonaviylik nomi ostida har xil bo‘htonlar qilinmoqda. Tashqi ko‘rinishga ortiqcha e‘tibor, zohiriy go‘zallikka intilish, ijtimoiy tarmoqlarga suratlar joylab, “faol” bo‘lishga harakat qilishlar, modaning orqasidan quvish, har xil trendlarga ergashish bilan ayollik malohatiga, sofligiga putur yetmoqda. Aslida, haqiqiy go‘zallik va mukammal ayolning ko‘nglida, asl o‘zligida mujassam.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, ayol ichki go‘zalligi, donoligi, hayosi-iffati, ma‘naviyati, fidoyiligi va sabr-bardoshi bilan komillikka yetishadi, butun jamiyatni shunday tarbiyalay olish qudratiga erishadi. U nafaqat oiladagi mehr-oqibatni saqlovchi, farzabdlar tgarbiyachisi, turmushni farovon qiluvchi, balki zamon bilan hamnafas yashab, turfa sohalarda muvaffaqiyat qozongan, jamiyat va davlat taraqqiyotiga o‘zi hissasini qo‘shayotgan inson. Mukammalikka qadar yo‘lda unga imkon, e‘tibor va hurmat-ehtirom zarur, xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qobilov N. “Zarafshon” gazetasi (2022) 42-son. // bukhari.uz
2. Ражабоев Б. Алишернинг онаси // kh-davron.uz

3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/nodira-firoqnoma.html>
4. Quqonova D. (2022), Kitobxonlar davrasi #mashhur_ayollar. // <https://www.facebook.com/groups/badiiy/posts/2814284721973282/>
5. <https://islom.uz/view/iffat-xakida>
6. Patience in parenting: the role of working memory (2009). // <https://healthland.time.com/author/tiffanysharples/>
7. Hasad – ko‘plab gunohlar manbai. Rahimberdi domla Rahmonov bilan suhbat (2020). // kun.uz
8. Abdussalom Ashriy Abdulg‘ani Hasan. “Hadicha binti Xuvaylid” risola kitob (2022).

Sevinch Tursunali qizi Botirjonova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz filologiyasi fakulteti talabasi

E-mail: botirjonova17sevinch17@gmail.com

Ilmiy rahbar: **N.O.Toliboyeva**

O‘zDJTU, O‘zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti, PhD

YANGI O‘ZBEKISTONNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHDA AYOLLARNING O‘RNI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Yangi O‘zbekistonda ayollarning intellektual rivojlanishga qo‘shgan muhim hissasiga bag‘ishlangan. Unda ayollarning ilmiy tadqiqotlar, ta‘lim va boshqaruv sohalarida ishtiroki ortib borayotgani hamda bu ularning mamlakatning modernizatsiya va taraqqiyotiga qanday ta‘sir ko‘rsatgani haqida so‘z yuritiladi. Maqolada gender tengligi islohotlari ta‘siri, ayol olimlar ilm-fan va texnologiyaga qo‘shgan hissasi, ayollar ta‘limining yoshlar intellektual va ma‘naviy qadriyatlarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollarning intellektual va ilmiy yetakchiligi O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Mamlakatning bilimga asoslangan iqtisodiyotga aylanishi, ayniqsa, akademiya, tadqiqot va texnologiyalar sohasida ayollarni qo‘llab-quvvatlashga bog‘liq.

Kalit so‘zlar: ayollar, intellektual salohiyat, ilm-fan, yetakchilik, gender tengligi, ta‘lim, O‘zbekiston, innovatsiya, ma‘naviy qadriyatlar.

THE ROLE OF WOMEN IN THE GROWTH OF THE INTELLECTUAL POTENTIAL OF THE NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article is on the significant contribution of women towards intellectual development in New Uzbekistan. It discourses on their increased participation in scientific studies, education, and administration and how they have contributed to the country's modernization and progress. The article examines the impact of gender equality reforms, the contribution of women scientists to science and technology,

and the contribution of women's education to the enhancement of intellectual and spiritual values of the youth. The study confirms that women's intellectual and scientific leadership is essential to the sustainable development of Uzbekistan. The transformation of the nation into a knowledge economy heavily relies on empowering women in all aspects, particularly in academia, research, and technology.

Keywords: Women, Intellectual Potential, Science, Leadership, Gender Equality, Education, Uzbekistan, Innovation, Spiritual Values.

Introduction

Intellectual potential of any nation is very vital for its growth and sustainable development. Intellectual contribution of women in Uzbekistan is increasingly valued as a primary factor in the modernization of the country. Over the past few years, Uzbekistan has carried out extensive reforms to empower women, and especially in science, technology, and education. Women have been appointed as leaders and have made major contributions towards their growth and kept the nation competitive on a global level. This article seeks to explore the crucial role of women in making the intellectual strength of Uzbekistan in the conduct of scientific research, contribution to the education sector, and determination of national and spiritual values.

Research results

The Role of Women in the Development of Science and National and Spiritual Values

The Uzbek women have taken over the leadership in science and significantly improved the nation's national economy and spiritual values. As the country transitions towards a knowledge-based economy, the contribution of women to scientific research and technology breakthroughs has been an imperative. According to the Ministry of Science and Higher Education (2022), women now hold over 30% of the positions of researchers in the renewable energy sector, which is among the most significant spheres of activity for the development of Uzbekistan (Ministry of Science and Higher Education, 2022). Moreover, women are actively involved in the preservation and popularization of national cultural values as part of their scientific activities, contributing to the formation of Uzbekistan's spiritual and ethical basis.

Example 1: Dr. Nargiza Rahimova, who is an eminent scientist working in the field of renewable energy, has guided several solar energy projects in Uzbekistan, making the nation independent of fossil fuels to a significant extent. Her efforts have not only encouraged eco-friendliness but also paved the way for the nation's vision of being energy-independent by the year 2030. Example 2: Uzbek women scholars are also in the spotlight in the social sciences, exploring issues such as national identity, cultural heritage, and the role of women in modern society. Their research dictates the moral and spiritual foundations of the nation.

Women's Leadership in Scientific Research for a Sustainable Future

Female leadership in scientific studies has significantly contributed to Uzbekistan's attainment of a sustainable future. Women are at the forefront of

research in some of the major fields such as environmental conservation, agriculture, health, and education. For instance, female scientists in Uzbekistan have greatly assisted in the development of agriculture production, food security, and combating climate change problems. Example 1: In a 2021 study of sustainable agriculture in the Fergana Valley by Dr. Shahnoza Karimova, it was explained how women-led leadership in agriculture is working towards both economic development and ecological sustainability (Karimova, 2021). Example 2: In medicine, women researchers have led the way in research aimed at improving public health, especially in rural areas where women would typically not have access to healthcare services. Such research is crucial to the country's healthcare system in its bid to reach its multiversed population.

Intellectual Potential as One of the Key Factors in the Development of New Uzbekistan

Intellectual capital is the most valuable resource of any country, and one of the most important drivers of the progress of Uzbekistan towards becoming a modern, innovative state. The development of the country's intellect cannot proceed without the involvement of women. Over the last few decades, the government has initiated a tremendous amount of policies promoting gender equality in education and science. All these policies have led to an increase in women pursuing higher education and joining the labor force in various professional roles. Example 1: According to the Uzbek Ministry of Higher Education (2022) report, the number of female students pursuing science and technology has increased over 30% in the past five years (Ministry of Higher Education, 2022). It is a clear indication of the government's effort towards providing women equal opportunities for studying programs in the field of STEM (Science, Technology, Engineering, and Mathematics). Example 2: Female professors and researchers are also contributing meaningfully to Uzbekistan's intellectual life. They are educating the next generation of scientists and are inspiring young women to become career researchers and technologists.

Civil Society Institutions and Family Wellbeing Analysis

Civil society institutions have been a crucial role in empowering women's engagement in science, politics, and leadership. Challenges still exist, however, especially in balancing work and family responsibilities. Women in Uzbekistan are often faced with societal constraints that impede career development, especially into leadership roles. Civil society organizations have been working on promoting women's rights and gender equality, but much more remains to be done to integrate women fully into decision-making at all government and industry levels. Example 1: The Women's Association of Uzbekistan "Olima" has been actively contributing towards improving gender equality in the workplace and advocating policies to facilitate women's leadership and women's engagement in the labor market. All their efforts have helped in creating awareness about gender discrimination and equipping women with skills to overcome these barriers. Example 2: Women continue being challenged to juggle family and career duties. In a recent study by A.Nurmatova (2023), while civil society organizations have seen success in advancing women's rights, many women still feel compelled to perform traditional gender roles at home,

which gets in the way of their liberty to pursue careers in science and technology (Nurmatova, 2023).

Conclusion

The role of women in intellectual development of New Uzbekistan is both profound and non-replaceable. Women have demonstrated excellent leadership in science, education, and other key areas, and their role plays a crucial part in the country's development into a knowledge-based economy. However, certain issues still remain, particularly in achieving absolute gender equality and balancing work and family life. In the future, it is extremely important that the government and civil society sustain support for policy-making that empowers women and ensures them equal opportunities in all areas. In this way, Uzbekistan will be able to better survive against challenges in the future and achieve its aspirations of sustainable development and innovation.

REFERENCES:

1. Ministry of Higher Education of the Republic of Uzbekistan. (2022). Gender Equality in Education: Achievements and Challenges. Retrieved from www.mhe.uz.
2. Karimova, S. (2021). Sustainable Farming Practices in Uzbekistan: Women's Contributions to Environmental Sustainability. *Journal of Agricultural Science*, 45(3), 23-34.
3. Rahimova, N. (2021). Sustainable Water Management in Agriculture: A Focus on Uzbekistan. *Journal of Environmental Studies*, 34(2), 78-85.
4. Nurmatova, A. (2023). Civil Society and Women's Rights in Uzbekistan: Challenges and Solutions. *Tashkent Social Sciences Journal*, 25(4), 112-119.
5. Karimova, D. (2020). Women's Empowerment in the Modern World: A Comparative Study of Uzbekistan and Other Central Asian Countries. Cambridge University Press.
6. Toliboyeva N.O. O'zbekistonda gender tengligi masalasining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. *International Scientific Journal Science and Innovation Special Issue: "Transformation of Education: The Role of Women in The Development of Science"*, February 16, 2024 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10663511>.
7. World Bank. (2022). Women in Science: Overcoming the Gender Gap. Retrieved from www.worldbank.org.
8. UN Women. (2021). Gender Equality and Women's Empowerment in Central Asia. Retrieved from www.unwomen.org.

Сарвиноз Шухратовна Азамжонова
ЎзДЖТУ 2 курс талабаси
dilraboigamberdiyeva549@gmail.com

**ШАРҚ МАМЛАКАТЛАРИДА АЁЛЛАР МАСАЛАСИ ВА АМИР
ТЕМУР СИЁСАТИ**

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Шарқ мамлакатларида аёллар мақоми, уларнинг жамиятда тутган ўрни, ҳуқуқлари ва фаолиятлари тарихи таҳлил қилинади. Шу билан бирга, XIV–XV асрларда яшаб ўтган буюк давлат арбоби ва ҳарбий саркарда Амир Темурнинг аёллар борасидаги сиёсати, унинг аёлларга бўлган муносабати ҳамда Темурийлар давридаги ижтимоий-сиёсий ҳолатлар билан боғлиқ масалалар ёритилади. Мақолада тарихий манбалар, “Темур тузуклари” ва замонасининг олий даражадаги аёллари ҳақидаги маълумотлар орқали масалага ёндашув амалга оширилади.

Калит сўзлар: Шарқ цивилизацияси, давлат, сиёсат, бошқарув, хотин-қизлар, жамият, аёл, тараққиёт, аллома

Инсониятнинг буюк ютуқларидан бири ҳар қандай давлатнинг маънавий ва ахлоқий етуқлигини, унинг хотин-қизларга муносабати белгилайди. Айтиш жоизки ҳозирги замон тамаддудининг бошланғич ибтидоий жилғалари бошида ҳам аёл турган. Шу боис матриархат даврида фарзандларнинг насаби онаси томонидан аниқланган. Патриархат даврига ўтиш эса аёлларнинг жамиятда турган ўрнини ўзгартириб, аёлларни жамият тараққиётидаги иштирокини рад этди ва уларнинг фаолияти оила доирасида чекланиб қолди. Бу жараён ҳар жойда турли даражада амалга оширилди ва узоқ давом этди. Бу ўзгаришлар натижасида жамият ва оилани бошқариш эркаклар қўлига ўтди, аёл эса оила доирасида моддий ва маънавий жиҳатдан эркакка қарам бўлиб қолди. Шунинг учун оилада ўғил фарзанд туғиладиган бўлса, у оила меросхўри, авлод давомчиси, эл-юрт қўриқчиси сифатида катта хурсандчилик билан кетиб олинган. Қиз фарзанд эса бировнинг хасми, деб қаралган. Гарчан аёл фарзандни дунёга келтириб, тарбиялаб, оила хўжалигини юритишда турли вазифаларни бажарса-да, унинг бу хизматлари ўша пайтда жамият миқёсида етарли баҳоланмаган. Тарихнинг айрим даврларида аёлнинг инсон сифатидаги фазилатлари камситилиб, унга паст назар билан қараш ҳам урф бўлган.

XIX асрда олмон файласуфи А.Шопэнгауэр аёлни ғоз, Ницше эса мушук тимсоли деб, эълон қилган. Айнан юқорида таъкидланган даврларда Шарқ мамлакатларида бу масалага ёндошишда ижобий силжишлар содир бўлган. Шарқ файласуфлари ва шоирларининг асарларидаги аёлларни мадҳ этувчи мисралар билан танишар эканмиз, дунёда ҳеч бир қавм шарқчалик аёлни нозик тавсифлар ила мадҳ этолмаганини кўрамиз.

Мана шундай урф-одатларга асосланган даврларни улуғ давлат арбоби, етук саркарда соҳибқирон Амир Темур даври мисолида ҳам кўришимиз мумкин. Амир Темур – буюк давлат арбоби, ҳарбий саркарда ва сиёсий ислоҳотчи сифатида танилган шахсдир. Унинг давлат бошқарувидаги муваффақиятлари нафақат ҳарбий, балки ижтимоий сиёсатда ҳам намоён бўлган. Темур тузукларида аёлларга эҳтиром кўрсатиш, уларни химоялаш, уларнинг шаъни ва қадрини сақлаш борасида аниқ кўрсатмалар мавжуд.

Соҳибқироннинг ҳарбий юришлари, бунёдкорлик ишлари ҳақида катта-кичик асарлар яратган ўша давр тарихчиларининг жаҳонгирнинг маликалари, харами, умуман аёлларга бўлган муносабатлари ҳақида жуда кам маълумотлар

ёзиб қолдиришган. Сабаби, Шарқда бировнинг хотинлари ва оилавий ҳаёти ҳақида гапириш одобсизлик ҳисобланади. Ғарб мамлакатларида эса бунинг тескарисини кўрамиз.

Темурийлар даври тарихчиси Ибн Арабшоҳнинг ёзишича, соҳибқирон ўз ҳузурида аёлларни ғийбат қилиш, уларни зўрлаш ва хўрлаш ҳақидаги ҳар қандай суҳбатларни таъқиқлаган.

Шарқ цивилизацияси узоқ тарихга эга бўлиб, унда аёлларнинг жамиятдаги ўрни турли даврларда турлича бўлган. Айрим даврларда аёллар сиёсий, ижтимоий ва маданий соҳаларда фаол қатнашган бўлса, баъзи даврларда уларнинг ҳуқуқлари чекланган, ҳаёти турли тўсиқлар билан тўсиб қўйилган. Хусусан, XIV асрга келиб, Марказий Осиёда Амир Темури таъсис этган буюк давлатнинг шаклланиши билан аёлларга бўлган муносабатда муайян ўзгаришлар юз берди.

Аёл – ҳар бир жамиятнинг ўзаги, тарбиячи, маданият ва маънавият тарғиботчиси ҳисобланади. Шарқ тамаддунида аёлларга нисбатан муносабат қадимдан турли даврлар ва маданий таъсирларга қараб ўзгариб келган. Айниқса, Ислом дини кириб келиши билан аёлларнинг ҳуқуқлари ва жамиятдаги ўрнига бўлган муносабатда муайян тараққиёт кузатилган. XIV–XV асрларда Амир Темури томонидан асос солинган марказийлашган давлатда аёлларнинг мақоми ва уларга нисбатан муносабат алоҳида сиёсий ва маънавий аҳамият касб этади.

Амир Темури аёлларга нафақат оилада, балки жамиятда ҳам муайян ўрин беришга ҳаракат қилган давлат арбоби сифатида намоён бўлади. Амир Темури аёлларни эъзозлабгина қолмасдан, давлатни бошқаришда уларнинг маслаҳатларидан кенг фойдаланган. Амир Темурининг ўз оиласидаги аёлларга – хусусан онаси, рафиқаси ва қизларига бўлган муносабати унинг аёлларга умумий муносабатини кўрсатади. Масалан, унинг рафиқаси Сарой Мулкхоним давлат ишларида ҳамда ҳарбий юришларида ҳам иштирок этган ва ҳукмдор билан маслаҳатлашган. Бу ҳолат ўша давр учун катта илғор ютуқ ҳисобланган. Тарихий манбалардаги маълумотларга кўра, ўта зийрак, тадбиркор Сарой Мулкхоним салтанатни бошқаришда вужудга келган айрим муаммоларни ҳал қилишда ўзининг оқилона маслаҳатлари билан фаол қатнашган. Яна шуниси кизиқарлики, Амир Темури саройида жорий қилинган тартибга кўра хорижий элчиларни қабул қилиш маросимларида ҳукмдор ёнида турмуш ўртоқлари ҳам иштирок этишган. Шу билан бирга Темурийлар сулоласи (Улуғбек, Шоҳрух, Ҳусайн Бойқаро ва бошқалар) даврида аёлларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётдаги иштироки ҳақида гапирадиган бўлсак, илм-фан, маданият, меъморчилик ва ижтимоий муносабатлар юқори даражада ривожланган. Бу жараёнда аёллар ҳам муайян даражада иштирок этган. Масалан, Улуғбекнинг онаси Гўркам, фарзандини илмга ҳидоят қилган, унинг таълим-тарбиясида иштирок этган. Бадиий ва илмий фаолиятда ҳам айрим зиёли аёллар фаол бўлган.

Шарқдаги қадимий давлатларда (Миср, Бобил, Ҳиндистон, Хитой ва бошқалар) аёллар оилавий ҳаётнинг марказида бўлган. Улар бола тарбияси, оила бошқаруви, маданият ва баъзан сиёсатда ҳам қатнашган. Лекин жамиятда эркакларга нисбатан камроқ ҳуқуқларга эга бўлган. Қуръон ва ҳадислар орқали

аёлнинг мақоми олий этиб белгиланди. Шу билан бирга, баъзи минтақа ва даврларда аёлларга нисбатан патриархал муносабат устун бўлган.

Темурнинг машҳур “Тузукоти Темурий” асарида аёлларга нисбатан ахлоқий-ижтимоий талаблар, уларни ҳимоя қилиш, уларга эҳтиром кўрсатиш ҳақида бир қатор кўрсатмалар бор. Ушбу тузукларда аёлларнинг оиладаги ва жамиятдаги ўрни, уларнинг ҳуқуқ ва бурчлари аниқ белгилаб берилган. Темур кўшинларига ҳатто уруш даврида ҳам аёллар, қариялар ва болаларга зиён етказмаслик ҳақида қатъий буйруқлар берган. Жумладан,

- Уруш пайтида аҳоли орасидаги аёллар, қариялар ва болаларга зиён етказмаслик.

- Аёлларнинг шаъни ва қадрини сақлаш – ҳар бир саркарда ва аскарнинг бурчи.

- Оила – давлат пойдевори; аёл – оила ва ватан муҳофазасининг рамзи.

- Ҳар бир эркак онасини, рафиқасини ва қизини ҳурмат қилмоғи лозим.

Бу кўрсатмалар Темур давлатини ахлоқий, ҳуқуқий ва диний меъёрларга асосланган бошқарув тизими сифатида намоён этади.

Хулоса сифатида айтиш жоизки, Шарқ мамлакатларида аёллар масаласи жуда кўп қиррали ва тарихий жараёнларга боғлиқ масала ҳисобланади. Амир Темурнинг бу борадаги сиёсати ўз даври учун илғор ва инсонпарвар ёндашув бўлган. Унинг давлат тузумида аёлларга жамиятнинг фаол ва тенг ҳуқуқли аъзоси сифатида қаралган. Темурийлар даврида ҳам бу сиёсат изчил давом этган. Бугунги кунда бундай тарихий тажрибалар аёллар ҳуқуқларини таъминлашда, уларнинг жамиятдаги фаол иштирокини таъминлашда муҳим ўрнаткич бўла олади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Амир Темур. Темур тузуклари (Тузукоти Темурий). – Тошкент: Гафур Гулом нашриёти, 1991.

2. Бартольд В.В. Туркистон тарихи. - Тошкент, Фан, 2000.

3. Раҳимов А. Темур ва Темурийлар даврида аёллар мақоми // “Тарих ва замон” журнали, 2018, №2.

4. Саидов А. Исломда аёл ҳуқуқлари. - Тошкент, Маърифат, 2010.

5. Encyclopaedia Iranica – Amir Timur / Women in Timurid Era (www.iranicaonline.org)

Bonu Akbar qizi Asatova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz filologiyasi fakulteti, 1-bosqich talabasi
e-mail: asatovabonu24@gmail.com

YOSHLARNING JAMIYATDAGI O‘RNI VA MAS’ULIYATI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarning jamiyatdagi o'рни va mas'uliyati yoritilgan. Yoshlar jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta'kidlanadi va ular uchun yaratilgan imkoniyatlar, xususan, "Yoshlar ishlari agentligi", "Yoshlar daftari", "Yoshlar press klublari" kabi loyihalar haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish va ularning intellektual va ma'naviy uyukligi muhimligi ta'kidlangan. Real misollar orqali mavzu yanada jonlantirilgan va xulosa sifatida yoshlarning jamiyatdagi faolligi va mas'uliyat hissi kelajak taraqqiyoti uchun asosiy omil ekani qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, jamiyatdagi o'рни, mas'uliyat, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar daftari, Yoshlar press klublari, tadbirkorlik, intellektual rivojlanish, ma'naviy uyuklik, yoshlar siyosati, ijtimoiy faollik.

РОЛЬ И ОТВЕТСТВЕННОСТЬ МОЛОДЕЖИ В ОБЩЕСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются роль и ответственность молодежи в обществе. Подчеркивается, что молодежь является движущей силой общества, и представлена информация о созданных для них возможностях, в частности о таких проектах, как "Агентство по делам молодежи", "Реестр молодежи" и "Пресс-клубы молодежи". Также акцентировано внимание на важности развития предпринимательства среди молодежи, их интеллектуальной и духовной зрелости. Тема оживляется с помощью реальных примеров, а в качестве вывода отмечается, что активность и чувство ответственности молодежи являются основными факторами будущего прогресса общества.

Ключевые слова: Молодежь, роль в обществе, ответственность, Агентство по делам молодежи, Реестр молодежи, Пресс-клубы молодежи, предпринимательство, интеллектуальное развитие, нравственная зрелость, молодежная политика, социальная активность.

ROLE AND RESPONSIBILITY OF YOUTH IN SOCIETY

ABSTRACT

This article highlights the role and responsibility of youth in society. Youth are emphasized as the driving force of society, and information is provided about opportunities created for them, particularly projects such as the "Agency for Youth Affairs," the "Youth Register," and the "Youth Press Clubs." The importance of developing entrepreneurship among young people, as well as their intellectual and moral maturity, is also emphasized. Through real-life examples, the topic is further illustrated, and it is concluded that the active participation and sense of responsibility among youth are key factors for the future progress of society.

Keywords: Youth, role in society, responsibility, Agency for Youth Affairs, Youth Register, Youth Press Clubs, entrepreneurship, intellectual development, moral maturity, youth policy, social activity.

Yoshlar har qanday jamiyatning tayanchi, ertangi kunning bunyodkorlari hisoblanadi. Ularning bilimli, mas'uliyatli va faol bo'lishi – butun mamlakat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda yoshlarning jamiyatdagi o'rni va ular zimmasiga tushayotgan mas'uliyat tobora ortib bormoqda. Shu bois, bu mavzu nafaqat dolzarb, balki har birimizni befarq qoldirmasligi lozim.

Yoshlar – jamiyatning eng faol, g'ayratli va yangilikka intiluvchi qatlamidir. Ular nafaqat kelajak egasi, balki bugunning ham harakatlantiruvchi kuchi sanaladi. Har bir sohada – ta'limda, fan va texnologiyada, madaniyatda, tadbirkorlikda yoshlarning ishtiroki tobora kuchayib bormoqda. Bu esa ularning jamiyatdagi o'rni naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda davlatimiz yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratmoqda. Masalan, “Yoshlar ishlari agentligi”, “Yoshlar daftari”, “Yoshlar press klublari”, “Ilm-fan yulduzlari” kabi loyihalar aynan yoshlarning salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qilmoqda. Bu imkoniyatlar orqali ko'plab yoshlar o'z orzulariga erishmoqda, ijtimoiy loyihalarda faol ishtirok etmoqda.

Biroq faqat imkoniyat yetarli emas. Har bir yosh o'z zimmasidagi mas'uliyatni chuqur his qilishi, o'z ustida muntazam ishlashi, ma'naviy va intellektual jihatdan yetuk bo'lishi zarur. Jamiyatning ravnaqi uchun yoshlarning faolligi bilan birga, ularning odob-ahloqi, vatanparvarligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Afsuski, ayrim yoshlar orasida ishsizlik, chet elga ketish istagi, ijtimoiy befarqlik holatlari uchrab turadi. Bu kabi muammolarning sabablari chuqur tahlil qilinishi, davlat va jamiyat tomonidan zarur choralar ko'rilishi lozim. Shu bilan birga, har bir yosh ham o'z kelajagiga befarq bo'lmay, o'z ustida ishlashni davom ettirishi kerak.

O'zbekistonda yoshlar siyosati sohasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning asosiy maqsadi – yoshlarning jamiyatdagi faolligini oshirish, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlashdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlar siyosatiga alohida e'tibor qaratilmoqda va bu sohada qator yirik dasturlar va loyihalar ishlab chiqilgan.

1. Yoshlar ishlari agentligi 2017-yilda tashkil etilgan Yoshlar ishlari agentligi yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatini tartibga solish, va jamiyatda teng imkoniyatlar yaratish uchun muhim tashkilot hisoblanadi. Agentlik, o'zining faoliyati orqali yoshlar uchun turli ilmiy, madaniy va sport loyihalarini amalga oshirishga yordam beradi. Bu tashkilot yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, o'quv va ish joylarini yaratish, shuningdek, ular uchun moliyaviy yordam ko'rsatish kabi bir qator amaliy dasturlarni amalga oshirmoqda.

2. “Yoshlar daftari” va “Yoshlar press klublari”. O'zbekistonda yoshlarning jamiyatdagi o'rni va ularga taqdim etilgan imkoniyatlar haqida gapirganda, “Yoshlar daftari” va “Yoshlar press klublari” kabi tashabbuslar katta ahamiyatga ega. “Yoshlar daftari” loyihasi orqali davlat yoshlarning ijtimoiy ehtiyojlarini o'rganadi va ularning kelajakda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur sharoitlar yaratadi. Yoshlar press klublari esa o'quvchilar va talabalar uchun jurnalistika, yozuvchilik va kommunikatsiya sohasida o'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

3. Yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish. Yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha bir qator yangi dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu dasturlar yoshlarni o'z bizneslarini boshlashga, zamonaviy texnologiyalarni o'rganishga va innovatsion g'oyalarni amalga oshirishga rag'batlantiradi. Masalan, davlat yosh tadbirkorlarga subsidiyalar, kreditlar va boshqa moliyaviy yordam ko'rsatadi, bu esa yoshlarni o'zini o'zi band qilishda katta yordam beradi.

“Yoshlar daftari” dasturi – 2017-yildan boshlab, O'zbekistonning barcha hududlarida yoshlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Dastur doirasida, 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarning ijtimoiy ahvoli tekshiriladi va ular uchun ta'lim, ish o'rinlari, sog'liqni saqlash va boshqa ko'plab sohalarda yordam ko'rsatiladi. Misol uchun, 2020-yilda bu dastur orqali 50 000 dan ortiq yoshlar o'zlarining ta'lim olishi yoki ishga joylashishiga yordam topdi.

Shahlo Shodiyeva – 23 yoshida “ArtPlace” nomli san'at va dizayn studiyasini ochgan yosh tadbirkor. U o'zining biznesini boshlashda yoshlar uchun yaratilgan grantlardan foydalangan va hozirgi kunda o'zining san'at asarlarini xorijda sotishga muvaffaq bo'lgan. Shahlo o'zining misolida yoshlarni o'z orzulari va maqsadlari sari intilishga undamoqda.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar jamiyatning har bir jabhasida faol ishtirok etuvchi, uning ertangi taraqqiyotini belgilovchi muhim kuchdir. Ularning bilimli, mas'uliyatli va tashabbuskor bo'lishi mamlakat kelajagi uchun katta ahamiyatga ega. Har bir yosh o'zining kichik harakati bilan katta ijtimoiy o'zgarishlarga sababchi bo'lishi mumkin. Shu sababli, yoshlar o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholab, jamiyat oldidagi burchlarini chuqur anglab yashashlari lozim. Zero, bugungi yoshlarga qaratilgan e'tibor va ishonch, aslida butun kelajak avlodga qurilgan mustahkam poydevordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Yoshlar siyosati to'g'risida”gi Qonun, 2016-yil 14-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: <https://president.uz>
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Abdullayeva M. “Yoshlarning jamiyatdagi o'rni”, Jamiyat va boshqaruv, 2022, №4, 35–38-betlar.
5. <https://youth.uz> — Yoshlar ishlari agentligi rasmiy sayti.

Marjona Davronjon qizi Anvarjonova
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz filologiyasi fakulteti, 1-kurs talabasi
marjonaanvarjonova56@gmail.com

HOZIRGI KUNDA AYOL-QIZLARNING JAMIYATDAGI O'RNI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kunda ayol-qizlarning jamiyatdagi o'zni va roli tahlil qilingan. Ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ta'lim va ma'daniy-ma'naviy sohalardagi faolligi, ularning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va mavjud muammolar haqida fikr yuritilgan. Ayollar faolligining kelajak uchun ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Ayol-qizlar, jamiyat, siyosat, iqtisodiyot, ta'lim, gender tenglik, rivojlanish

РОЛЬ ЖЕНЩИН В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется роль и место женщин и девушек в современном обществе. Рассматривается их активность в политической, экономической, образовательной и культурно-духовной сферах, вклад в развитие общества, а также существующие проблемы. Подчеркивается значение женской активности для будущего.

Ключевые слова: Женщины и девушки, общество, политика, экономика, образование, гендерное равенство, развитие.

THE ROLE OF WOMEN IN MODERN SOCIETY

ABSTRACT

This article analyzes the role and position of women and girls in modern society. It discusses their activities in political, economic, educational, and cultural spheres, their contributions to societal development, and the existing challenges. The importance of women's active participation for the future is emphasized.

Keywords: Women and girls, society, politics, economy, education, gender equality, development.

Zamonaviy dunyoda ayol-qizlarning o'zni tobora oshib bormoqda. Ayollar nafaqat oilaviy hayotda, balki siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy sohalarda ham faol ishtirok etmoqda. Globalizatsiya va ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonlari ayollar faolligini yangi bosqichga olib chiqdi. O'zbekiston ham ayollar huquqlarini ta'minlash va ularning salohiyatini rivojlantirish bo'yicha katta islohotlarni amalga oshirmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda ayollar faolligi va ularning turli sohalardagi o'zni tahlil qilinadi.

Ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligi

Hozirgi kunda ayollar siyosiy qarorlar qabul qilishda faol qatnashmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ayollar ulushi 32 foizni tashkil qilmoqda [1]. Bu ko'rsatkich gender tenglikni ta'minlash borasidagi yutuqlardan biridir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, ayollarni siyosiy hayotga jalb etish demokratik jamiyat rivojlanishining asosiy belgisi hisoblanadi [2]. Xususan, 2019-yil 2-sentyabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi va "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.[3] Ushbu qonunlar xotin-qizlarni turmushda, ish joylarida, ta'lim muassasalari, boshqa joylarda tazyiqlar va zo'ravonlikning

barcha shakllaridan himoya qilish hamda erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash, jinsi bo'yicha kamsitilishining va tengsizligining oldini olish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Ayollar va iqtisodiy rivojlanish

Ayollar iqtisodiy faoliyatda ham sezilarli natijalarga erishmoqda. O'zbekistonda "Ayollar daftari" loyihasi doirasida minglab ayollar tadbirkorlik uchun imtiyozli kredit va grantlarga ega bo'ldi [4]. Ularning iqtisodiy mustaqilligi nafaqat oilaviy daromadni oshiradi, balki jamiyatda ayollarning mavqeini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Ayollar o'z iqtisodiy mustaqilligi bilan jamiyat hayotida o'z o'rniga ega bo'ladi.

Ayollar va ta'lim

Ayollarning ta'lim sohasidagi faolligi yildan-yilga oshib bormoqda. 2024-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar orasida ayollar ulushi 45 foizni tashkil etdi [5]. BMT va UNESCO hisobotlariga ko'ra, ayollar ta'lim olganda, butun jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi tezlashadi [6]. Ayollarning bilim olishi kelajak avlod uchun muhim hisoblanadi.

Ayollar va madaniy-ma'naviy hayot

Ayollar adabiyot, san'at, sport va boshqa madaniy-ma'naviy sohalarda ham faol qatnashmoqda. 2023-yilda bo'lib o'tgan "Sharq Taronalari" festivalida bir qator ayol san'atkorlar xalqaro mukofotlarga sazovor bo'ldilar [7]. Bu esa ayollarning madaniy hayotdagi faolligini yanada oshirmoqda va ayollarining har sohada yetakchi ekanligi ko'rsatilmoqda.

Muammolar va kelajakdagi vazifalar

Shu bilan birga, ayrim hududlarda ayollar hali ham ta'lim va iqtisodiy imkoniyatlardan to'liq foydalana olmayapti. UNDP hisobotlariga ko'ra, global darajada ayollar o'rtasida ishsizlik darajasi erkaklarga nisbatan yuqori [8]. Shu sababli, kelgusida gender tengligini ta'minlash, ayollarning ta'lim va bandlik sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda ayol-qizlarning jamiyatdagi o'rni va roli sezilarli darajada oshdi. Ular siyosiy, iqtisodiy, ta'lim va madaniy-ma'naviy sohalarda faol ishtirok etmoqda. Ayollarning faoliyati jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Kelgusida ularga yanada keng imkoniyatlar yaratish va mavjud to'siqlarni bartaraf etish orqali rivojlangan, barqaror va adolatli jamiyat qurish mumkin. Adolatli jamiyat orqali ayollar ko'plab yutuqlarga erishadi va rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oliy Majlis faoliyati haqida statistik ma'lumotlar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi rasmiy sayti. (2024).
2. UN Women Report. (2023). Gender Equality Progress Report.
3. Oliy Majlis qonunchilik palatsi. <https://parliament.gov.uz/articles/287>
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi. (2024). "Ayollar daftari" loyihasi natijalari.

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi statistik ma’lumotlari. (2024). Oliy ta’limdagi ayollar soni.
6. UNESCO Report. (2023). Education and Women's Empowerment.
7. O‘zbekiston Madaniyat vazirligi. (2023). “Sharq Taronalari – 2023” natijalar va g‘oliblar.
8. UNDP Human Development Report. (2023). Global Gender Inequality Index.

Джумамуратов Гулом Машарипович
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети
Ўзбекистон тарихи кафедраси ўқитувчиси

ЎЗБЕКИСТОНДА ЯНГИЛАНИШ ЖАРАЁНИДАГИ ИСЛОҲОТЛАРДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ ОМИЛЛАРИ

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақола ўзбек хотин-қизларининг мамлакатдаги янгилашиш жараёнидаги ислоҳотларда илм-фан тараққиёти, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ва маънавий юксалиш йўлидаги фаоллигини ошириш омилларига бағишланган. Ўзбекистон хотин-қизларининг ислоҳотлар жараёнида олиб борган илмий-ижодий фаолияти билан ёшларни таништириш ҳамда уларни фаол хотин-қизлар ҳаётидан ибрат олиш ва сабоқ чиқаришга ундаш ҳамда уларни ижтимоий фойдали ишлар билан шуғулланишга йўналтириш асосий мақсад қилиб қўйилган.

Калит сўзлар: янгилашиш жараёни, ислоҳотлар, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш, жамият, адабиёт, санъат, салоҳият, илм-фан тараққиёти, хотин-қизлар, маънавий камолот, фидойи, жонкуяр, жамоат арбоби, истеъдодли олима, илмий-ижодий фаолият.

ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН В РЕФОРМАХ В ПРОЦЕССЕ ОБНОВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена факторам повышения активности узбекских женщин в процессе обновления страны для развития науки, социально-экономического развития и духовного роста. Основная цель - познакомить молодежь с научной и творческой работой женщин Узбекистана в процессе реформ, побудить их учиться на жизненном опыте активных женщин и направить их на общественно полезный труд.

Ключевые слова: процесс обновления, реформирования, социально-экономического развития, общество, литература, искусство, потенциал, научное развитие, женщины, духовная зрелость, самоотверженность, страсть,

общественный деятель, талантливый ученый, научная и творческая деятельность.

FACTORS OF INCREASING SOCIAL ACTIVITY OF WOMEN IN REFORMS IN THE PROCESS OF RENEWAL IN UZBEKISTAN

ANNOTATION

This article is devoted to the factors of increasing the activity of Uzbek women in the process of updating the country for the development of science, socio-economic development and spiritual growth. The main goal is to acquaint young people with the scientific and creative work of women in Uzbekistan in the process of reforms, encourage them to learn from the life experience of active women and send them to socially useful work.

Key words: the process of renewal, reform, socio-economic development, society, literature, art, potential, scientific development, women, spiritual maturity, dedication, passion, public figure, talented scientist, scientific and creative activity.

Жаҳонда ҳар бир миллатнинг ўзига хос жиҳатларини, хусусан, ижтимоий фаоллини ошириш, маънавиятини шакллантиришда энг аввало, бекиёс таъсир кучига эга бўлган интеллектуал салоҳиятининг ўрни каттадир. Ўзбекистон бой қазилма ва табиий ресурсларга, қудратли иқтисодий ва инсоний салоҳиятга эга бўлган мамлакатдир. Миллий-маънавий қадриятларимизнинг илм-фан ва тараққиёт ютуқлари билан бойитилиб борилишини таъминлаш борасида олиб борилаётган саъй-ҳаракатлар мамлакатимизнинг замон талабларига мос равишда ривожланишига кенг йўл очмоқда. Бугун ана шу вазифалар, келажак режалари ҳақида фикр юритилар экан, мамлакатдаги янгиланиш жараёнидаги ислохотлар муваффақияти, асосан, унда хотин-қизларнинг ижтимоий фаол эканлигига, олималарнинг қанчалик даражада иштирок этишига боғлиқ. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2020 йил 24 декабрда Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномасида: “Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос – бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик – бу билимсизликдир! Шу сабабли ҳаммамиз учун замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш узлуксиз ҳаётий эҳтиёжга айланиши керак”[1], деб таъкидлаган эди. Айниқса, янгиланаётган Ўзбекистоннинг замонавий тараққиёт йўлида халқнинг энг катта бойлиги бўлган улкан интеллектуал ва маънавий салоҳият эгаларидан бўлмиш хотин-қизларнинг бу жараёндаги ижтимоий фаоллигини ошириш янада муҳим аҳамият касб этади.

Бугунги кунда хотин-қизларнинг илм-фан ва таълим тизимида ҳам тўлақонли иштирок этиши, мамлакатнинг иқтисодий тараққиёти, давлат хавфсизлиги, ички ва ташқи сиёсат масалаларида фаол иштирок этиши оддий бир ҳолга айланиб бормоқда. Уларнинг янгича дунёқарашини шакллантириш, миллий менталитетимизга хос бўлган қадриятлар ва инсоний фазилатларни камол топтиришга катта эътибор қаратилмоқда. Зеро, жотин-қизларнинг жамият тараққиётида ва ислохотлар жараёнидаги ижтимоий-сиёсий

фаоллигини ошириш, гендер тенгликни таъминлаш масаласи давлат сиёсатида муҳим ўрин тутди. Бу борада Президент Ш.Мирзиёев “Ҳозирги кунда ҳар бир хотин-қиз демократик жараёнларнинг кузатувчиси эмас, балки фаол ва ташаббускор иштирокчиси бўлмоғи шарт”[2], деб таъкидлагани ҳам бежиз эмас.

Мамлакатимиз тарихида ўзининг ноёб иқтидори, чуқур билими, савияси ва зукколиги билан ном қолдирган ҳамда мустақил дунёқарашга, фалсафий мушоҳадага эга юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялашда алоҳида ўрнига эга юзлаб фан докторлари ва академиклар, минглаб фан номзодлари орасида ўз билими ва истеъдоди билан Ватанимиз равнақига астойдил хизмат қилиб келган хотин-қизларнинг борлиги билан ҳақли равишда фахрланса арзийди. Ўзбекистон бой ва инсоний салоҳиятга эга бўлган мамлакат эканлигини чуқур англаган Президент Ш.Мирзиёев: “Бу салоҳиятни яратиш ва янада кўпайтиришда ҳурматли зиёлиларимиз – илм-фан ва техника намояндалари, биринчи навбатда кадрли ва ҳурматли академикларимиз, маданият, адабиёт ва санъат, спорт соҳаларининг вакиллари бутун вужудини бериб, фидокорона меҳнат қилаётганликларини биз яхши биламиз ва юксак қадрлаймиз”[3.144], деб таъкидлади.

Олиб борилаётган ислохотларнинг илм-фан ва тараққиёт ютуқлари билан бойитилиб борилишини таъминлаш борасида олиб борилаётган саъй-ҳаракатларда мамлакат хотин-қизларининг ижтимоий фаоллиги жаҳон талабларига мос равишда ривожланишига кенг йўл очмоқда. Бугун ана шу вазифалар, келажак режалари ҳақида фикр юритар эканмиз, фан ва унинг тараққиёти, демократик ислохотлар муваффақияти, асосан, унда олимларимиз қанчалик даражада иштирок этишига боғлиқ. Айниқса, Президент Шавкат Мирзиёев таъбири билан айтганда, “бизнинг энг катта бойлигимиз – бу халқимизнинг улкан интеллектуал ва маънавий салоҳиятидир”[4]. Бу жараёнда хотин-қизларнинг илмий ва маънавий салоҳияти, ижтимоий фаоллиги янада муҳим омил бўлиб хизмат қилмоқда.

Бугунги кунда мамлакатнинг иқтисодий тараққиёти, давлат хавфсизлиги, ички ва ташқи сиёсат, умуман ислохотлар жараёнида хотин-қизларнинг илм-фан ва таълим тизимида ҳам тўлақонли, фаол иштирок этиши оддий бир ҳолга айланиб бормоқда. Хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий ислохотлар жараёнидаги иштироки, жамият томонидан уларнинг қўллаб-қувватланишига қараб мазкур давлатнинг илғорлиги, тараққий этганлиги даражаси ва тутган мавқеини аниқлаш мумкин. 2019 йил 22 декабрь куни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасига ўтказиладиган сайловларда иштирок этиш учун кўрсатилган 750 нафар номзодлардан 310 нафари (41,3%) хотин-қизлар ташкил этади. Бу 2014 йил декабрь ойида ўтказилган парламент сайловларидагига нисбатан қарийб 10% (31,8%)га кўп бўлди. Сайлов натижаларига кўра, Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутатларининг 32% ни, Сенат аъзоларининг 25% ини, Халқ депутатлари вилоят Кенгашлари депутатларининг 31,2% ини аёллар ташкил қилди. Ушбу кўрсаткич билан Ўзбекистон парламенти 190 та жаҳон мамлакатлари орасида 37-ўринни, жаҳон гендер тенглиги индексида 188 та давлат орасида 57-ўринни

эгаллади[5]. 2020 йилнинг 1 март ҳолатига кўра, Ўзбекистондаги 20 та вазирликнинг марказий аппаратида 849 нафар ёшлардан 210 нафари (24,7%)ни ёш хотин-қизлар ташкил қилган. Гендер тенглиги бўйича энг юқори кўрсаткич Сув хўжалиги (65,2%) ва Адлия (50%) вазирликларида бўлса, энг паст кўрсаткич Иқтисодиёт ва санъат (6,7%) ҳамда Қишлоқ хўжалиги (6,9%) вазирликларида қайд этилган. Шу ўринда қайд этиш лозимки, Ўзбекистон Барқарор Ривожланишини амалга оширилишининг биринчи мониторинг бўйича Миллий шарҳ лойиҳасида раҳбар лавозимидаги аёллар улуши 27,7% (2015)дан 33% (2019)га ошганлиги қайд этилади[6.13].

Ана шу жиҳатдан олганда, мамлакатимиз тарихида ўзининг ноёб иқтидори, билими, савияси ва зукколиги билан ном қолдирган ҳамда мустақил дунёқарашга, фалсафий мушоҳадага эга юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялашда алоҳида ўрнига эга “ўнлаб опасингилларимиз “Ўзбекистон Қаҳрамони, “Ўзбекистон фан арбоби”, “Ўзбекистон халқ ўқитувчиси”, “Ўзбекистон халқ шоири, “Ўзбекистон халқ артисти” сингари давлатимизнинг юксак фахрий унвонларига, орден ва медалларига сазовор бўлган. Уларнинг орасида 500 нафардан зиёд фан докторлари ва академиклар, минглаб фан номзодлари ўз билими ва истеъдоди билан Ватанимиз равнақиға астойдил хизмат қилиб келмоқда[7].

Бу масала эндиликда, XXI асрга келиб, янада долзарб тус олди, чунки ҳеч қачон ҳозиргидек, муҳим ва улкан ўзгаришлар содир этилган эмас. Бу борада шундай фикрлар бор: ҳар қайси миллат ва халқнинг маънавий камолотини яққол акс эттирадиган шундай бир мезон борки, у ҳам бўлса, жамиятнинг хотин-қизларга бўлган муносабати, хурмати билан белгиланади. Зеро, бугунги кундаги энг муҳим вазифа ҳаётимизни янада соғлом ва обод қилиш, аввало аёл зотининг жамиятимиздаги ўрни ва нуфузини, ижтимоий фаоллигини янада ошириш, хотин-қизларнинг турли жабҳа ва йўналишларда қилаётган ишларини муносиб баҳолаш, ҳар қайси хонадонда уй бекаси бўлмиш опасингилларимизнинг оғирини енгил қилишдан иборатдир. Бу сўзлар шунчаки куруқ гап эмас, у нафақат маънавиятга, балки илмий-амалий ишларга ҳам тааллуқлидир.

Бу ўринда мамлакатимиз илм-фан, маърифат ва маънавияти ривожига улкан ҳисса қўшган олималарнинг ўрни ҳам беқиёс эканлигини таъкидлаш жоиз. Ана шу жиҳатдан олганда, мамлакатимиз тарихида ўзининг ноёб иқтидори, билими, савияси ва зукколиги билан ном қолдирган ҳамда мустақил дунёқарашга, фалсафий мушоҳадага эга юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялашда алоҳида ўрнига эга ўнлаб аёллар номини келтириш мумкин. Шулар орасидан тарих фанининг зукко билимдони, фидойи, жонкуяр ва заҳматкаш инсонлардан бири – Ўзбекистон Республикаси ФА академиги, тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасининг Абу Райҳон Беруний номидаги Давлат мукофоти совриндори, республикада хизмат кўрсатган фан арбоби Раҳима Аминова олиб борган илмий тадқиқот ишларининг ғоятда муҳим ва илмий-амалий аҳамиятга эга эканлигини мисол қилиб келтириш мумкин. Ўзбекистон ва Марказий Осиё тарихига оид кўплаб тадқиқотлар муаллифи, етук жамоат арбоби, истеъдодли

олима бағри кенг, илм ва зиё таратиб келган, ҳаётининг ҳар бир дақиқасини мазмунли ва самарали ўтказган ноёб иқтидор эгаси эканлигини барча инсоний фазилатлар билан уйғунликда жонбозлик, ташаббускорлик, фидойилик унинг иш жараёни моҳияти эканлигини опани билган, таниган инсонларнинг барчаси бир овоздан эътироф этадилар. У ўзбек тарихшунослик фанида ўз илмий мактабини яратган етук олима ҳисобланади. Нашр қилинган асарлари 300 дан ортиқ номда бўлиб, шундан 15 таси йирик монографик тадқиқот эканлиги олиманинг илмий қизиқиши доираси кенглиги, ижодий истеъдоди кўп қирралилигидан далолат беради. Раҳима Аминова 1978 йилда Швециянинг Упсала шаҳрида ўтказилган Бутунжаҳон социологлари конгрессида Ўзбекистон хотин-қизлари масаласига бағишланган маърузасини инглиз тилида қилди[8.16]. Бу маъруза анжуман иштирокчилари томонидан юқори баҳоланиб, Упсала шаҳрида чиқариладиган газетада ҳам босилиб чиққанлиги олиманинг катта ютуғи бўлди. Шундан кейинги йилларда ҳам Раҳима Ҳодиевна кўпгина хорижий мамлакатларда ўтказилган илмий анжуманларда ўз маърузалари билан фаол иштирок этди. Бу олима сингари яқин ўтмишда яшаб ўтган етук тарих фанлари докторлари Розия Мукминова ва Раъно Ражапова каби тарихчи олималар қолдирган бой меросдан бугунги кунда илм аҳли баҳраманд бўлмоқдалар. Уларнинг фидойилик билан олиб борган эзгу ишлари ҳар биримиз учун улкан намунадир.

Бугунги кунда давлат ва жамият бошқарувида аёлларнинг ўрни ва мавқеини янада мустаҳкамлаш – ислоҳотларимизнинг энг устувор йўналишларидан бири бўлиб қолиши кераклиги уқтирилган Президент Мурожаатномасида шунингдек, “мамлакатимизда истиқомат қилаётган 17 миллиондан зиёд опа-сингилларимиз, қизларимиз, онахон ва момоларимизга муносиб шароит яратиш бериш учун барча имкониятларни ишга солишимиз лозим”, деган энг долзарб масала кўтарилди[9]. Мустақил Ўзбекистонимизнинг ватанпарвар, серғайрат, илм-фанини тараққий эттириш, ислоҳотлар жараёнида фаол қатнашиш учун бугунги кунда астойдил тер тўкаётган миллатнинг фахри, ғурури сифатида асрашга лойиқ, арзигулик, илм-фанда юзлаб фидойи олим ва олималари бор экан, бу юртнинг келажаги порлоқ, халқи эса бой, бадавлат бўлади, фаровон ҳаёт кечиради. Бугунги авлод ҳам мана шундай шароит ва янги имкониятлардан унумли фойдаланган ҳолда, ўтмишда яшаб ўтган буюк алломалар ва устозлардан ибрат олиб иш юритсалар, жаҳон илм-фани ва маданияти ютуқларини тўлиқ эгаллайдилар, мамлакат тараққиёти, юксалиши учун етук ва малакали кадрлар бўлиб етишадилар. Президент таъкидлаганидек, “Ёшларимиз ўз олдида катта марраларни кўйиб, уларга эришишлари учун кенг имкониятлар яратиш ва ҳар томонлама кўмак бериш-барчамиз учун энг устувор вазифа бўлиши зарур”[10.69]. Зеро, тараққиётнинг мутлақо янги босқичига қадам қўяётган Янги Ўзбекистонда **“Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”** деган давваткор ғоя ҳаётимизга тобора чуқур кириб бораётган ҳозирги замонда Ўзбекистонда янги бир уйғониш – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор яратилаётган, янгиланиш жараёнида ислоҳотлар олиб борилаётган бир пайтда, Ўзбекистон хотин-қизлари катта интеллектуал куч эканлигини чуқур

англанса, бу жараёнда улар қанчалик салоҳиятли, билимли, ижтимоий фаол бўлса, илм-фан янада тараққий этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. [https://nrm.uz/contentf?doc=612866_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzиеvning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_\(2020_yil_24_yanvar\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=612866_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzиеvning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_(2020_yil_24_yanvar)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)
2. Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг йигирманчи ялпи мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи. - №127 (7357) 22.06.2019.
3. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.144.
4. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи// XXI ASR, 2016 йил 15 декабрь.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган учрашувдаги нутқи// Халқ сўзи, 2018 йил 8 март. 10(748)-сон.
6. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг 2019 йил 15 ноябрдаги кенгайтирилган мажлиси ҳисоботи.
7. Р.Муртазаева. Современные подходы к разработке карьерных маршрутов женщин-ученых / Олима аёл интеллектуал салоҳият ва жамият тараққиёти йўлидаги фидойи куч. Халқаро илмий анжуман. – Тошкент, 2019, – Б.13.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган учрашувдаги нутқи// Халқ сўзи, 2018 йил 8 март. 10(748)-сон.
9. Д.Бобожонова. Миллат ғурурига айланган аёл//Фан ва турмуш. – Тошкент, 1996, №1. – Б.16.
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2020 йил 29 декабрь.<https://president.uz/uz/lists/view/4057>
11. Янги Ўзбекистон – янгича дунёқараш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси асосида. Рисола. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент, 2021. – Б.69.

MUNDARIJA

I SHO‘BA. YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA MILLIY-MA’NAVIY QADRIYATLARNING YUKSALISHIDA AYOLLARNING TUTGAN O‘RNI	4
Murtagaeva P.X. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХОРИЖДАГИ БАТАНДОШЛАР БИЛАН АЛОҚАЛАРИНИ МУСТАҲКАМЛАНИШИ – УМУММИЛЛИЙ ТОТУВЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИ.	4
Babajanova D.B. YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN RIVOJIDA AYOLLARNING O‘RNI.....	8
Xalikova R.E. YOSHLARNI MILLIY-MA’NAVIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHDA AYOLLARNING O‘RNI.....	15
Djurayeva N.D. YANGI O‘ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL SALOHİYATNI YUKSALTIRISHDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI	21
Toliboyeva N.O. YANGI O‘ZBEKISTON AYOLLARINING TUB ISLOHOTLAR JARAYONIDAGI O‘RNI.....	27
Ma’diyeva A.D. ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ ЧЕРЕЗ ТРАДИЦИОННЫЕ ОБРАЗЫ В ТВОРЧЕСТВЕ СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ ПОЭТЕСС.....	31
Elmurodova S.A. YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA MILLIY-MA’NAVIY QADRIYATLARNING YUKSALISHIDA AYOLLARNING TUTGAN O‘RNI	35
Hayitmurodova G.Z. AYOL VA TARAQQIYOT: ILM VA QADRIYATLAR UYG‘UNLIGIDA YANGI DAVR.....	38
Abdulloyeva M. ZAMONAVIY O‘ZBEK JAMIYATIDA AYOLLARNING ILM-FAN VA MA’NAVIYATDAGI YETAKCHILIK ROLI	41
Kamolova K.A. MILLIY QADRIYATLAR VA ILM-FAN UYG‘UNLIGIDA AYOLNING O‘RNI.....	47
Mo‘minova R.M. YANGI O‘ZBEKISTONDAGI ILM-FAN VA MILLIY-MA’NAVIY QADRIYATLARNING YUKSALISHIDA AYOLLARNING TUTGAN O‘RNI	50
Muratova D.T. РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ НАУКИ И НАЦИОНАЛЬНО-ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	55
Sadriiddinova K.J. EMPOWERING WOMEN IN SCIENTIFIC EDUCATION: A PATH TO PRESERVING NATIONAL-SPIRITUAL VALUES IN NEW UZBEKISTAN.....	58

II SHO‘BA. BARQAROR KELAJAK UCHUN ILMİY TADQIQOTLARDAYOLLAR YETAKCHILIGI..... 61

Babadjanova N.A. O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM VA AXBOROT VOSITALARINING TA’SIRI 61

Ibadullayeva G.Sh. BUGUNGI KUN AYOLLARINING ILM-FAN VA TEXNOLOGIYA RIVOJIDAGI ROLI..... 65

Achilova M.Sh. O‘ZBEK VA ISPAN TILLARIDA “YOSH” KONTSEPTINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI..... 71

Choriyeva N.I., Polvanov A.K. YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA TURIZMNING TUTGAN O‘RNI..... 74

Baxtiyorova L.O. EFFECTIVE INCLUSION FOR CHILDREN IN NEED OF SPECIAL ASSISTANCE: EXTERNAL CONDITIONS FOR SUCCESS 77

Turdikulova R.T., Turdaliyeva L.R. МЕТАФОРА В ТЕХНИЧЕСКОМ ПЕРЕВОДЕ 81

Ismatova S.J. BARQAROR KELAJAK UCHUN ILMİY TADQIQOTLARDAYOLLAR YETAKCHILIGI 88

Omonova M.F. BARQAROR KELAJAK UCHUN ILMİY TADQIQOTLARDAYOLLAR YETAKCHILIGI VA UNING ARAB TILI VA ADABIYOTINI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIRI 90

Турдалиева Л. ИСПАНСКИЙ ЯЗЫК И ЕГО ЛАТИНОАМЕРИКАНСКИЕ ДИАЛЕКТЫ..... 98

Qalandarova Sh.X. ISPAN TILINING MINTAQAVIY FARQLARI: ISPANIYA VA LOTIN AMERIKASI..... 102

III SHO‘BA. INTELLEKTUAL SALOHİYAT YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI 106

Isakov B.N. YANGI O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS ROYDEVORINI YARATISHDA JADIDCHILIK G‘OYALARINING O‘RNI. 106

Базарова М.М. ИЛМ-ФАНДА ЎЗБЕКISTON ХОТИН-ҚИЗЛАРИНИНГ ЎРНИ 108

Mirpayazova S.Z. THE ROLE OF FEMALE EDUCATORS IN THE TRAINING OF MILITARY PERSONNEL AND THEIR PROFESSIONAL SKILLS 111

Рахманова М.У. НАСТАВНИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЖЕНЩИНЫ-УЧЁНОГО В ПРОЦЕССЕ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ БУДУЩИХ ОФИЦЕРОВ В СИСТЕМЕ ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКISTANA 114

Ачилова З.П. ПАРЕМИОЛОГИК БИРЛИКЛАРДА “ЁШ” КОНЦЕПТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАЛАНИШИ.....	118
Жабборов Ш.Д. АХБОРОТ ТАҲДИДИДА ТЬЮТОР АЁЛНИНГ ТУТГАН ЎРНИ.....	121
Suvanova O.N. THE MAIN CHARACTERISTICS OF CREATIVE THINKING PEDAGOGY. METHODS FOR IDENTIFYING INDIVIDUAL’S CREATIVITY	126
Baxtiyorova L.O. THE ESSENCE AND CONTENT OF PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGIES.....	128
Pardayeva Sh.Sh. MODERN APPROACHES TO MONITORING AND EVALUATING THE EDUCATION SYSTEM IN DEVELOPING COUNTRIES	131
Suvanova O.N. INCLUSIVE AND CO-TEACHING IN CLASSROOM: JUSTIFYING THEIR KEY DIFFERENCES.....	134
Abduolimova D. REFLECTIONS ON THE CONCEPT OF INCLUSIVE EDUCATION AND DEVELOPMENT FOR CHILDREN WITH DISABILITIES	136
Choriyeva Ch.R. INTELLEKTUAL SALOHİYAT – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI.....	140
Хасанова Ш.Ш. РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ НАУКИ И НАЦИОНАЛЬНО-ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	145
Omonova M. KELAJAK TARJIMONLARI: INSON TAFAKKURI USTUN QOLADIMI YOKI SUN’IY INTELLEKT YETAKCHILIK QILADIMI?	147
Xalilova M.B. CHET TILLARINI O‘RGATISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH MASALALARI.....	151
Nosiriddinova M.H. TEXNOLOGIK INNOVATSIYALAR VA TARJIMONLIK: MUOMMOLAR, YECHIMLAR, IMKONIYATLAR, ISTIQBOLLAR	154
Egamberdiyeva F.M. ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING CHET TILINI O‘QITISHDAGI O‘RNI VA ULARDAN FOYDALANISH.....	159
Sobirova G.X. TALABALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI MASOFAVIY TA’LIM ORQALI RIVOJLANTIRISH	163

IV SHO‘BA. OILA FAROVONLIGINI TA’MINLASHDA FUQAROLIK INSTITUTLARI FAOLIYATI TAHLILI YUTUQ VA KAMCHILIKLAR170

Toliboyeva N.O. O‘ZBEKISTONDA OILA FAROVONLIGINI TA’MINLASH: YUTUQ VA KAMCHILIKLAR TAHLILI	170
Базарова М.М. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ХОТИН-ҚИЗЛАРГА НИСБАТАН ЗЎРАВОНЛИККА ҚАРШИ КУРАШ – ДАВЛАТ СИЁСАТИНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШИ СИФАТИДА	175
Базарова М.М. РАБОТА ШЕЛТЕРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	179
Шакарова А.А. РОЛЬ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ЗАЩИТЕ ПРАВ И СВОБОД ЖЕНЩИН В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	185
Adhamjonova M.E. O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGI MASALALARINING AYRIM JIHATLARI.....	190
Vaxtiyorova S.B. AYOL SIYMOSIDA MUKAMMALLIK	193
Botirjonova S.T. YANGI O‘ZBEKISTONNING INTELLEKTUAL SALONIYATINI OSHIRISHDA AYOLLARNING O‘RNI.....	199
Азамжоновна С.Ш. ШАРҚ МАМЛАКАТЛАРИДА АЁЛЛАР МАСАЛАСИ ВА АМИР ТЕМУР СИЁСАТИ.....	202
Asatova B.A. YOSHLARNING JAMIYATDAGI O‘RNI VA MAS’ULIYATI	205
Anvarjonova M.D. HOZIRGI KUNDA AYOL-QIZLARNING JAMIYATDAGI O‘RNI.....	208
Джумамуратов Ф.М. ЎЗБЕКИСТОНДА ЯНГИЛАНИШ ЖАРАЁНИДАГИ ИСЛОҲОТЛАРДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ ОМИЛЛАРИ	211

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16
Nashriyot bosma tabog‘i 13,75.
Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.
Toshkent shahri, kvartal G9A, 21A